

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA  
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI**

*Qo'lyozma huquqida*

*UDK: 339.13+658(575.1)*

*KBK: 65.9 (575.1)*

**Saidov Azizbek Maxmudovich**

**“Mintaqa iqtisodiyotini ekologiyalashtirish omillari”**

**5A 230102 – “Iqtisodiyot ” (ijtimoiy soha iqtisodiyoti) mutaxassisligi  
bo'yicha**

**Magistr  
akademik darajasini olish uchun yozilgan  
dissertatsiya**

**Ilmiy rahbar: i.f.n., dots.Sh.Ruzmetov**

**Urganch-2016**

**Magistrlik dissertatsiya ishi “Iqtisodiyot” kafedrasida dastlabki  
himoyadan o’tgan.**

\_\_\_\_\_ -sonli bayonnoma “ \_\_\_\_ ” \_\_\_\_\_ 2016 yil

**Ilmiy rahbar: i.f.n., dots. Sh.Ruzmetov** \_\_\_\_\_  
(imzo) (sana)

**Magistr: Saidov A.** \_\_\_\_\_  
(imzo) (sana)

## **MUNDARIJA**

### **KIRISH**

#### **I-BOB. MINTAQA IQTISODIYOTINI EKOLOGIYALASHTIRISHNING METODOLOGIK ASOSLARI**

- 1.1. Mintaqaviy ekologik-iqtisodiy tizimni shakllanishi va ekologik siyosat
- 1.2. Mintaqa ekologik-iqtisodiy tizim sifatida
- 1.3. Global ekologik muammolarning mintaqaviy jihatlari

#### **II-BOB. MINTAQA IQTISODIYOTINI EKOLOGIYALASHTIRISH QONUNIYATLARI VA ZAMONAVIY USULLARI**

- 2.1. O'zbekistonning ekologik muammolari va ularni o'ziga xos xususiyatlari
- 2.2. Barqaror rivojlanish konsepsiyasi tamoyillari va ularni amalga oshirish yo'llari
- 2.3. O'zbekiston mintaqalarida suv resurslari shakllanishining asosiy tendensiyalari

#### **III-BOB. XORAZM VILOYATI IQTISODIYOTINING EKOLOGIYALASHTIRISH USTUVOR YO'NALISHLARI**

- 3.1. Xorazm viloyatining ekologik-iqtisodiy rivojlanish holati
- 3.2. Xorazm viloyatida yer va suv muammolari va ularni yechish yo'llari
- 3.3. Xorazm viloyati iqtisodiyotini ekologiyalashtirish asosiy yo'nalishlari

### **XULOSA VA TAKLIFLAR**

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

## KIRISH

### **Magistrlik dissertatsiyasi mavzusining asoslanishi va dolzarbligi.**

O'zbekistonda iqtisodiyotni modernizatsiya qilish uning raqobatbardoshligini oshirish va mintaqaviy rivojlanishning barqarorligini ta'minlash muhim omillaridan hisoblanadi<sup>1</sup>. Iqtisodiyotning jahon xo'jalik aloqalariga yanada ko'proq jalb qilinishi, shuningdek mintaqalarning mavjud tabiiy-iqtisodiy salohiyatidan samarali foydalanishni ko'zda tutgan tuzilmaviy o'zgartirishlar hududiy-ishlab chiqarish tizimlarining, mezodarajaning raqobatbardoshligini oshirishda ekologik-iqtisodiy jihatni bosh o'ringa qo'yadi hamda ekologik yo'naltirilgan mintaqaviy iqtisodiyotning faoliyat ko'rsatishida hududiy jihatdan moslashtirilgan mexanizmni shakllantirishni taqozo etadi. Ushbu muammolar Xorazm viloyati iqtisodiyoti uchun ayniqsa katta ahamiyat kasb etadi, zero viloyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish dinamikasi ixtisoslashgan sohalardagi tabiiy ekologik shart-sharoitlarning takror ishlab chiqarishdagi barqarorligi, ekologik-iqtisodiy jihatdan muvozanatlashganlik darajasi bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'liq. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A Karimov ta'kidlaganidek: "Bugun Orolbo'yida nafaqat ekologik, balki dunyo miqyosida og'ir oqibatlariga olib kelishi mumkin bo'lgan murakkab ijtimoiy-iqtisodiy va demografik muammolar paydo bo'ldi"<sup>2</sup>.

Mintaqaviy iqtisodiyotning raqobatbaroshligi fundamental kategoriya sifatida namoyon bo'lib, takror ishlab chiqarishning hududiy shart-sharoitlari va omillari majmuini ham, butun hududiy birlik manfaatlarini hisobga olgan holda tabiiy-resurs potensialidan foydalanish samaradorligini ham o'z ichiga oladi.

Raqobatbardoshlikni oshirishda ekologik-iqtisodiy jihatning amalga oshirilishi minimal tabiiy-ekologik "chiqim"lar bilan maksimal iqtisodiy (ijtimoiy-iqtisodiy) samaradorlikka erishishni ko'zda tutadiki, bunda yetakchi o'rin

---

<sup>1</sup> Manba: Bosh maqsadimiz – mavjud qiyinchiliklarga qaramasdan olib borayotgan islohotlarni, iqtisodiyotimizda tarkibiy o'zgarishlarni izchil davom ettirish, xususiy mulkchilik, kichik biznes va tadbirkorlikka yanada keng yo'l ochib berish hisobidan oldinga yurishdir. O'zbekiston Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2015 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2016 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. Xalq so'zi. 16 yanvar 2016 yil.

<sup>2</sup> Manba: I.A Karimov. BMT sammiti "Mingyillik rivojlanish maqsadlariga" bag'ishlangan yalpi majlis. 20.09.2010.

egallagan quyidagi asosiy omillarni hisobga olish hamda ulardan foydalanib ish ko'rish talab qilinadi: tabiiy-resurs (tabiiy-resurs potensialining iqtisodiy parametrlari); tabiiy-ekologik; tuzilmaviy-texnologik (ustunlik qiluvchi texnologik uklad, xo'jalik kompleksining sohaviy va hududiy tuzilmalari, qo'llanayotgan texnologiyalarning ekologik parametrlari va h.k.); institutsional (bozor muhiti va bazaviy bozor institutlarining shakllanganligi, tabiatdan foydalanishning huquqiy bazasi va h.k.); demografik (aholi zichligi, aholini joylashtirish shakllarining mavjudligi va h.k.); global (mintaqaning jahon xo'jalik tizimiga integrallashish darajasi, uning milliy iqtisodiyotdagi o'rni va vazifalari va h.k.).

Raqobatbardoshlikni oshirishda ekologik-iqtisodiy jihatlarning ishlab chiqilishi hamda mintaqalarning barqaror rivojlanish strategiyasining amalga oshirilishi bilan bog'liq muammolar esa ularning hal qilinishi hududlarning tabiiy-resurs salohiyatidan samarali foydalanish asosida mintaqa iqtisodiyoti raqobatbardoshligini oshirishning ustuvor yo'lanishlarini asoslab berish zaruratini taqozo etadi. Ushbu tadqiqot mavzuning dolzarbligi ham qayd etib o'tilgan muammolarni hal qilishga qaratilganligi bilan belgilanadi.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Mintaqalarning raqobatbardoshligini oshirish va iqtisodiyotini barqaror rivojlantirish muammolariga bag'ishlangan ilmiy adabiyotlarga ko'plab misollar keltirish mumkin.

Chet ellik olimlarning, xususan G.Brundtland, I.Valerstayn, J.Valter, U.Izard, M.Porter, P.Krugman, S.Rozenfeld va boshqalarning mintaqaviy iqtisodiyot muammolariga bag'ishlangan tadqiqotlarida o'rganilayotgan muammoning xo'jalik yuritish bozor tizimi sharoitida metodologik va nazariy asoslari ko'rsatib berilgan.

Mintaqada iqtisodiy o'sishining nazariy va amaliy jihatlari F.Egamberdiyev, M.Abdusalomov, R.Alimov, T.Axmedov, A.Vaxobov, A.Qodirov, B.Ruzmetov, A.Soliyev, A.Sodiqov, A.Nizomov, I.Iskandarov, A.Rasulyev, K.Radjapov, I.Pugach, I.Yoqubov, K.Madrahimov, D.Elov va boshqalarning ilmiy ishlarida tadqiq etilgan. Mintaqaviy rivojlanishning ekologik jihatlari hisobga olgan holda

amalga oshirilgan maxsus tadqiqotlardan N.K.Aimbetov, U.B.Boygeldiyev, K.K.Bektemirov, M.B.Bekturdiyev, M.Li, K.Ubaydullayev, B.Egamov va bir qator boshqa olimlarning ishlarini ko'rsatib o'tish mumkin.

Yaqin xorijiy mamlakatlardan A.Granberg, V.Kistanov, A.M.Qarasyov, A.Merzlov, A.Filippov, P.Minakir, V.Tretyak, O.Pchelintsev, R.Shnipper, R.Fatxutdinov va bir qator boshqa olimlarning ishlarida ham shu kabi muammolar qo'yilgan va tadqiq etilgan.

Biroq, shu bilan birga, ekologik tanglik sharoitida mintaqa iqtisodiyoti raqobatbardoshligini oshirish va buning mintaqada barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta'milashga ko'rsatadigan ta'siri muammolarini kompleks o'rganishga bag'ishlangan maxsus tadqiqotlar juda kam.

Shundan kelib chiqib, tadqiqotda qo'yilgan muammoning dolzarbligi, shuningdek uning iqtisodiy adabiyotda yetarli darajada o'rganilmaganligi ushbu dissertatsiya ishining predmeti, maqsadi va asosiy vazifalarini belgilab berdi.

**Dissertatsiya ishi mavzuning ilmiy-tadqiqot ishlar rejasi bilan bog'liqligi.** Tadqiqot Urganch davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlar rejasi doirasida amalga oshirildi.

**Tadqiqot maqsadi.** Tadqiqotning asosiy maqsadini ekologik tanglik sharoitida mintaqa iqtisodiyotini ekologiyalashtirishga qaratilgan ilmiy-metodik yondoshuvlar va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish tashkil etadi.

**Tadqiqot vazifalari.** Dissertatsiyada qo'yilgan maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalar qo'yildi:

- ijtimoiy-iqtisodiy ekologik rivojlantirish asosida barqaror iqtisodiy o'sish konsepsiyasini tahlil etish;
- barqaror ekologik rivojlanishning metodologik asoslarini o'rganish;
- O'zbekistonni ekologik muammolarini o'ziga xos xususiyatlarini tadqiq etish;
- mintaqani ekologik-iqtisodiy tizim sifatida asoslash;
- mintaqa iqtisodiyotini ekologiyalashtirish yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqish.

**Tadqiqot predmeti va ob'ekti.** Ichki va tashqi bozorlarda raqobatbardoshlikning o'sib borishi sharoitida faoliyat ko'rsatayotgan va rivojlanayotgan hududiy-ishlab chiqarish tizim sifatida olib qaraladigan mintaqa tadqiqot ob'ekti bo'lib xizmat qiladi.

Milliy iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi o'ziga xos jihatlar va yo'nalishlar, hududiy-ishlab chiqarish tizimlarini ekologiyalashtirish tadqiqot predmetini tashkil etadi

**Tadqiqot metodlari.** Tadqiqot jarayonida asosan qiyosiy va statistik tahlil metodlari, tizimli va mantiqiy yondoshuv, iqtisodiy-statistik metodlaridan foydalanildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilar bilan belgilanadi:**

- mintaqani tabiiy resurs bazasidan oqilona foydalanish ustivor muammolari aniqlangan va tizimlashtirilgan. Bunda tabiiy, iqtisodiy resurslardan kompleks va samarali foydalanishni ta'minlovchi davlat siyosatini shakllantirish va amalga oshirish zarurligi asoslangan;

- iqtisodiyotni ekologiyalashtirishning nazariy asoslari o'rganilgan;

- mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi strategiyasini ishlab chiqishda "ekologiyalashtirish" tushunchasining iqtisodiy mohiyati ochib berilgan;

- mintaqa iqtisodiyotini ekologiyalashtirish konsepsiyasini amalga oshirish yo'nalishlari va asosiy tamoyillari asoslangan va tavsiyalar ishlab chiqilgan;

- mintaqada yer-suv resurslaridan foydalanishda ishlab chiqarishni ekologiyalashtirish mexanizmini asosiy elementlari asoslab berilgan.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Asosiy ilmiy mulohazalar mintaqaviy xususiyatlarni ochib berishda metodologik yondoshuvlarni kengaytiradi.

**Dissertatsiya natijalarining tatbiq qilinganligi.** Muallif tomonidan ishlab chiqilgan takliflar va tavsiyalar.

**Natijalarning nashri.** Dissertatsiyaning asosiy jihatlari 3 ta ilmiy maqola va ma'ruzalar tezislarda o'z ifodasini topdi.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa va takliflar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

## **I-BOB. MINTAQA IQTISODIYOTINI EKOLOGIYALASHTI-RISHNING METODOLOGIK ASOSLARI**

### **1.1. Mintaqaviy ekologik-iqtisodiy tizimni shakllanishi va ekologik siyosat**

Gippokrat, Gerodot, Aristotel va Ibn-Haldunlar ugla davridayoq tabiiy sharoit jamiyat rivojiga katta ta'sir ko'rsatadi deb ta'kidlashgan. Keyinroq Yevropada buyuk mutaffakkirlar J.Boden, Sh.Monteske, I.Gerder va boshqa asarlarida madaniyat, fel-atvor, xalqlarning turmush tarzida farqlarni tushuntirib beradigan geografik konsepsiya determenizmi paydo bo'ldi.

Tabiat va jamiyatni amal qilish qonunlari va evolyutsiyasini aniqlash va anglashga urinishlar bizning mamlakatimizda ham bo'lgan. Sobiq sho'rolar davrida tabiat bilan jamiyatni uzluksiz aloqalari g'oyasi tarqalgan bo'lib, ushbu sohada aniq tadqiqotlar bo'yicha anchagina tajriba to'plangan. Biroq fanning "jamiyatshunoslik" va "tabiatshunoslik" yo'nalishlari asosan o'zlarining tadqiqot ob'ektlari bilan mashg'ul bo'lishgan. Bundan tashqari sotsial va tabiiy jarayonlarni o'zaro bog'liqligining tarixiy jihatlari ko'p hollarda olimlar diqqat e'tiboridan chetda qolgan yoki ular ishlarida yo'l-yo'lakay uchraydigan narsa sifatida ko'rilgan.

Kishilik jamiyati bilan tabiatning o'zaro harakati tarixi faqatgina umumiy ko'rinishda, soddalashtirilib, doimiy sur'atda yuksalib borayotgan jarayon sifatida tasavvur qilinishi mumkin. Haqiqatda esa u "o'nqir-cho'nqir", "uzilib-uzilib", "siklik", xarakterga ega bo'lib, nisbatan "barqarorlik" va "beqarorlik" davrlarini keng ma'noda tushuniladigan almashib turishi qonuniyatlari bilan taqozo qilingan.

Inqirozlar tabiatini tahlil qilish ko'rsatishicha ular tarixiy jarayonlarni qonuniyat tusini olgan va zarur bo'g'inidir. Inqirozlar davrida tizim barqarorligi buziladi, lekin aynan inqirozlar tufayli va uni bartaraf qilish orqali tarixiy rivojlanishni yangi yuqori pog'onasida tizimli muvozanatga erishilishi mumkin. O'zining "tektologiyasida" A.A.Bogdanov yozganidek, "inqiroz muvozanatni buzilishi va shu vaqtning o'zida yangi ma'lum bir muvozanatga o'tish jarayonidir. Bu muvozanat inqirozda yuz berayotgan o'zgarishlarning so'ngi cheklangan



chegarasi, yoki tendensiyalarining so'ngi cheklangan chegarasi sifatida ko'rinishi mumkin<sup>3</sup>".

Hozirgi zamon sotsial-ekologik inqirozi oldingilaridan haqiqatdan ham o'zining keng qamrovli, globalligi bilan farqlanadi, chunki u insoniyat va biosferani o'zaro harakatini tarixiy rivojlanishining yagona zanjirida qonuniyat tusida bo'lgan bo'g'in sifatida namoyon bo'ladi. Har bir tarixiy davrga sotsial-ekologik "barqarorlikni" yoki "nobarqarorlikni" o'z tushunchasi xos.

Davlat boshqarish shakllari rivojlanishi bilan bir qatorda dunyoning barcha mamlakatlarida mintaqaviy tizimlarni shakllanishi va rivojlanishi yuz bermoqda. Bu tushunchada mintaqaviy tizim deganda davlatni sotsial-iqtisodiy ko'rsatkichlarga nisbatan bir xilligi bilan xarakterlanadigan yoki markazlardan biriga makonda yaqinligi, davlatni boshqa hududlari bilan o'zaro aloqaga kirishuvi va albatta boshqarish organi yoki markaziy darajada umumiy rivojlanish dasturiga ega bo'lgan hududini bir qismi tushuniladi. Mintaqaviy tizimlarni tadqiq qilish anchagina tarixga ega. Mintaqaviy iqtisodiy tahlilni birinchilardan bo'lib amalga oshirganlar A.Veber, I.Tyunen va A.Lesh qandaydir-bir geografik xarita ko'rinishida bo'lgan uzluksiz tasavvurga moyil bo'lganlar. Keyinroq iqtisodiy tahlilda makonni mintaqalar yig'indisi ko'rinishida diskret ravishda tasvirlashni hamma mustanosiz qo'llay boshladi, unda asosan mintaqalararo o'zaro aloqalarga zo'r berilgan.

Mintaqani sotsial-iqtisodiy hududiy tizim sifatida tushunish fanda sobiq sovetlar davrida shakllangan. Bunday tushunchada "turli hil ishlab chiqarish kuchlari va ishlab chiqarish munosabatlari"ga urg'u berilgan. Sovet davridagi mintaqaviy iqtisodiyot nazariyasida, mintaqaga xos bo'lgan uch belgi: hudud, ixtisoslashuv va iqtisodiy aloqalar to'g'risida fikr yuritiladi.

Mintaqa tushunchasini tizim sifatida shakllanishiga qator omillar ko'maklashdi, ular orasida Yu.G.Lipets quyidagilarni ajratgan: tizimli yondashuvni

---

<sup>3</sup> Manba: Богданов А.А. Тектология: Всеобщая организационная наука. Кн.2,-М.; экономика 1989, -218 с

fanlararo xarakteri, tizimli modellashtirishning umumiy metodologiyasida tahliliy va me'yoriy yondashuvlar va modellarni qo'shib olib borish<sup>4</sup>.

Shu vaqtning o'zida hududiy boshqarish ob'ektlariga nisbatan "tizim" terminini qo'llash hamma joyda ham amalga oshirilmagan. N.N.Nekrasov "Mintaqaviy iqtisodiyot" nomli klassik asarida mintaqa deganda mamlakatni u yoki bu darajada bir hil tabiiy sharoitlarga ega bo'lgan, asosiysi esa - ishlab chiqarish kuchlarini mos holda shakllangan va istiqbolli sotsial tuzilma, tabiiy sharoitlar majmuasi bilan qo'shib olib borish asosida rivojlantirishni xarakterli yo'naltirilganligi bilan farqlanadigan yirik hududni tushungan<sup>5</sup>.

Mintaqaviy yoki hududiy tizim sifatida tushunish mamlakat hududini bir qismi, eng avvalo, iqtisodiy geografiya vakillari tomonidan amalga oshirilgan. Geografiyada "tizim" termini hududiy ob'ektlarga nisbatan 1960 yillar boshidayoq qo'llanilgan. E.A.Alaev ta'kidlashicha "dastlab u tabiiy resurslar va sharoitlar qo'shilishidan xosil bo'lgan tuzilmalarga nisbatan qo'llanilgan. Keyinchalik uni iqtisodiy geografiya tizimiga ko'chirishga urinish qilindi".

Sotsial-iqtisodiy voqelik uchun geograflar tomonidan ko'p hollarda "hududiy tizim" qo'llanilgan. B.Rodoman buni "turli geografik koordinatalarga ega bo'lib o'zaro modda, energiya va axborot oqimlari orqali bog'langan hamda tashqi dunyo bilan bo'lgan munosabatda butun bir yahlitlik sifatida harakat qiladigan predmetlar ko'pligidir deb tushungan<sup>6</sup>". Qator geograflar "elementlar yig'indisidan iborat bo'lib, ular o'rtasida aloqalar geografik xarakterga ega bo'lgan" geomakon tizimini joriy qiladilar.

Mintaqaviy iqtisodiyot bo'yicha ko'pchilik hozirgi zamon tadqiqotlarida o'z ob'ektlarini tahlil qilayotganda "mintaqaviy tizim" yoki uni o'xshashi bo'lgan "hududiy tizim" terminini ishlatmaydilar. Boshqalar esa "mintaqaviy tizim" terminini unga aniq tushuncha bermasdan foydalanadilar. Umuman olganda mintaqani tizim sifatida tushunishni umumqabul qilingan deb hisoblash mumkin.

---

<sup>4</sup> Manba: Липец Ю.Г. Цикл работ по исследованию региональных систем: обзор// региональные системы - 1983. -№3

<sup>5</sup> Manba: Некрасов Н.Н. Региональная экономика. -М.: экономика, 1978, с45

<sup>6</sup> Manba: Родоман Б.Б. Территориальные ареалы и сети. - Смоленск: Ойкумена, 1999, -с.71

Masalan, A.G.Granbergga muvofiq "mintaqa - bu qator belgilar bo'yicha boshqa hududlardan farq qiladigan va qandaydir yahlitlikda bo'lib, uni unsurlari o'zaro bog'liq bo'lgan ma'lum bir hududdir". Ba'zi-bir tadqiqotchilar mintaqani tizim sifatida qabul qiladilar: "mintaqa - o'z tuzilmasi, funksiyasi, tashqi muhit bilan aloqalari, tarixi, madaniyati, aholini hayot sharoitlari bilan xarakterlanadigan yahlit tizimdir<sup>7</sup>".

A.S.Marshalova bo'yicha "mintaqa nafaqat mamlakat sotsial-iqtisodiy majmuasini kichik tizimi, balki takror ishlab chiqarishni yakunlangan sikliga, takror ishlab chiqarish bosqichlari ko'rinishini alohida shakllariga, sotsial va iqtisodiy jarayonlar kyechishini o'ziga xos xususiyatiga ega bo'lgan nisbatan mustaqil qismidir<sup>8</sup>".

Bizning tushunchamizda "mintaqaviy tizim" uncha katta bo'lmagan areallardan tortib qit'alararo hududiy tizimgacha deyarli har qanday hududiy tuzilmalarni (birlashmalarni) o'z ichiga oladi.

Shuning bilan birga mintaqaviy tizimlar ko'p hollarda qo'llaniladigan "mintaqaviy xo'jalik kompleksi" yoki "mintaqa iqtisodiyoti" kabi tushunchalardan kengdir. Mintaqaviy tizim iqtisodiy kategoriyalardan tashqari mintaqa aholisi hayoti va faoliyatini sotsial-madaniy rivojini, atrof-muhit holatini va sh.u. xarakterlovchi unsurlarni o'z ichiga oladi. Shu vaqtning o'zida, tadqiqotchilar "mintaqani xo'jalik yurituvchi sub'ektlar sifatida tanlashda" tizimli tahlilni qo'llash zarurligini ta'kidlashadi. Bunda "xo'jalik majmuasi sifatida hududni iqtisodiy yahlitligi, ichki va tashqi iqtisodiy aloqalar xarakteri, iqtisodiy, sotsial va ijtimoiy-siyosiy vazifalar umumiyliigi kabi jarayonlarni tadqiq qilishga urg'u beradilar".

Shuningdek, ilmiy adabiyot manbalarida mintaqani tarixiy-madaniy zona, "siyosiy tahlil ob'ekti" va "siyosat va ijtimoiy munosabatlar sub'ekti" singari tushuncha bilan atash ham uchraydi. 1996 yilning oxirida Yevropa ittifoqi mamlakatlarida qabul qilingan Yevropada regionalizm to'g'risida deklaratsiyada

---

<sup>7</sup> Manba: Гренберг А.Г. Основы региональной экономики: учебник. -М.: ГУ ВШЭ, 2000. - с.81

<sup>8</sup> Manba: Маршалова А.С., Новоселова А.С. Основы теории регионального воспроизводства -М.: Экономика, 1998.

"mintaqa" tushunchasini kiritishda "ko'pdan-ko'p siyosiy shaklda uchrashi mumkin bo'lgan siyosiy o'ziga xoslik" belgilovchi omil bo'lgan.

Mintaqaviy tizimlar federativ davlatlarda to'laroq shakllanadi. Federativ davlatlarning asosiy tamoyillaridan biriga muvofiq hokimiyatni tik (vertikal) holda bo'lishi mintaqaviy tizimning federatsiya sub'ekti tushunchasiga mos kelishini taqazo qiladi (Avstraliya, Braziliya, Meksika, Nigeriya, AQSHda shtat, Kanadada provintsiya, Shvetsariya kanton va sh.u.).

Mintaqaviy tizimlarni iqtisodiy nuqtai-nazardan tadqiq qilgan "uzoq xorij" mamlakatlar olimlari: Y.Shumpeter, F.Perru, V.Leontev, T.Xagerstrand, P.Xagget, E.Xeksher, B.Olin, V.Bunge kabilarning xizmati katta bo'lgan. Sobiq Ittifoqda ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish masalalari bilan shug'ullanuvchi Kengash (SOPS) hamda alohida olimlar N.N.Nekrasov, A.E.Probst, N.N.Kolosovskiy, V.V.Kistanov, S.A.Nikolaev, E.B.Alayev, V.F.Pavlenko, T.M.Kalashnikova, A.I.Chistobayev, R.I.Shniper va boshqalar salmoqli hissa qo'shishgan. O'zbekistonda bu sohada S.K.Ziyodullayev, K.N.Bedrintsev, K.I.Lapkin, Z.M.Akramov, M.A.Abdusalomov, T.M.Axmedov, Sh.N.Zokirovlar samarali ishlar olib borishgan. Mintaqaviy ekologik-iqtisodiy tizimlarni shakllanishi ekologik siyosat yuritish uchun tag-zamin bo'ladi. O'z navbatida ekologik siyosat - bu jamiyatni tabiatga ta'siri bilan bog'liq bo'lgan tadbirlar tizimidir. Uni amalga oshirish esa har bir mintaqa doirasida inson bilan jamiyat o'rtasida o'zaro munosabatlar jarayonining kyechishi, xususiyatlari va qonuniyatlari bilan bog'liq.

Aytish joizki, aholi hayot-faoliyati har qachon atrof-muhitga faol ta'sir ko'rsatgan. Inson jamiyati va tabiat o'zaro bog'liqlik jarayonlari modda, energiya, axborotni siklik doiraviy aylanishi shaklida kechadi. Bu jarayonlarni kengaytirish va chuqurlashtirish ekologik muvozanatni buzishga, tabiiy-ijtimoiy qarama-qarshilikni kuchayishiga, sotsial-ekologik muammolarni paydo bo'lishiga olib keladi.

Yer sayyorasida shakllangan, aholida hududlarda kuchaygan ekologik vaziyat insoniyatni keyinchalik mavjud bo'lishini havf ostiga qo'yadi. Bu to'g'rida Rio-de-Janeyro (Braziliya), Yoxannesburg (JAR), Kioto (Yaponiya) sammitlari,

Rim klubi a'zolari ma'ruzalari, ko'pchilik mamlakatlar olimlari nashrlari xulosalari guvohlik beradi. Aniq ravshan bo'lib qoldiki, faol ekologik siyosatsiz odamlar hayoti qulay muhitini saqlab bo'lmaydi. Bundan barcha hududiy darajalarda ekologik siyosatni muvofiqlashtirish muhimligi kelib chiqadi (sayyora, davlatlararo, davlat, mintaqa va lokal).

Aytish kerakki sotsial-ekologik jarayonlar alohida mamlakatlar yoki mintaqa chegaralari bilan cheklanmaydi va ular uzluksiz yagona geografik makonda kechadi. Shuning bilan bir vaqtning o'zida tabiatdan foydalanish va ifloslanish manbaalari makonda mujassamlashgan, nafaqat tabiiy, balki davlat va ma'muriy chegaralarga ega bo'lgan hududga bog'langan. Ushbu tushunchalardan kelib chiqib global, davlatlararo va mahalliy ekologik siyosatni yuritish to'g'risida fikr yuritish to'g'ridir.

Sayyora miqyosidagi ekologik siyosat ta'sir doirasiga turli ko'lamli tabiiy-ijtimoiy jarayonlarni kyechishi uchun tag-zamin bo'lgan global ekologik vaziyatni yaxshilash masalalari kirishi kerak. Ifloslantiruvchi moddalar tarqalishini kontinual (uzluksiz) xarakterga egaligi ko'pchilik ekologik halokatlarni sayyoraviy fojeagacha olib keladi.

Hamkorlikda (jamoalar bo'lib) hal qilishini talab qiladigan global ekologik muammolar doirasida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

- issiqxona samarasi - atmosferani is gazi, suv bug'i va boshqa moddalar bilan ortiqcha to'yinganligi tufayli isib ketishi;
- o'rmon maydonlarini, ayniqsa tropik zonada, qisqarishi;
- ozon tuynugi erni tabiiy himoyachisi bo'lgan ozon qatlamini ultrabinafsha nurlaridan buzilishi;
- yovvoyi hayvonlar, o'simliklar va boshqalarini yo'q bo'lib ketishi.

Sayyoraviy ekologik strategiya va siyosatni shakllanishi xalqaro ekologik forumlarda, mustaqil xalqaro tashkilotlarda, "Yashillar" harakatida va boshqalarda yuz beradi.

Global xarakterga ega bo'lmagan ba'zi-bir ekologik muammolar davlatlararo darajada hal qilishni talab qiladi. Bunday muammolarga Kaspiy dengizida suv

darajasini ko'tarilishi, Orol dengizini qurib qolishi Afrikani shimoliy qismida yerlarni cho'llashishi va sh.u. kiradi. Ularni hal qilish qator davlatlar harakatlarini birlashtirish, umumiy ekologik siyosatni ishlab chiqish va amalga oshirishni talab qiladi.

Ekologik vaziyatni shakllantirishda muhim rolni ekologik omil o'ynaydi. Qoloq texnologiya va eskirgan asosiy fondlar, ishlab chiqarish haddan tashqari to'planuvi, fragmentar ekologik infratuzilma atrof-muhit ifloslanishini kuchaytiradi.

Mintaqaviy ekologik siyosatni strategik maqsadi odamlar hayoti va faoliyatini qulay muhitini shakllantirish uchun sharoit yaratish va tabiatdan foydalanish jarayonlarini takomillashtirish:

- tabiatdan oqilona foydalanish va atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha barcha faoliyat "tabiat-xo'jalik-aholi" mintaqaviy tizimini muvozanatli rivojlantirishga ko'maklashadigan sotsial-ekologik ustuvorliklarga bo'ysundirish;

- korxonalarni texnologik qayta qurish va energiya ishlab chiqarish sikllari konstruksiyalari asosida iqtisodiyotni hududiy tashkillash hisobiga resurs, suv va energiya sig'imini kamaytirish;

- mintaqaviy yahlit ekologik infratuzilmani shakllantirish;

- mintaqaviy iqtisodiyotni isloh qilish, ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishning ekologik omilni, sotsial yo'naltirilganlikni va tabiiy muhitni saqlashni hisobga olib amalga oshirish;

- sanoat korxonalarini texnik jihatdan qayta qurish, transport ustidan qat'iy nazorat o'rnatish, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida agrokimyo texnologiyalariga rioya qilish hisobiga suv va havo havzalari, tuproqni ifloslanish darajasini pasaytirish;

- sanoat va maishiy chiqindilarni qayta ishlovchi utilizatsiya korxonalari tizimini barpo qilish;

- butun ekologik faoliyatda ekotizimlarni havza prinsipida tashkillashni, buzilgan landshaftlarni tiklash bo'yicha rekultivatsiya faoliyatini, tabiiy merosni saqlash (qo'riqxonalar, buyurtmaxonalar va hokazolar) hisobga olish;

- o'zaro bog'langan ekologik dasturlar blokini, atrof-muhitni muhofaza qilish dasturlaridan tortib tuzish va unda turli hududiy darajalarda (mintaqa, shahar, qishloq) odamlar hayot-faoliyati havfsizligi bo'yicha tadbirlar xususiyatini aks ettirish;

- tabitdan foydalanishni oqionalashtirish dasturlarini ishlab chiqib, unda geobiosenozlar yahlitligini va odamlar hayot-faoliyatini qulay muhitini saqlash;

- ekologik monitoringni yagona mintaqaviy tizimini geoaxborot bilan ta'minlashni tashkillash;

- boshqarish apparata va barcha mintaqalar aholisini ekologik savodxonligini va madaniyatini oshirish.

Ekologik siyosat, ekologik dasturlar va tadbirlarni konseptual asoslarini ishlab chiqish va amalga oshirishda quyidagi prinsiplarga rioya qilish maqsadga muvofiqdir:

1. ekologik muammolarni keskinligiga bog'liq holda mintaqa hududlari bo'yicha ekologik tadbirlar ustuvorligi;

2. tabiiy landshaftlar va biogeosenozlar yahlitligini saqlash;

3. mintaqa geografik qobig'i va tabiiy muhiti kontinual-diskret xususiyatlarini tabiatni muhofaza qilish tadbirlarida hisobga olish;

4. odamlar hayot-muhitini shakllantirishni kompleksliligi va tizimliligi;

5. qo'yilgan maqsadlar va vazifalarni realligi va erishish mumkinligi;

6. turli hududiy darajalarda geoekotizimni amal qilishi realligi;

7. aholini, xo'jalik faoliyatini sotsial, ekologik va iqtisodiy samaradorlikni optimal qo'shib olib borish, murosasozlik asosida barcha tabiatdan foydalanuvchilar harakatini muvofiqlashtirish;

8. aholi sog'ligi va farovonligiga salbiy tabiiy va texnogen xodisalar ta'sirini profilaktika qilish;

9. tabiiy, xo'jalik jarayonlari ustidan doimiy monitoring o'rnatish.

Mintaqa boshqarish organlari prinsiplar tizimiga tayangan holda ekologik siyosatni ustuvor yo'nalishlarini asoslashlari mumkin. Bunda uni strategiya va

taqtikasini mintaqaviy siyosatning barcha turlarini uzoq muddatli maqsadi va vazifalari bilan muvofiqlashtirish zarur. Alohida e'tiborni mintaqaviy iqtisodiyot, demografiya va ekotizim rivojlantirishning istiqbolli yo'nalishlariga qaratish lozim. Aniq takliflar ishlab chiqishda ilmiy-texnika taraqqiyoti va mintaqaning bo'lajak byudjetini balansiga erishishni hisobga olish maqsadga muvofiq.

Mintaqaviy ekologik siyosat ta'sirchan bo'lishi mumkin, agar u aniq manzilli va hududiy yo'naltirilgan bo'lsa. Buning uchun mamlakat va mintaqalarni sotsial ekologik jihatdan rayonlashtirishni va ajratilgan hududlarni tabiatdan foydalanuvchilar balanslashtirilganligi, ifloslantirish darajasi va inson hayoti uchun tabiiy muhitni yaroqliligi bo'yicha toifalashtirish zarur.

Tabiiy resursdan foydalanishni balanslashtirilganlik darajasiga bog'liq holda aniq hududlarda barcha tabiatdan foydalanuvchilar faoliyatini muvofiqlashtirish bo'yicha ta'sirchan choralar tizimini ishlab chiqish oldinda turibdi. Bunda ular ishi reglamenti va ifloslantiruvchi moddalar chiqarilma va tashlanmalari hamda havo va suv havzalariga, tuproqqa chiqindilar limitini belgilash zarur.

Tabiatdan foydalanish jarayonlarini oqilonalashtirish tabiiy sharoit va resurslarni butun kompleksi, tabiiy landshaftlarni va biogeosenozlarni yahlitligini saqlashni hisobga olib amalga oshirilishi kerak. Buning uchun korxonalar resurs sig'imini kamaytirish, energiya-ishlab chiqarish sikllarini barpo qilish va texnologik jarayonlarni takomillashtirish zarur.

Energiya-ishlab chiqarish sikllari konstruksiyalari asosida tabiatdan foydalanishni mintaqaviy tashkil qilish nafaqat xom ashyo va yoqilg'i qazib olishdan pirovard mahsulotgacha butun ishlab chiqarish oqimini balanslashtirish, balki butun tabiiy-resurs potensialidan kompleks foydalanish hamda ishlab chiqarishning barcha chiqindilari va qoldiqlarini utilizatsiya qilish imkoniyatini beradi. Energiya ishlab chiqarish sikllarini makon-vaqt qo'shilmasi lokal va mintaqa ishlab chiqarish komplekslarini moddiy-tuzilmaviy asosi bo'ladi. Komplekslarni rivojlantirishning nazariya va amaliyotiga loqaydlik bilan munosabatda bo'lishni hech narsa bilan oqlab bo'lmaydi va bu salbiy oqibatlariga



ega bo'lishi mumkin. Xorij tajribasi ko'rsatishicha mintaqaviy iqtisodiyotni kompleks rivojlantirish nafaqat iqtisodiy, balki ekologik samara ham olib keladi.

Hududlarni ekologik vaziyatlar murakkablashganlik darajasi bo'yicha toifalash odamlar hayoti tabiiy muhitini yaxshilash, tabiiy landshaftlarni sog'lomlashtirish, inqirozli vaziyatlar va ekologik halokatni oldini olish bo'yicha aniq profilaktik choralar ko'rish va amalga oshirishda foydalanishi mumkin. Ekologik muhit holati ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish va rivojlantirish va aholi hayot havfsizligini ta'minlash, tabiiy landshaftlarga antropogen va texnogen ta'sir oqibatlarini prognozini ishlab chiqish va amalga oshirish omillardan biri bo'lib qolmoqda.

Mintaqaviy ekologik siyosat ta'sirchanligi tabiatdan foydalanish va tabiatni muhofaza qilishning sotsial-iqtisodiy mexanizmini har bir mintaqada yangi me'yorlar va limitlarni hisobga olib takomillashtirish yo'li bilan amalga oshirilishi mumkin. Tabiiy muhitda ifloslantiruvchi moddalarni chegarali yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan to'planuvi koeffitsientini qat'iylashtirish ekologik buzilishlar uchun jarima sanksiyalari bilan kuzatilishi lozim. Shu bilan bir vaqtning o'zida hududni ekologik sog'lomlashtirganlik uchun, korxonalarda resursni tejaydigan va kam chiqimli texnologiyalar joriy qilganlik uchun ekologik infratuzilma ob'ektlari va b. barpo qilganlik uchun rag'batlantirish choralari doirasini kengaytirish lozim. Bu choralar orasida subsidiyalar, kreditlar (imtiyozli, uzoq muddatli va past foizli) soliqlarni pasaytirish sh.u. ko'proq uchraydi. Ekologik siyosatni ta'sirchanligini oshirishning muhim rezervi UR sub'ektlari va mahalliy hokimiyat organlarining barcha darajadagi byudjetdan investitsiya ta'minotini ekologik fondlar bilan muvofiqlashtirish orqali moliyalashtirishning boshqa manbaalarini tabiatni muhofaza qilish tadbirlarini amalga oshirishga jalb qilish.

Mintaqaviy ekologik siyosatning ustuvor yo'nalishlari orasida hududni ekologik jihatdan infratuzilmasini barpo qilish bo'yicha kompleks tadbirlar ajralib turadi. Bunda alohida e'tiborni nafaqat utilizatsiya qiladigan, tozalash, ushlab qoladigan inshootlar, balki alohida qo'riqlanadigan hududlar (qo'riqxona, buyurtmaxona, milliy bog'lar va b.) qaratilishi kerak. Ular antropogen ta'sirdan

asrab, geobiosenozni flora va faunani muhofaza qilib, takror ishlab chiqarishni urbanizatsiyalashgan hududlarini muvozanatga solib turadi. Infratuzilma tarkibiga ekologik yo'nalishdagi ta'limni va aholi tarbiyasini yuqori darajasini ta'minlaydigan o'quv muassasalari tizimi kirishi kerak.

Texnogen bosim yuqori bo'lgan hududlarda aholini tibbiy-ekologik rehabilitatsiya qilish bo'yicha tadbirlar kompleksini ko'zda tutish kerak. Chiqarilmalarda mujassamlashgan ksenobiotiklar inson organizmiga (ayniqsa, bolalar organizmiga) bevosita ta'sir ko'rsatadi, nafas olish organlari, asab tizimi va sezgi organlariga, oshqozon-ichak tizimi va terida kasalliklar keltirib chiqaradi. Shuning uchun mintaqaviy ekologik siyosat tuzilmasida profilaktik va davolash, sifatgoh va boshqa xordiq chiqarish muassasalarda rehabilitatsiyani ko'zda tutish kerak.

Odamlarni ekologik havfsizligini ta'minlash bo'yicha tadbirlar tizimini alohida e'tiborda tutish kerak. U texnogen, tabiiy, sotsial-iqtisodiy havfsizlikni o'z ichiga oladi.

Mintaqaviy siyosatni samaradorligi ushbu masalalarni tizimli olib borishga ko'p darajada bog'liq. Shunga ko'ra quyida mintaqa iqtisodiyotini rivojlantirish masalalari uni ekologik jihatlari bilan birga ko'rib, ekologik-iqtisodiy tizim sifatida tavsiflanadi.

## **1.2. Mintaqa ekologik-iqtisodiy tizim sifatida**

Iqtisodiy munosabatlarda mintaqaviy tizim eng kamida uch zarurat tufayli namoyon bo'lishi mumkin. Birinchidan, u turli ishlab chiqarish, moliyaviy va boshqa tuzilma, masalan, keng ko'lamda mintaqaviy tarmoqqa ega bo'lgan yirik tijorat banki xizmat ko'rsatadigan zonani boshqarish hamda xo'jalik faoliyatining davlatni tartibga solish ob'ekti bo'lib xizmat qiladi. Ikkinchidan, mintaqaviy tizim yirikroq milliy iqtisodiyot tizimining tarkibiy qismi sifatida bo'lgan kichik tizim bo'la turib, mintaqaviy rivojlanish dasturini buyurtmachisi sifatida xo'jalik yuritish subekti sifatida namoyon bo'lishi. Va nihoyat, mintaqaviy tizim uni hududida harakat qiluvchi boshqa xo'jalik yuritish sub'ektlari uchun tashqi muhitdir.

A.G.Granberg ta'kidlashicha, "Hozirgi nazariyalarda ko'p funksiyali va ko'p jihatli tizim sifatida tadqiq qilinadi". Mintaqaviy iqtisodiyotda tizim sifatida mintaqani o'rganishda to'rt tadqiqot paradigmasi eng ko'p tarqalgan:

1. Mintaqa davlatni va milliy iqtisodiyotni nisbatan alohidalashgan kichik tizimini o'zida ifoda qilgan davlat sifatida;
2. Mintaqa kvazi proporsiya sifatida mulkni va iqtisodiy faoliyatni yirik sub'ekti sifatida;
3. Mintaqa bozor yoki bozor areali sifatida;
4. Mintaqa sotsial narsa sifatida - ma'lum bir hududda istiqomat qiluvchi odamlar birligi.

Mintaqaviy tizimni o'zi yahlit tuzilma sifatida bir necha asosiy o'zaro bog'liq kichik tizimga bo'linishi mumkin: ekologik-geografik (tabiiy sharoitlar va resurslar) ijtimoiy (aholi), ishlab chiqarish (sanoat, qishloq xo'jaligi), moliyaviy, shuningdek siyosiy kichik tizimni ham ajratish mumkin (hokimiyat organlari, siyosiy birlashmalar va sh.u.).

Bunday yondashuv "o'rganilayotgan ob'ektni qismlarga ajratishni funktsional tipidir". Bunday qilishga asos bo'lib mintaqaviy tizimda tuzilmani har bir tashkil qiluvchisi bajarayotgan funksiyalar xizmat qiladi. Bunda tashkil qiluvchilarni qism emas, balki mintaqaviy tizimning kichik bir tizimi deb atashga imkon beradi. Bunday holatda eng asosiy narsa har bir kichik tizim bajarayotgan asosiy to'plamni aniqlash bo'ladi. Masalan, ekologik-geografik kichik tizim mamlakat hududini resurslar bilan ta'minlanganligi va ularni rang-barangligi bo'yicha ob'ektiv tabaqalashtirishni belgilaydi. U muhim tasniflardan biri sifatida o'z ichiga mintaqa hududida sanoat korxonalarini va boshqa xo'jalik yurituvchi sub'ektlarni tabiiy muhitga ta'siri natijasida shakllanayotgan ekologik holatni oladi.

Ushbu hududda istiqomat qiluvchi aholi, uni miqdoriy tasnifi, joylashtirish xarakteri, turmush sifati va darajasi, ijtimoiy kichik tizimni eng asosiy tashkil qiluvchilari bo'lib, uni funksiyalaridan biri mintaqa siyosati yoki hududiy rivojlanishni davlat tomonidan tartibga solishni boshqa shakllaridan birining

ob'ekti sifatida namoyon bo'lish qobiliyati bilan ta'minlashdir. Sobiq sho'rolar davrida mintaqani tizimli o'rganish bo'yicha ishlarda "Mintaqalarni boshqarish va maqsadni belgilashda ijtimoiy samaradorlik va mas'uliyat tamoyillariga asoslanish" zarurligi aytib o'tilgan bo'lishligiga qaramasdan bunday yondashuv amaliyotda kamdan-kam qo'llanilgan. Buning o'rniga mintaqalar rivojlanish konsepsiyasi tuzishda ko'p hollarda maksimal e'tibor ishlab chiqarish kichik tizimiga berilgan. Yu.G.Lipets ta'kidlaganidek "Mintaqaviy tizimni tahlil qilishda diqqat-e'tibor markazi geografik-ekologik yoki texnik-iqtisodiy yo'nalishdan ijtimoiy yo'nalishga ko'chirilganda mintaviy rivojlanishning butun jarayoni, eng avvalo, aholini har taraflama o'rganish, uni intilishlari va ehtiyojiga, qaysi ne'matlarga yo'naltirilganligiga qarab ko'rib chiqiladi".

Aloqalarni qaysi turi ishlab chiqarish yoki aholi mintaqaviy tizimlarni ajralib turishida hamda tizimni tashkil qilishda yetakchi rol o'ynayotganliklari masalasi murakkabroq va baxsli bo'lib qoladi. Bizning fikrimizcha aholi omilini ahamiyati ortiqroqdir. Chunki ijtimoiy kapital roli so'zsiz yuqoridir. Sotsial (ijtimoiy) potensial tushunchasi 1920 yillarda AQSh da tug'ilgan "Inson kapitali" insonni iqtisodiy qiymatga ega bo'lgan va insonlar munosabatida aks etadigan bilimlari, ko'nikmasi, qobiliyati va manfaatdorligi tasavvuridan kelib chiqdi. Sotsial potensial deganda to'liq ma'noda ma'lum xususiyatlarga, madaniy maqsadlarga va qadriyatlarga, bilimlarga, ko'nikmaga ega bo'lgan xalqning o'zi tushuniladi.

Ishlab chiqarish kichik tizimi turli tarmoq, korxonalari yig'indisi va ular o'rtasida aloqalarni o'zida ifoda qiladi. Uni asosiy funksiyasi mintaqaviy tizimni iqtisodiy potensialini shakllantirish va orttirishdir. Mintaqa uchun tizimni tashkil qiluvchi muhim rolni ishlab chiqarish va aholi ehtiyojiga xizmat qiladigan moliyaviy kichik tizim ham o'ynaydi.

Ushbu kichik tizimlarning har birini amal qilishi mintaqaviy tizimni bir butun, yahlit sifatida mavjud bo'lishiga imkon yaratadi. (1.2.1-jadval)

1.2.1-jadval<sup>9</sup>

### Mintaqa sotsial-ekologik-iqtisodiy tizimi o'zaro harakati

	<b>Tabiat</b>	<b>Iqtisodiyot</b>	<b>Sotsial</b>
Tabiat	O'z-o'zini tiklash	Tabiiy resurslarni taqdim qilish	Yashash mukihl sifat
Iqtisodiyot	Atrof-muhitga ifloslantiruvchi moddalarni tashlash	Oraliq mahsulotni takror ishlab chiqarish	Pirovard mahsulot ishlab chiqarish
Sotsial	Xayot va faoliyat chiqindilari	Mahsulot resurslarini taqdim qilish	Sotsial rivojlanish

"Sotsial-iqtisodiyot-ekologiya" uchligi ko'pchilik olimlar ishida ko'riladi. Masalan, N.E.Kulbak asarlarida sotsial-ekologik-iqtisodiy tizim o'zaro harakati tuzilmasi uch blokda - tabiat, iqtisodiyot, jamiyat yo'nalishida ko'rib, u quyidagi matritsada mujassamlashgan. Bloklar o'zaro harakatini mintaqaviy darajada aks ettirish maqsadga muvofiqdir.

Mintaqaviy tizimning turli sifatga ega bo'lgan o'zaro munosabati, uni chegarasida rang-barang tabiiy va sotsial jarayonlarni bir vaqtning o'zida kyechishi uni muhim fanlararo tizimli yondashuv ob'ektiga aylantiradi. Global-ekologik, iqtisodiy va sotsial kichik tizimlarni yagona o'zaro bog'langan yahlit narsaga birlashtirishni anglatadigan "Noosistema" tushunchasini keng tarqalishi bejiz emas.

Ijtimoiy rivojlanishning hozirgi zamon tabiat sig'imi katta va tabiatni qo'poradigan "Zaif barqarorlik" modeli na iqtisodiyotda, na tabiat kichik tizimida, na sotsial sohada barqarorlikni ta'minlaydi. Mintaqaviy tizim o'zaro mos almashuvga asoslangan uyg'unlikka ega bo'lgan muvozanat holatida bo'lishi kerak, ya'ni sotsial, iqtisodiy va ekologik kichik tizimda hozirgi davrda mutlaq mos kelmaydigan manfaatlar umumiyliigi mavjud bo'lishi kerak. Ekologik kichik

<sup>9</sup> Manba: Рузметов Б. Региональная экономика: опыт, проблемы, эффективность комплексного развития. Т.: Фан, 2002.

tizim maqsadi - ekologik muvozanatni ta'minlash bo'lib, bunda uni asosiy unsurlarini takror ishlab chiqarish ta'minlanishi mumkin. Sotsial va iqtisodiy kichik tizim manfaatlari iqtisodiy o'sishni ta'minlash, tobora o'sib borayotgan ehtiyojlarni qondirish va odamlar hayoti sifatini yaxshilashda mujassamlashgan. Ekologik kichik tizim mos bo'lmagan almashuv holatida bo'lib u ikki yoqlama xarakteriga ega. Iqtisodiy va ijtimoiy kichik tizimlar, odamlar xo'jalik faoliyatini texnogen ta'siri tabiatni resurs va assimilyatsion potensialini ancha toliqtirmoqda. O'z navbatida ekologik kichik tizim mintaqaviy tizimni boshqa ikki unsurlariga "qaytim" bermoqda. Sotsial va iqtisodiy kichik tizimlar mos ravishdagi almashuv holatidadir, chunki umumiy farovonlik yaxshilanib bormoqda, iqtisodiy kichik tizim sotsialdan mehnat resurslari olmoqda. Lekin, iqtisodiy o'sish ijtimoiy rivojlanish sur'atlari, ekologik kichik tizimni qo'llab-quvvatlashi kerak. Aks holda tabiiy kichik tizim iqtisodiy rivojlanish va odamlar hayoti sifatini cheklab qo'yadi, bu esa, o'z navbatida, mintaqaviy tizimni qo'porilishiga olib keladi. Shuningdek ta'kidlash joizki, uch unsur roli bir hil ma'noga ega emas:

Ekologik kichik tizim - azaldan tabiiy jarayonlarga bo'ysundirilgan;

Sotsial kichik tizim - birlamchi, chunki sotsial iste'mol mahsulotlariga ham, ehtiyojlarini qaysi yo'llar bilan qondirishga ham o'z talabini qo'yadi;

Iqtisodiy kichik tizim sotsial bilan ekologik kichik tizim o'rtasida muvozanatlashtiruvchidir.

Mintaqaviy sotsial-ekologik-iqtisodiy tizim muvozanatini ta'minlashda asosiy sub'ekt sifatida davlat roli kattadir. Chunki, atrof-muhitni tiklash bo'yicha amalga oshirilgan tadbirlar, birinchidan, tez orada natija bermaydi, ikkinchidan esa tabiiy resurslarning ko'pchiligi, tabiiy sharoitlarni barchasi esa umumiy foydalanishda bo'lgan ijtimoiy resurslardir. Shularga ko'ra atrof-muhitni tiklash uchun retsipientlar to'lovni amalga oshirishga tayyor emaslar va bunga ularni hoxishi ham yo'q. Shunga ko'ra biz muammoni hal qilishni faqat davlat aralashuvi orqali hal bo'lishida ko'ramiz: "Ekologik soliqlar" atrof-muhitni ifloslantirganlik uchun turli hil to'lovlar va jarimalar, tabiatni muhofaza qilish standartlari va

me'yorlarini qabul qilish, mintaqaviy yoki tarmoq ekologik dasturlarini amalga oshirish va sh.u.

Jamiyat va tabiat o'zaro harakati turli darajalarda tabiat-xo'jalik (ekologik-iqtisodiy) tizim yordamida formallashtiriladi, bu yerda xo'jalik tizimi tabiiy muhitga ta'sir ko'rsatadi, tabiiy muhit, o'z navbatida jamiyatga ta'sir ko'rsatadi. Bunda tabiatga ta'sir ham tabiat, ham jamiyat uchun oqibatlar nuqtai-nazaridan muhimdir va shu ma'noda tabiiy-xo'jalik tizimi ierarxiyasi to'g'risida gapirish mumkin. Mintaqaviy tabiat-sotsial tizimlarni barqaror rivojlanish imkoniyatlariga anchagina ta'sir o'tkazadigan omillar orasida atrof-muhit sifati, resurs potentsiali, ekologik va siyosiy aloqalarni jipsiyligi, innovatsiya uchun imkoniyatlar mavjudligi, huquq maydonini mavjudligi hamda mintaqani tarixiy va madaniy xususiyatlarini ajratish mumkin.

Ayrim mualliflar ekologik kichik tizimni turli miqdorini (20 tagacha) keltirmoqda. Ular (bilvosita pulda ifodalangan bahodan foydalanish orqali) ijtimoiy rivojlanish uchun taqdim qilingan ekotizimli xizmat sifatida ko'rilmoqda.

Ekologik kichik tizim funksiyalarini ta'minlashning muhimligini tan olish keng ma'nodagi sotsial-iqtisodiy yo'naltirilgan (nafaqat ekotizimdan foydalanishni iqtisodiy mahsuloti bilan taqqoslashda) ekotizimli yondashuvni asosidir.

Mintaqaviy tizim o'z unsurlari bo'yicha murakkab, o'zaro bog'liq va barcha tizimli tamoyillarni qoniqtira turib o'z-o'zini rivojlantiradigan narsadir. Yagonalik tamoyili (xolizm) mintaqa xususiyatlarini uni ayrim unsurlari xususiyatlari yig'indisiga tenglashtirilib bo'lmasligida mujassamlashgan - hududiy xosilalar, korxonalar va tashkilot, mintaqa aholisi va sh.u. Bunda mintaqaviy tizim yahlitligi uni alohida qismlariga xos bo'lmagan yangi sifat va xususiyatlar bilan xarakterlanadi, ular mintaqaviy aloqalar ichida o'zaro harakat natijasida kelib chiqadi.

Mintaqaviy tizim va muhitni o'zaro bog'liqligi va u bilan bog'liq bo'lgan tizimli tamoyil mamlakat va xorij mamlakatlarning boshqa mintaqaviy tizimlari bilan bog'liqliklarida ko'rinadi. Mintaqani ko'pdan-ko'p ta'rifi "Mamlakat" ichki tizimida murakkab avtonom, o'z-o'zini rivojlantirish tizimi sifatida taqdim qilish

imkoniyatlari to'g'risida guvohlik beradi. Mintaqaviy tizimni tuzilmaliligi, uni tuzilmasini belgilash orqali ta'riflash imkoniyatida mujassamlashgan, ya'ni tizim ichida munosabatlar va aloqalar tarmog'ida.

Mintaqaviy tizimning ko'p tuzilmaliligi unda bir nechta nisbatan alohida avtonom ichki tuzilma ajratish mumkinligida ko'rinadi: sotsial, tarmoq, hududiy va b. Hududiy makon tuzilmasi tushunchasida, bir tomondan, hududiy nisbatlar (proportsiyalar), statistika tushunchasida makon tuzilmasi (mamlakat ob'ektlarini mahalliy xosilalarga bo'linishi), boshqa tomondan esa, mintaqa "markazi" va "chekka hududlari" (odatda ma'muriy markaz va uni o'rab turgan hududlar).

Ma'muriy-hududiy tuzilmalarni iqtisodiy mustaqilligini kuchaytirish mamlakatda demokratik jarayon bilan taqazo qilingan bo'lib, davlatning mintaqaviy siyosati yo'nalishidir. Bularning barchasi uzoq yillar ilmiy yo'nalish sifatida mavjud bo'lib amaliyot uchun mamlakat sub'ektlarini boshqarishning mintaqaviy organlarini yangi vazifalari va funksiyalariga mos keladigan yangilik tariqasida foydalanishni taqazo qiladi.

Bunday yondashuvning o'zagi bo'lib mintaqaviy iqtisodiyotni o'rganishga tizimli asos bo'ladigan mintaqaviy rivojlanish tadqiqotiga tizimli yondashuvni aniqlashtiruvchi takror ishlab chiqarishdir.

Mintaqani iqtisodiy rivojini tadqiq qilishga tizimli yondashuv eng asosiy yondashuv bo'lib, metodologik baza bo'lib xizmat qilishi kerak.

Mintaqaviy tizimga takror ishlab chiqarish yondashuvi uni o'zaro bog'langan takror ishlab chiqarish jarayonlari yig'indisi sifatida tasavvur qilish imkonini beradi, uni bir qismi esa mamlakatlar sub'ekta darajasigacha borib o'zini yakunlanganlik holatiga yetib, boshqarish tizimiga mazmun jihatidan asosni o'zida ifoda qiladi.

Ekologik-iqtisodiy nisbatlar mintaqaviy takror ishlab chiqarish jarayonini iqtisodiy rivojlanish va tabiiy-ekologik sharoitlarini o'zaro aloqalarini ifoda qiladi.

Hozirgi davrda mintaqaviy rivojlanishning barcha masalalariga javob beradigan tugallangan tizim, model mavjud emas. Bugun tugallangan ko'rinishda bunday majmuani hattoki, prognozlashtirish qiyin, chunki sotsial-iqtisodiy,



ijtimoiy-siyosiy rivojlanish amalga oshib borgan sari rivojlanish maqsadlari, iqtisodiy va sotsial ustivorligi, hududiy ierarxiyani turli darajalarida boshqarish faoliyatlari o'zgarmoqda, jamiyatni ijtimoiy-siyosiy transformatsiyasi ro'y bermoqda, boshqarishni xo'jalik mexanizmi o'zgarmoqda, boshqarish usullari doirasiga tobora ko'proq iqtisodiy vositalar joriy qilinmoqda.

Tadqiqotni tanlangan usuli bir necha sabablarga ko'ra sotsial-tarixiy deb atalishi ham mumkin. I.Vaglerskiy fikricha jamiyat evolyutsiyasi tarixiy tizimlarni paydo bo'lishi va sunishi sifatida talqin qilinishi mumkin. Jamiyatda sotsial harakatlar nafaqat kelib chiqadi, balki "ishlab chiqariladi" va transformatsiya bo'ladi. Bu harakatlar ma'lum bir sharoitlarda uni institutsional va siyosiy tuzilmasini o'zgartiradi va uni tarixiy shakllangan ma'muriy-huquqiy, boshqacha qilib aytganda, hukmron bo'lgan sotsial paradigmasi deb ataluvchi o'zagiga ta'sir qilishi mumkin.

Nihoyat, jamoatchilik harakati, xususan ekologik, ular tomonidan barpo qilingan transmilliy moliyaviy, axborot va boshqa resurs tarmoqlari orqali siyosiy jarayonlarni borishiga ta'sir qilishi mumkin. Metodologik jihatdan ahamiyatlisi shuki, balki bizni qiziqtirayotgan sotsial aktor, ushbu holatda ekologik harakatga nisbatan faqat "muhit" bo'lgan boshqa sotsial agentlar (aktorlar) va ularni aloqalari yig'indisi sifatida talqin qilinishi mumkin.

Ushbu holatni o'zi bu yerda makon va zamonda o'zini barqaror takror ishlab chiqarishga qodir bo'lgan maxsus (tarmoqlar) sotsial organizmi sifatida ko'riladi. Tarmoq sotsial sub'ekt - bu makondagi dispersli jamoaviy aktor, uni unsurlari umumiy ne'matlar va maqsadlar, kommunikatsion va boshqa resurs tarmoqlari orqali integratsiyaga kirishib, takror ishlab chiqariladi.

Nihoyat, yondashuvni tarixiyligi shundaki, harakatni hosil bo'lish usuli hamda uning rivojini eng yangi tarixida o'zaro munosabatlarni o'zgarib turishi xarakteriga ega bo'lgan unsur deb talqin qilinishi mumkin. Ular O.N.Yanitskiy fikriga ko'ra, to'rtta bo'lgan: byurokratik sotsializm (1980 yillarning birinchi yarmi); liberallashtirilgan byurokratik sotsializm (1985-1988 yillar); demokratik "to'lqin" davri (1989-1991 yillar); davlat byurokratik kapitalizm jamiyati qurilishi

davri (1992 yildan boshlab). Ularni farqlash mezonini bo'lib hukmron bo'lgan ideologiya transformatsiyasi va siyosiy tuzum yadrosini qo'porilishi, mulk shaklini o'zgarishi, davlat va fuqarolik jamiyati evolyutsiyasi va siyosiy sahnada asosiy sotsial kuchlar joylashuvida, shu jumladan ekologik muammolarga nisbatan ham, o'zgarishlar xizmat qildi.

Hozirgi zamon jamiyati uchun o'zining rivojlanish sur'atlari va xarakterini biosfera imkoniyatlari bilan muvofiqlashtirish zarurati tobora aniqroq namoyon bo'lmoqda. Chunki jamiyat tabiatga bir butun yahlit qism bo'lib qo'shilgan. O'z-o'zidan ravshanki, ijtimoiy ishlab chiqarishni rivojlanishning cheksiz imkoniyatlari bilan biosferani cheklangan kompensatsiya qilish imkoniyatlari o'rtasidagi qarama-qarshilik "jamiyat-tabiat" sifatida bo'lgan tizimni rivojlanishi uchun asosiy to'siq rolini o'ynamoqda. Jamiyatni keyinchalik rivojlanish taqdiri ushbu qarama-qarshilikni optimal bartaraf qilishning yo'l-yo'riq va vositalarini qay darajada topishga bog'liq bo'lib qoldi.

Yuqorida ta'kidlanganlarga ko'ra, tabiiy muhitning jamiyatni rivojlantirish sur'atlari va xarakteriga optimal muvofiqligi qonuni to'g'risidagi haqida gapirish o'rinlidir.

Aytish kerakki, bu tabiat bilan jamiyat o'zaro harakatini hozir paydo bo'lgan yangi qonunidir. U avval ham amal qilgan, lekin yashirin tarzda, chunki odamlarni tabiatga ta'siri asosan lokal xarakterga ega bo'lgan va aniq ifodalangan global ko'lamga yetmagan. Agar u yoki bu joyda inson aybi bilan tabiiy muvozanat buzilishi yuz bergan bo'lsa, u holda yahlit tabiat o'z-o'zini tartibga solish omillarining rivojlangan vositalariga ega bo'lgan tizim sifatida tabiiy muhit, biosfera unsurlari evolyutsiyasining million yillar ichida shakllangan o'z-o'zini tiklash qobiliyatini saqlab qolgan. Keyingi vaqtda vaziyat keskin o'zgardi. Tabiiy resurslarni tobora ko'proq yangi turlarini iste'mol qilish va ishlab chiqarish chiqindilarini qudratli oqimi tabiiy majmualarining o'z-o'zini tiklash qobiliyatiga putur etkazdi. Albatta, agar ishlab chiqarish faoliyatini to'xtatilsa, qandaydir bir optimal darajada uni barqarorlashtirilsa, u holda vaqti kelib buzilgan muvozanat tiklanishi mumkin. Biroq bu industrial rivojlanish odimlariga barham berishni

anglatgan bo'lar edi. Hozirgi zamon jamiyati buni qila olmaydi. Kezi kelganda aytish joizki, ushbu vaziyat tabiiy muhit va jamiyat optimal muvofiqligi qonuni talablariga rioya qilishni anglatgan bo'lar edi, biroq bu unga salbiy rioya qilishdir.

Yuqorida keltirilgan qonunga ijobiy variantda rioya qilishni boshqa yo'li mavjud. Tabiatni tiklash qobiliyatini ta'minlash funksiyasini bir qismini jamiyat o'z zimmasiga olishi kerak. Bu murakkabroq va qimmatga tushadigan yo'l, lekin faqat shu yo'l yuzaga kelgan vaziyatda jamiyatni keyinchalik taraqqiyoti uchun imkoniyat yaratadi. Ham nazariyada, ham amaliyotda ko'pchilik qaror topgan tasavvur va an'analardan voz kyechish kerak va tabiatdan foydalanish asosi tabiat va jamiyat munosabatlarida yangi nisbatlarni aks ettiradigan tamoyillari bo'lishi kerak.

Ushbu tamoyillarni metodologik asosi bo'lib o'z-o'zidan ko'rinib turgan holat, ya'ni jamiyat tuzilmaviy jihatdan sotsial-ekologik tizimning bir qismidir va shunday ekan, tabiat bilan o'zaro harakatda bo'ladi va butunni (yahlitni) qism bilan o'zaro harakatiga xos bo'lgan barcha qonuniyatlar amal qiladi, ya'ni umumlashtirib aytilsa, muvofiqlashtirish, suboordinatsiya, korrelyatsiya (o'zaro bog'liqlik tartibi, qismlarni o'zaro aloqalar xarakteri va qismlarni o'zlarini o'zgarish xarakteri) qonuniyatlari. Agar tabiatni modda-energetik jarayonlari dinamikasida o'z o'rnini bo'yicha jamiyat ba'zi-bir davrdan boshlab tizim qismi bo'lgan bo'lsa, butun bilan o'zaro aloqalari xarakteri bo'yicha xech qanaqasiga qism deb atalishi mumkin emas, shunday bo'lishi kerak. Qismni anglatadigan bosh belgi yo'q - jamiyat bilan tabiat o'rtasida muvofiqlashtirilganlik va modda-energetik jarayonlarni ekvivalentligi yo'q, shunday ekan, teskari aloqalar yo'llari ham yo'q, busiz o'z-o'zini tartibga solish va tizimni yahlitligini saqlash ham yo'q. "Jamiyat-tabiat" tizimi hozircha shakllanish bosqichida turibdi va biz bu tushunchadan me'yoriy narsa sifatida foydalanyapmiz. Shunday ekan, jamiyat va tabiatni o'zaro holati nazariyasining birinchi va asosiy tamoyili jamiyat va tabiatni optimal muvofiqligi tamoyili bo'lishi kerak. U tizimli yondashuv talablaridan shubhasiz oqib chiqadi. O'zaro holat haqiqatda o'zaro bo'lishi kerak, ishlab chiqarish jarayonida modda va energiya almashuvi haqiqatda ekvivalent, tabiat

jarayonlariga o'xshash bo'lishi kerak. Xozircha bu narsa yo'q, jamiyatni tabiatga ta'siri to'g'risida gapirish mumkin xolos. Bunda o'zaro harakatni ba'zi-bir unsurlari mavjud xolos.

Nazariya va amaliyotda jamiyatni tabiat bilan o'zaro harakatining yangi xarakterini ta'minlash uchun bir qator odatiy tushunchalar, baholash mezonlari va eng avvalo, insoniyat faoliyatini tabiiy jarayonlarda o'rni va rolga sifat jihatidan boshqacha qarash kerak. Jamiyat tabiatni moddiy-energetika jarayonlari dinamikasida ma'lum bir rolni bajarishi kerak va bu rol, eng avvalo, biosferani yahlitligini asrab qolishda mujassamlanishi kerak. Kishilik jamiyatini erdagi funksiyasi butun jonli moddalar funksiyasi qatori aynan shundadir. Faqat ushbu funksiyani jamiyat uchun bajarish usuli sifat jihatidan boshqachadir, chunki mehnat jarayonlari asosida jamiyatni rivojlanish usullarini o'zi sifat jihatidan boshqachadir. Biosfera yahlitligini ta'minlash funksiyasini odamlar faqat sun'iy, tabiiy jarayonlarni bilish va foydalanish asosida bajarishlari mumkin, biroq hozirgi zamon jamiyati imkoniyatlarini hisobga olib ta'kidlash kerakki, biosferani yahlitligini ushlab turishda umumiy maqsadni belgilaydigan narsa bu uni tabiiy muvozanati bo'lishi kerak. Bu holat ikkinchi metodologik tamoyil sifatida ko'rilishi mumkin. Bunday yo'naltirilganlik kelajakda muvozanatni sun'iy parametrlariga o'tish imkoniyatini mustasno qilmaydi.

Biosferani yahlitligi insoniyat uchun muhim tabiiy resurslar sifatida ko'rilishi mumkin, yahlitlikni ushlab turish vazifasi esa tabiatdan foydalanish tizimida markaziy vazifa sifatida bo'lishi kerak. Shu munosabat bilan tabiatni muhofaza qilish vazifasiga iste'molchilik kayfiyatida yondashuvni tanqid qilish o'rinlidir. Chunki unda resurslardan foydalanish muammosi biosferani yahlitligini asrash uchun tabiiy unsurlar ahamiyatini hisobga olmasdan ko'riladi.

Me'yor o'z ahamiyatiga ko'ra shunday bo'lishi kerakki, biosferada o'zaro aloqada sinenergiya qonunini nazarda tutgan holda hisoblanishi va rioya qilinishi kerak, aks holda asosiy resurslarni tugallanishiga ancha qolganda muvozanatni ushlab turish va biosfera unsurlarini takror ishlab chiqarish mexanizmi shunday buzilishi mumkinki, unda odamlarni keyinchalik mavjud bo'lishi ancha

murakkablashadi. Ko'p parametrlar bo'yicha inson biosfera imkoniyatlarining chegarasi yoqasiga yaqin keldi.

Tabiatdan olinayotgan narsalarni mos holda o'rnini qoplash tamoyilini muhim uchinchi metodologik tamoyili sifatida ko'rilishi mumkin. Bu narsani atroflicha asoslash talab qilinmaydi. Chunki bu narsa o'z-o'zidan ko'rinib turibdi. To'rtinchi metodologik tamoyil insoniyat faoliyatini ekologik tozaligi tamoyili bo'lib, u ishlab chiqarishni va maishiy iste'molni yo'ldosh mahsulotlari to'liq utillashtirishni ko'zda tutadi.

Odatda, mehnat mohiyati yaratuvchilik faoliyati bilan bog'lanadi. Lekin, muhit almashuvini ekvivalentligi uchun nafaqat mahsulotni yaratishni ta'kidlash, balki qarama-qarshi jarayon ham kerak - barcha yaratilgan narsalarni destruksiya qilish, ya'ni keyinchalik utillashtirish yoki neytral holatga keltirish. Faqat shundagina ishlab chiqarish jarayonlarini tabiiy jarayonlar bilan o'zaro uyg'unlikda qo'shilishi ta'minlanadi, ya'ni qarama-qarshi yo'naltirilgan yaratuvchanlik va buzg'unchilik sifat jihatidan turli omillar o'zaro harakati asosida moddalarni, jarayonlarni to'liq birligi amalga oshirilishi mumkin.

Shu jihatdan inson faoliyatini barcha turlarini bir-biriga va tabiiy muhitga nisbatan sifat jihatidan boshqa o'zaro aloqalari zarurligi kelib chiqadi. Qabul qilinayotgan qarorlarni namunaviyligi va ekologik asoslanganligi beshinchi metodologik tamoyil sifatida namoyon bo'ladi va uni yo'nalishlaridan biri sifatida uzoq muddatli yechimlarni qisqa muddatlaridan ustun turishi zarurligini aytish mumkin. Hozirgi sharoitda kelajakni bashorat qilishni o'zi yetarli emas. Uni tarixiy natijani maksimal darajada oldindan belgilangan maqsad bilan mos kelishini tasavvurda ko'rish kerak. Aniq-ravshanki rivojlanishni bunday tipi tartibga solishni stixiyali mexanizmi amal qilgan jamiyatda tamomila mumkin emas. Ijtimoiy manfaatni xususiy manfaat ustidan ustivorligini ta'minlash tamoyili jamiyat va tabiat o'zaro harakati nazariyasini oltinchi metodologik tamoyili sifatida ko'rilishi mumkin. Faqat shu asosda haqiqiy sotsial taraqqiyot va sog'lom hamda garmonik tabiiy muhit taqazo qilgan asosiy mezoni inson sog'ligi bo'lgan hayot sifatini tizimli amalga oshirishni ta'minlash mumkin. Tabiatni qayta ko'rish uchun qudratli

vositalar bilan qurollangan odamlarni muvofiqlashtirilgan harakati zarurligi oldida jahon xalqlarini mehnatkashlar uyushmalariga birlashish uchun zarurat ortib bormoqda. Bu iqtisodiy va madaniy - siyosiy jarayonlarni rivojlanish tendensiyalari bilan mos tushadi. Shunday qilib, tabiatga munosabat muammolari jamiyatni, odamlarni tobora ko'proq tabiat bilan uyg'unlashishi yo'nalishida tubdan qayta ko'rish muammolari bilan qutilib ketadi. Shunday bo'lib chiqdiki, sotsial va tabiiy muammolar yagona tushunchaga bog'lanmoqda, bu esa bir-birini hal qilishini taqazo qilyapti. Boshqacha qilib aytganda, zarurat yuzasidan tabiiy ne'matlarni inson tomonidan bo'ysundirilishi, uni sotsial zaruratni egallash darajasi vositasi yordamida amalga oshiriladi, aynan sotsial jarayonlarni odamlar qay darajada boshqarishga qodirligi. Ongli boshqarish jamiyatiga o'tish zarurligi nafaqat iqtisodiy, balki tabiiy xarakterga ega bo'lgan omillar, ya'ni tabiat va jamiyat munosabatlari taranglashib, turli darajadagi (mintaqaviy va global) muammolarni kelib chiqishiga sabab bo'ldi.

### **1.3. Global ekologik muammolarning mintaqaviy jihatlari**

Eng rivojlangan mintaqalar iqtisodiy potentsiali (Shimoliy Amerika, Yevropa, Avstraliya) o'sishda davom etmoqda. Shuning bilan birga Janubiy Amerika va Afrika iqtisodiy potentsiali yuqori sur'atlar bilan usa boshladi, eng katta o'sish Osiyoda kuzatilmoqda. Hozirgi davrda Osiyo YaIM hajmi bo'yicha Yevropa va Shimoliy Amerikadan deyarli 1,5 barobar yuqori. 70-80 yillarda "yangi industrial mamlakatlar" deb nomlanuvchi Janubiy-Sharqiy Osiyo (4 ta "kichik drakon"-Janubiy Koreya, Tayvan, Gonkong, Singapur), hamda Lotin Amerikasi mamlakatlari (Braziliya, Argentina, Meksika) sezilarli ajralib qoldi. Iqtisodiy rivojlanishda yuqori darajaga ega bo'lgan mamlakatlarda XX asr oxirida yer shari aholisining choragidan ko'prog'i istiqomat qilgan. Bu aholi zichligini yuqoriligini, urbanizatsiya darajasini balandligini, rivojlangan sanoat va transport potentsialini taqozo qildi. Bu mamlakatlarda industriyalizatsiya yakunlandi, yaxshi va samarali bozor iqtisodiyoti barpo qilindi. Sanoat jihatidan rivojlangan

mamlakatlar iqtisodiyoti yetakchiligida jahon iqtisodiyoti tizimini shakllantiruvchi yadroni o'zida ifoda qilib, unda ilg'or texnologik, tashkiliy boshqarish, ijtimoiy va iqtisodiy standartlar barpo qilindi va ular asosida jahon xo'jalik tartiboti shakllanmoqda. Bu mamlakatlar jahon resurslarini - yoqilg'i, foydali qazilmalar, yog'och, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini asosiy iste'molchilaridir, ular xissasiga atrof-muhitga texnosfera va xarakteriga ega bo'lgan texnogen bosimni asosiy hajmi to'g'ri keladi. Ushbu davlatlarni ekologik rivojlanishining bosqichlarini soddalashtirilgan ko'rinishda quyidagicha ifoda qilish mumkin:

Birinchi bosqich. Dastlabki kapital jamg'arilgandan keyin moliyaviy resurslarni o'z resurslari va mustamlaka resurslari iste'moliga yuboradi, shuningdek o'zgalar hududini bosib olish bo'yicha ijtimoiy-iqtisodiy mojarolarni kelib chiqishi; bu bosqich ikkinchi jahon urushi bilan tugallandi.

Ikkinchi bosqich. Urushdan keyingi davrda boshlandi qachonki urush iqtisodiyotini vayron qilgan mamlakatlarda iqtisodiy o'sish nafaqat miqdor balki sifat jihatidan o'zgarishlar bilan kuzatilganda yangi texnologiyalar va fan sig'imi katta ishlab chiqarish rivojlanadi. XX asrning oxirgi choragida energiya sig'imi katta va resurs sig'imi katta hamda ekologik havfli ishlab chiqarish rivojlanayotgan mamlakatlarga ko'chiriladi. Shunday ekan, texnogen bosim boshqa hududlarga tarqaladi, xususan antropogen ta'sir chegarasi o'zgaradi.

XX asrning oxirgi choragida iqtisodiy o'sish atrof-muhit uchun barqarorlikni buzuvchi omil sifatida namoyon bo'ldi. Ishlab chiqarishni o'sishi va iste'mol qilinayotgan resurslarni ortishi atmosferada issiqxona gazlarini, ayniqsa, uglerod dioksidi, oltingugurt, azot oksidini to'planuvini ortishiga, ozon qatlamini buzilishiga, suv va tuproqni ifloslanishiga, cho'llashishga, landshaftlarni buzilishiga ko'maklashdi.

Mutaxassislar bahosiga ko'ra qazib olinayotgan va iste'mol qilinayotgan resurslarni faqat 23% i mahsulot ko'rinishida ishlatiladi, qolgan qismi esa atrof-muhitga chiqindi sifatida qaytarilib, hududni ekologik xususiyatlarini o'zgartirishga olib keladi. Shunday ekan, iqtisodiy rivojini yuqori darajasiga ega

bo'lgan mintaqa, birinchi navbatda, global darajada ekologik muammolarni shakllantiruvchi hududlardir.

Global ekologik muammolarni kelib chiqishini hududiy antropogen ta'sir bilan taqozo qilinganligining aniq misoli global isish va iqlimni o'zgarishidir. Dioksid uglerod, azot oksidi, metanni gazsimon chiqarilmalari sanoat jihatidan rivojlangan hududlarda (Yevropa, Shimoliy Amerika, Osiyo) katta miqdorda atmosferaga kelib tushib yerga quyosh radiatsiyasini erkin o'tkazib yuboradigan qatlamni shakllantiradi, biroq yerdan qaytarilgan uzun to'lqinli issiq nurlanishni ushlab qoladi. Issiqlik energiyasi atmosferani yer satxi ustidagi qatlamida to'planib, yer satxida haroratni ortishiga olib keladi. Birinchi marta bu jarayon bilan 1886 yili Nobel mukofoti sovrindori S.A.Arrenius qiziqib qoldi. U faraz qildiki, iqlimni shakllantirishda issiqxona gazlari roli kattadir. Keyinroq, bu yo'nalishda tadqiqotlar Yevropada, AQSh da davom ettirildi. Issiqxona samarasini shakllantirishga ulkan xissani atmosferaga kelib tushayotgan is gazi qo'shadi, u vulkan faoliyati, o'simliklar va hayvonlar nafas olishi, organik parchalanish hisobiga hosil bo'ladi. Biroq, atmosferaga is gazini kelib tushishining asosiy manbasi yoqilg'i yoqish jarayonlaridir. Atmosferaga SO<sub>2</sub> chiqarilmalari hajmi bo'yicha birinchi o'rinda AQSh turadi, Buyuk Britaniya (22%), Rossiya (16%), Xitoy (11%), is gazi chiqarilmalari Janubiy Afrikaning barcha mamlakatlarida AQSh ga qaraganda 8 marta kam. Boshqa issiqxona gazi metandir. Metan chiqarilmalari manbasi neft qazib olish va neftni qayta ishlashdir. Metan atmosferada 1 yilda 1% dan ortmoqda. Shuning uchun atrof-muhitga metanni kelib tushishi hududiy yo'naltirilgan xarakterga ega. Birinchi navbatda iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar, Xitoy, Janubiy-Sharqiy Osiyodir. Atmosferaga boshqa issiqxona gazlarini kelib tushishi ham hududiy xususiyatlarga ega va alohida davlatlar milliy iqtisodiyoti rivojlanishiga bog'liq. Biroq, issiqxona samarasini ifodalanishi va umuman olganda iqlimni o'zgarishi global xarakterga ega.

Eng ko'p isish Shimoliy kengliklar uchun xarakterli, namlikni o'zgarishi o'rta kengliklarga ham taalluqli, bundan tashqari siklik faoliyat kuchaymoqda, to'fonlar hosil bo'lishi vaqti qisqarish, kuchi ortmoqda. Iqlimni o'zgarishi,



shuningdek Jahon okeani satxini ko'tarilishiga olib kelib qirg'oq bo'yi hududlarga ega bo'lgan davlatlar manfaatiga ham putr yetkazmoqda.

Ekologik muammolar masalasi doirasida u yoki bu jarayonlarni kelib chiqishini hududiy xususiyatlarini ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir. Chunki, yuqorida ta'kidlaganimizdek, ular global ekologik muammolarni shakllantiradi. Iqtisodiy rivojlanishni yuqori darajasi va alohida davlatlarning iqtisodiy o'sishining yuqori sur'atlari katta miqdorda ekologik muammolarni shakllantirmoqdaki, ular transhududiy va global xarakterga ega.

Global ekologik muammolarni shakllanishining boshqa o'chog'i Janubiy va Janubiy-Sharqiy Osiyo mintaqasidir. Ushbu mintaqada, yigirmadan ortiq mamlakat bo'lib, Jahon aholisini 45% iga yaqini istiqomat qiladi. Keyingi yillarda ushbu mintaqada qishloq xo'jaligi yerlaridan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan muammolar paydo bo'ldi, bu asosan tuproq degradatsiyasi, o'rmon bilan qoplanganlikni pasayishi, cho'llashish bilan bog'liq. Janubiy va Janubiy-Sharqiy Osiyo mamlakatlarida ishlov beriladigan yerlar maydoniga nisbatan dunyoda aholini eng katta zichligi kuzatiladi - 1 km<sup>2</sup> ga 400 kishidan ortiq va tuproq unumdorligini pasayishida aholi soni tez ko'payib bormoqda. Industrial rivojlangan mintaqalarda texnogen bosimni keskin o'sishi, tabiiy resurslardan ekstensiv foydalanish bilan kuzatiladi va buning oqibati sifatida atrof-muhit holatini keskin yomonlashuvi va uni assimilyatsiya salohiyatini pasayishi ro'y beradi.

Mintaqada ekologik holatni yomonlashuvi o'z navbatida davlatlar xo'jaligini rivojlanishida qiyinchiliklar tug'diradigan omil bo'lib, qashshoqlik, ochlik, tibbiyotni past sifati va o'lim darajasi yuqoriligi muammolarini chigallashtiryapti.

Industrial va industrial davrgacha bo'lgan oddiy yerdan foydalanishni qo'shib olib borish dexqonchilik uchun yaroqli bo'lgan resurslarni tez orada tugallanishiga, ularni unumdorligini yo'qotishga olib keldi. Qishloq xo'jaligi aylanishiga yangi yerlarni jalb qilish, o'z navbatida, o'rmonlarni kamayishiga, suv oqimini buzilishiga, tuproq eroziyasiga olib keladi. Iqtisodiy sabablarga ko'ra paydo bo'layotgan ushbu barcha muammolar rivojlanmoqda va inson hayotini turli

sohalarini qamrab olib sekin-asta global xarakterga ega bo'lmoqda, mintaqada jiddiy muammo chorvachilikni rivojlantirish bilan bog'liq. Yaylovlarni taqchilligi sharoitida chorva sonini o'sib borishi yaylovlardan haddan tashqari ortiq foydalanishga olib kelib o'simlik qoplamasini degradatsiyasiga va cho'llashishga olib kelmoqda. Natijada tabiiy yaylovlar maydoni qisqarmoqda. Xindistonda, masalan, keyingi 50 yilda hayvonlar soni deyarli 2 barobar ortdi, yaylovlar maydoni esa, aksincha, 20 mln.gektarga qisqargan. Global muammolarni shakllanishining yana bir hududiy o'chog'i Amazoniyadir. Bu Janubiy Amerikaning Amazonka daryosi havzasida joylashgan tabiiy zona. Amazoniya hududi 9 mamlakatni: Boliviya, Venesuela, Gviana, Gavana, Surinam, Kolumbiya, Ekvador, Peru va Braziliyani qamrab oladi. Ushbu hududni eng asosiy boyligi odam oyog'i yetmagan tropik o'rmonlar. Biroq XIX asrning oxirida uni xo'jalik maqsadlarida o'zlashtirish boshlandi. Bu narsa jahon bozorida natural qauchuqqa bo'lgan ehtiyoj bilan bog'liq. Amazoniyaning 2/3 qismini egallagan Braziliya XX asrning boshlarida jahonda qauchuqni yirik yetkazib beruvchisiga aylandi. Xo'jalik maqsadlarida o'zlashtirishning keyingi bosqichi o'tgan asrning 60-yillarida boshlandi, u Braziliyani "Amazoniya operatsiyasi" deb nomlangan davlat loyihasi doirasida amalga oshirildi va hududni qishloq xo'jaligi maqsadlarida o'zlashtirish, yirik chorvachilik xo'jaliklarini tashkillashga yo'naltirildi. o'z navbatida bunday o'zlashtirish o'rmonni ancha maydoni kesilishiga va tuproq degradatsiyasiga olib keldi. Keyinroq 80-yillarda "Amazoniya operatsiyasi" dasturi tog'-kon sanoati, boksit, marganes va qo'rg'oshin rudasi, neft, temir rudasi qazib olishni rivojlantirish tomonga o'zgartirildi. Turli baholashlarga ko'ra xo'jalik maqsadlarida o'zlashtirish 25% gacha maydonlarni egallab, ekotizimda jiddiy o'zgarishlarga olib keldi. Amazoniyada resurslarni, birinchi navbatda, o'rmon resurslarini, xo'jalik aylanmasiga jalb qilish bilan bu jarayonni global ekologik oqibatlarini o'rtasida bog'liqlik o'z-o'zidan ko'rinib turadi. Ushbu mintaqada o'rmonlari quruqlik o'simliklari ishlab chiqayotgan yalpi kislorodni yarmidan ko'prog'ini berib atmosferadan uglerod dioksidni choragini yutib yuboradi. Amazonka havzasi o'rmonlarini yaylov va o'tloqlar bilan almashtirish natijasida

atmosfera ga ajralib chiqayotgan uglerod miqdori 20% ga ortishi mumkin. Agar uglerod dioksidi issiqxona samarasini beruvchi gazligini hisobga olinsa, voqelikni keyingi rivojini prognozlashtirish murakkab. Mutaxassislar fikriga ko'ra Amazoniya davlatlari, birinchi navbatda Braziliya, uni o'rmonlarini asrash bo'yicha favqulotda chora-tadbirlar ko'rmasalar, bu jahon ko'lamidagi ekologik halokatga olib kelishi mumkin. Mintaqada sodir bo'layotgan ekologik jarayonlar Amazoniya mamlakatlari rivojlanishining iqtisodiy muammolaridir. O'rmonlarni kesish ko'lamini tobora ortib borishi jahon bozorida qimmatbaho yog'ochga talabni o'sishi, yog'ochni yoqilg'i-sifatida ishlatish, dehqonchilikni rivojlantirish bilan bog'liq. Braziliya, yoqilg'i tanqisligini kuchli xis qilgan holda, shakarqamishdan spirtli yoqilg'i ishlab chiqarish bo'yicha dasturni rivojlantira boshladi. Bu esa ushbu ekinni joylashtirish uchun yana o'rmonlarni kesishga olib keladi. Mamlakatlarni iqtisodiy rivojlanganlik darajalari bo'yicha toifaga bo'lish an'anasiga muvofiq, ularni markaz va "chekka joylar" ga (mamlakatlarga) kiritish amalga oshiriladi. Markazni jahon iqtisodiyoti yetakchilari, sanoat jihatidan rivojlangan mamlakatlar tashkil qiladi, ular jahon iqtisodiyoti tizimini tashkil qiluvchi o'zakni o'zida ifoda qiladi. Bu yadroda jahon xo'jalik tartibotini belgilab beruvchi ilg'or texnologik, tashkiliy-boshqaruv, ijtimoiy va iqtisodiy standartlar shakllanadi. "Chekka joylar" (mamlakatlar) iqtisodiy rivojlanish darajasi bo'yicha qoloq mamlakatlar bo'lib, ularni rivojlanayotgan mamlakatlar deb ham ataladi. Ushbu mamlakatlarning ko'pchiligini industrializatsiyani turli bosqichlaridadir va u hali yakunlanmagan. Rivojlanayotgan mamlakatlarning ko'pchiligini milliy iqtisodiyoti xom-ashyo yo'nalishiga ega bo'lib, ularda iqtisodiy rivojlantirishning ham samara beruvchi mexanizmi amal qiladi. Davlatlarni markaz va markaz bo'lmagan guruhlariga bo'lish soddalashtirilgan xarakterga ega bo'lsada, undan global ekologik-iqtisodiy muammolarni hududiy jihatlarini anglash uchun foydalanish mumkin. Hududiy ekologik-iqtisodiy muammolarni shakllantirayotgan jarayonlar, dastlab lokal xarakterga ega bo'ladi, lekin iqtisodiy rivojlanish jarayonida globalga o'sib o'tadi. Global ekologik-iqtisodiy muammolarni rivojlanishi markaz uchun ham "chekka mamlakatlar" uchun ham xarakterlidir.

Ular rivojlanishi "markaz" dan ham, "chekka mamlakatlar" dan ham amalga oshirilishi mumkin va aksincha. Yuqoridagilarga ko'ra jahonda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni istiqbollari barqaror rivojlanish tamoyillariga asoslanishi zarurligini keltirib chiqaradi.

## **II-BOB. MINTAQA IQTISODIYOTINI EKOLOGIYALASHTIRISH QONUNIYATLARI VA ZAMONAVIY USULLARI**

### **2.1. O'zbekistonning ekologik muammolari va ularni o'ziga xos xususiyatlari**

Barcha siyosiy qarorlar ichida mintaqaviy iqtisodiy siyosat tag-zamin bazisdir. Uni amalga oshirish ta'sirchanligiga va samaradorligiga butun mamlakat va uni alohida mintaqalari milliy boyligi darajasi, aholi hayotini sharoiti va sifati bog'liq. Iqtisodiy siyosat butun boshqarish faoliyatini muvofiqlashtiruvchi, uyg'unlashtiruvchi rol o'ynaydi.

O'zbekiston Respublikasida mustaqillik yillarida sotsial-iqtisodiy siyosat boshqarishning ma'muriy-buyruqbozlik usulidan meros bo'lib qolgan muammolarni bartaraf qilishga qaratildi. Bu siyosatning diqqat markazida mamlakat ichidagi hududlararo notekislikni yumshatish bo'ldi. Hozirgi davrda mamlakat mintaqalarida sotsial-iqtisodiy rivojlanish va uning tarkibi quyidagi jadval ma'lumotlarida keltirilgan.(2.1.1-jadval)

Ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, mamlakat va uni mintaqalarini sotsial-iqtisodiy rivojlanish darajasini ifodalovchi agregat ko'rsatkich, ya'ni YaIM Respublika mintaqalari bo'yicha anchagina tebranib turibdi. Masalan, bu muhim ko'rsatkich Sirdaryo viloyatida 1,6% bo'lib, eng past darajadir.

Mamlakatimizning viloyatlari orasida eng yuqori darajaga esa Toshkent viloyati erishgan (9,0%). Bu muhim ko'rsatkich bo'yicha Qashqadaryo, Farg'ona, Andijon viloyatlari erishgan daraja ham ancha yuqori bo'lib, Sirdaryo viloyati darajasidan 4-5 barobar yuqoridir.

**2014 yilda mintaqalarning Respublika asosiy iqtisodiy  
ko'rsatkichlarida xissasi, %**

Hududlar nomi	%	Doimiy aholi soni 01.01.2015	Iqtisodiyotda band bo'lganlar soni	Ichki yalpi mahsulot
O'zbekiston Respublikasi	100,0	100,0	100,0	100,0
Qoraqalpog'iston Respublikasi	37,1	5,8	5,0	2,2
Viloyatlar:				
Andijon	1,0	9,1	9,6	6,0
Buxoro	9,0	5,8	6,6	5,5
Jizzax	4,7	4,0	3,3	2,2
Qashqadaryo	6,4	9,3	8,4	7,9
Navoiy	24,7	3,0	3,5	5,3
Namangan	1,7	8,1	7,0	3,9
Samarqand	3,7	11,1	10,6	6,2
Surxondaryo	4,5	7,4	6,7	3,6
Sirdaryo	0,9	2,6	2,8	1,6
Toshkent	3,4	9,2	9,9	9,0
Farg'ona	1,5	11,0	11,5	6,6
Xorazm	1,3	5,6	5,2	3,1
Toshkent shahri	0,1	8,0	9,9	15,9

Aytish joizki, sovet davlatining mintaqaviy iqtisodiyoti monopol mulkchilik, direktiv rejalashtirish va idoraviy tarmoq diqtata asosida rivojlangan. Bunday siyosatni amal qilishi jarayonida quyidagi salbiy qonuniyatlar mavjud bo'lgan:

- mintaqalar iqtisodiyoti xarbiy-sanoat va tog'-kon komplekslari foydasiga buzilgan;
- iqtisodiyotni barcha sohalarida ishlab chiqarish ob'ektlari (zavod va fabrikalar) qurish orqali hududiy to'planuvi bilan kuzatilgan ulkan hajmi;
- qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida turg'unlik, kolxoz-sovxoz (o'z mohiyati bo'yicha davlatga qarashli) mulki hukmronligi va buning natijasi sifatida don va ozik-ovqatni import qilinishi;

<sup>10</sup> Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo'mitasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

- haddan tashqari ko'p mehnat sarflari, ortiqcha xom-ashyo va iqtisodiyotni katta energiya sig'imi, mahsulotni past sifatlilik;
- tovar ishlab chiqaruvchilar o'rtasida raqobatni yo'qligi;
- mintaqaviy iqtisodiyotni boshqarishda hukmron bo'lgan ma'muriy usullar;
- mintaqaviy iqtisodiy siyosat markazda shakllantirilgan va ko'p hollarda mahalliy o'ziga xoslik, hududiy ishlab chiqarish komplekslarini shakllanish xususiyatlarini hisobga olmasdan olib borilgan. Siyosatda mamlakatning barcha mintaqalarini standartlashtirishga ko'maklashadigan qarorlar qabul qilish ustun bo'lib, har bir hududni o'ziga xosligi inkor qilingan.

O'zbekiston Respublikasida yuqoridagi salbiy holatlarni tugatish uchun iqtisodiy siyosatda tub burilishlarni amalga oshirish bo'yicha chora-tadbirlar belgilandi. Bu chora-tadbirlar mintaqaviy iqtisodiyotni yuksaltirish uchun hududlarni o'z-o'zini rivojlantirish va tashkillashtirishni jonlantirishga qodir bo'lgan yangi iqtisodiy siyosat bo'ldi. Ushbu siyosat barcha darajada: mamlakat, mintaq va mahalliy darajada amalga oshirilib bormoqda. Bunda mintaqalar iqtisodiy rivojlanishidagi assimetriyani hisobga olib, yakka tartibda boshqarish ta'sirini o'tkazish taqozo qilinganligini nazarda tutish kerak (2.1.2-jadval).

Mamlakat hududida eng boy mintaq Tashkent viloyati bilan eng kambag'al mintaq Sirdaryo viloyati o'rtasidagi farq 5,5 barobardan ortiq bo'lib, O'zbekiston Respublikasi yagona iqtisodiy makonini muvofiqlashtirilgan rivojlantirish uchun bir muncha qiyinchiliklar tug'diradi. Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, sovet davridagi Respublika mintaqalari orasidagi farq ancha katta bo'lgan.

Mintaqaviy iqtisodiy siyosatning strategik maqsadi O'zbekiston va mintaqalar iqtisodiyotini muvozanatlashgan rivojlantirish asosida aholini farovonligi to'g'risida g'amxo'rlik bo'lishi kerak. Hozirgi bosqichni bosh taqtik maqsadi mintaq iqtisodiyotlarini barqaror rivojlantirish uchun mustahkam iqtisodiy bazasini yaratish uchun sharoit yaratishdir.

**Respublika viloyatlarida yalpi ichki (hududiy) mahsulot ishlab chiqarish**

Hududlar nomi	Mlrd. so'm		Aholi jon boshiga ming so'm	
	2013	2014	2013	2014
O'zbekiston Respublikasi	48097,0	61831,2	1726,3	2208,2
Qoraqalpog'iston Respublikasi	1246,1	1389,8	766,2	850,2
Viloyatlar:				
Andijon	3225,6	3679,6	1274,6	1355,8
Buxoro	2612,9	3376,0	1627,8	2015,1
Jizzax	1207,8	1389,1	1085,0	1235,6
Qashqadaryo	3731,9	4865,1	1439,3	1823,2
Navoiy	2577,4	3276,6	3038,7	3790,1
Namangan	1863,4	2426,6	830,4	1019,4
Samarqand	3091,4	3813,1	997,4	1210,3
Surxondaryo	1705,7	2229,3	828,7	1050,3
Sirdaryo	795,4	1008,3	1117,1	1380,5
Toshkent	4420,7	5571,1	1711,3	2061,2
Farg'ona	3606,6	4095,5	1178,4	1248,1
Xorazm	1547,8	1944,1	999,5	1201,8
Toshkent shahri	8202,8	9820,1	3796,9	4295,1

Iqtisodiyotni muvozanatlashgan rivojlanishi sotsial maqsadlarga erishish uchun asosiy, yetakchi kuch sifatida qaralmoqda.

Strategik va taqtik maqsadlarga erishish uchun bir qator kechiktirib bo'lmaydigan vazifalarni hal qilish zarur:

- mintaqa iqtisodiyotlarini aholini ehtiyojlarini qondirish maqsadida tuzilmasini takomillashtirish uchun sharoit yaratish;

- mintaqa bozorlarini mos ravishda infratuzilma barpo qilish bilan diagnostika qilish va qayta ko'rish;

- mulkchilikni va xo'jalik yuritishni turli-tuman shaklliligiga ko'maklashish;

- kichik biznesni shakllanishi va rivojlanishi uchun sharoit yaratish;

- inqirozli holatdan "tushkunlikka tushgan" hududlarni olib chiqish;

<sup>11</sup> Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo'mitasi ma'lumotlari.2015



- Har bir mintaqada iqtisodiyotga mos ishlab chiqarish infratuzilmasi ob'ektlari tizimini yaratishga ko'maklashish;

- mintaqqa iqtisodiyotlarini isloh qilish bo'yicha aniq dasturlar ishlab chiqish.

O'zbekiston Respublikasi sub'ektlari amalga oshirayotgan mintaqaviy iqtisodiy siyosatni ishlab chiqish va o'tkazishda, birinchi navbatda ichki salohiyatdan oqilona foydalanishga qaratilmoqda. O'zbekiston mintaqalari tabiiy resurs salohiyoti to'g'risida bilish mamlakat organlarga hududni ustuvor rivojlantirishni tanlash uchun ham zarur.

Hozirgi sharoitda intellektual salohiyat ilmiy sig'imi katta va yuqori texnologiyali ishlab chiqarishga yo'naltirilganlik zarur. Buning uchun hokimiyatni mamlakat organlari ulkan moddiy va mehnat resurslari potentsiali mujassamlashgan eski sanoat mintaqalariga e'tibor qaratishlari zarur. Ushbu mintaqalardan ba'zi birlari "tushkunlikka tushib" qoldi, shuning uchun ularni turg'unlik holatidan olib chiqib ketish va umummilliy va mintaqaviy manfaatlarni muvofiqlashtirish bo'yicha murosaga keltiradigan qarorga kelish zarur.

Alohida e'tiborni hududiy ishlab chiqarish komplekslari asoslari tashkillangan va nafaqat xom-ashyo va yoqilg'i sotishga balki sanoatni yuqori qavatlari mahsulotini sotishga qodir bo'lgan mintaqalarga qaratish kerak. Siyosiy ta'sirni kuchaytirish hamda bazaviy mintaqalarga dotatsiyani va budjet ajratmalarini kuchaytirish mamlakatni yagona iqtisodiy makonini saqlash va mintaqalar o'rtasidagi farqni tekislash imonini beradi.

Iqtisodiy tengsizlik hududlarni tarixiy rivojlanishi davomida kelib chiqqan. Bozor iqtisodiyotiga kirgan mintaqalar boshlang'ich darajasi nafaqat tabiiy potentsialdan foydalanish darajasi va mintaqaviy iqtisodiyotni amal qilish samaradorligi, balki siklik rivojlanish bosqichlari bo'yicha ham turlicha bo'lgan. Ba'zi bir mintaqalar (Jizzax, Xorazm, Qoraqolpoq), boshqalari industrial rivojlanish bosqichida (Andijon, Qashqadaryo, Navoiy va shunga o'xshaganlar), uchinlari esa postindustrial rivojlanish (Toshkent shaxri) bosqichidadir. Mintaqaviy iqtisodiyotni siklik rivojlanish xususiyatlarini hisobga olish, yangi iqtisodiy siyosatni ishlab chiqish va uni amalga oshirishda o'ta zarur. Mintaqaviy

iqtisodiy tizim siyosatining butun tizimi quyidagi prinsiplar yig'indisiga asoslanishi kerak:

- O'zbekiston makonini mintaqaviy iqtisodiy nomutanosibligini tekislash va muvozanatli rivojlanishini amalga oshirish;
- Bozor tomonidan tartibga solish bilan davlat boshqaruvi qo'shib olib boriladigan mintaqaviy iqtisodiyotini sotsial yo'naltirish;
- Mintaqa iqtisodiyotini rivojlantirish ekologik muvozanatni buzmasdan va odamlar hayot-faoliyati muhitini yomonlashtirmasdan amalga oshirilishi lozim;
- Hududiy ishlab chiqarish qo'shib olib borilgan tuzilmada barcha xo'jalik ob'ektlarini muvozanatli rivojlantirish;
- Mamlakatni yagona iqtisodiy tuzilmasi va hududiy mehnat taqsimoti bo'g'ida namoyon bo'luvchi tizimda amal qiluvchi mintaqaviy iqtisodiyot ishlab chiqarish ixtisoslashuvini optimallashtirish;
- Markaz va mintaqa, shahar va qishloq joylari, mintaqaviy hokimiyat, mahalliy o'z-o'zini boshqarish va xo'jalik sub'ektlari manfaatlarini muvofiqlashtirish;
- Mamlakat darajasida turg'unlikka tushib qolgan va iqtisodiy qoloq hududlarga alohida e'tibor qaratish zarur. Bu maqsad uchun O'zbekiston iqtisodiy makonini balanslashtirilgan rivojlantirish konsepsiyasi va aniq mintaqalarni sotsial-iqtisodiy rivojlantirishning kompleks dasturlari ishlab chiqilishi ko'zda tutilgan.

Markaziy hokimiyatni turg'unlikdan chiqarish bo'yicha siyosati boshqarish qarorlarini qabul qilishda ustuvor bo'lishi kerak. Mintaqalarni qo'llab-quvvatlash, ular iqtisodiyotini tuzilmaviy qayta qurish va aholini turmush darajasini oshirish bilan kuzatilishi kerak.

Mintaqalar va mahalliy hokimiyatlar tomonidan o'tkazilayotgan iqtisodiy siyosat odamlar hayot-faoliyatini qulay muhitini yaratishga,

Aholi ehtiyojini qondirishni hisobga olib xo'jalik tuzilmasini qayta ko'rishga yo'naltirilgan bo'lishi kerak. Barcha mintaqalarda sifatli xalq iste'mol tovarlari va mahalliy xom-ashyodan mahsulot ishlab chiqaruvchi korxonalarni ustun

sur'atlarda rivojlantirish, aralash tipdagi mintaqaviy iqtisodiyotni amal qilishiga sharoit yaratilmoqda.

Mintaqaviy iqtisodiy siyosatda ishlab chiqarishni hududiy tashkillash sohasida har doim sotsial-iqtisodiy birliklar, sanoat tugunlari va mahalliy hosilalarni shakllantirish xususiyatlari doimiy hisobga olinishi kerak. Bunda barcha hududiy-iqtisodiy tuzilmalarni mintaqaviy muvozanatini ta'minlash va ularni barqaror transport tarmog'i bilan bog'lash juda muhimdir. Har mintaqada hududiy iqtisodiy o'sadigan istiqbolli shaharlar asosida "Sinch" barpo qilinishi kerak.

Aytish kerakki, iqtisodiy siyosatning ta'sirchanligi uning ekologik siyosati darajasiga bog'liq. Bilamizki hozirda iqtisodiy rivojlanish ekologik cheklovlar qurshoviga tobora ko'proq tushmoqda. Shuning uchun mos holda ekologik siyosat bilan uyg'unlashishi kerak.

O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan iqtisodiy siyosat, uning ta'sirchanligi ekologik siyosati bilan bog'liq. Shuning uchun mamlakatda amalga oshirilayotgan iqtisodiy siyosat yaqqol ifodalangan ekologik yo'nalishga ega.

O'zbekiston Respublikasi inson huquqlari va erkinligini ta'minlovchi sotsial va ekologik yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirish, jahon hamjamiyatiga to'laqonli integratsiyalashgan demokratik, huquqiy va ochiq fuqarolik jamiyatini qurishni amalga oshirmoqda. Respublikada amalga oshirilayotgan qayta qurishlarni asosiy maqsadi va harakatga keltiruvchi kuch inson farovonligi va har tomonlama rivojlanishi, shaxs manfaatlarini qondirish uchun sharoit yaratish va ta'sirchan mexanizmni barpo qilishdir.

Xalqaro hamjamiyat insonni nafaqat hayotga, balki odamlar sog'lom turmush tarzini ta'minlash uchun zarur bo'lgan atrof muhitning normal sharoitlariga huquqni daxlsiz va muqaddasligini allaqachon tan olgan.

Ekologik havfsizlik inson uchun dolzarbligiga ko'ra eng muhim muammolar qatorida turadi.

Xalqaro huquqiy tajriba, hozirgi zamon fani, texnikasi va texnologiyasi yutuqlari asosida ekologik havfsizlikni ta'minlashning tizimini shakllantirish

O'zbekiston milliy havfsizligini ta'minlashni asoslaridan biridir. Ekologik havfsizlik milliy havfsizlikni strategik unsuri bo'lib, O'zbekiston Respublikasida davlat, jamiyat va shaxsning hayotiy muhim manfaatlarini himoya qilishni asosiy yo'nalishlaridir.

O'zbekiston Respublikasi ekologik havfsizlik konsepsiyasi konstitutsiya, qonunchilik, O'zbekiston Respublikasi milliy havfsizlik konsepsiyasi, atrof muhit va barqaror rivojlanish bo'yicha Rio - de Janeyro va Yoxannesburg deklaratsiyasi asosida amalga oshiriladi va Respublikani xalqaro qonvensiya va bitimlaridan kelib chiqadigan majburiyatlarini hamda yetakchi davlatlarni qonunchilik tajribasini hisobga oladi.

O'zbekiston postsovet makonining barcha boshqa mamlakatlari singari, energiya va metall sig'imi katta bo'lgan ishlab chiqarish, eski va atrof muhitini ifloslantiradigan jixozlarni meros qilib oldi. Ma'muriy buyruqbozlik iqtisodiyotidan bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida maqroiqtisodiy rejalashtirishning tabiatni muhofaza qilish siyosati va uni sotsial va boshqa sohalarda integratsiya qilish bilan optimal qo'shib olib borish vazifasi birinchi darajali vazifa bo'lib qoldi.

Respublikaning ekologik siyosati tabiatni alohida unsurlarini muhofaza qilishdan butun ekotizimni muhofaza qilishga insonning yashash muhitini hayotiy muhim parametrlarini optimalligini kafolatlashga o'tishni amalga oshirishga yo'naltirilgan. Bunday ekologik siyosatni amalga oshirish xalq xo'jaligi kompleksi va butun jamiyatni barqaror rivojlanishining shartlaridan biri bo'lishi kerak.

O'zbekiston Respublikasi ekologik siyosati natijalaridan biri bu inson hayoti uchun katta havf tug'diradigan hududlarda atrof-muhit sifatini yaxshilash va ekotizimlarni barqarorlashtirish bo'ldi.

Orol bo'yida ekologik holatni rehabilitatsiya qilish bo'yicha tadbirlar faollik bilan amalga oshirilmogda lokal kichik suv havzalari, ichimlik suvi bilan ta'minlashga suv inshootlar qurilishi faollik bilan olib borilayapti.

Aytish joizki, Respublika o'z mustaqilligiga erishgandan so'ng mamlakatda ekologik masalalarga katta e'tibor berila boshlandi. Buning uchun birinchi

navbatda ekologik havfsizlikni ta'minlashning qonunchilik bazasiga asos solindi va rivojlantirildi. Mamlakatimizda qabul qilingan "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida" gi qonun birinchi qonunlardandir (2.1.3-jadval)

2.1.3-jadval

**O'zbekiston Respublikasining atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha  
chiqarilgan qonunlari<sup>12</sup>**

№	Qonunlar	Qabul qilingan yili va sanasi
1.	O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi	08.12.1992 y.
2.	Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida	09.12.1992 y.
3.	Suv va suvdan foydalanish to'g'risida	06.05.1993 y.
4.	Yer osti boyliklari to'g'risida	23.09.1994 y. (yangi red. 13.12.2002y.)
5.	Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risida	27.12.1996 y.
6.	O'simlik dunyosini muhofaza qilish va foydalanish to'g'risida	26.12.1997 y.
7.	Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va foydalanish to'g'risida	26.12.1997 y.
8.	O'zbekiston Respublikasining Yer kodeksi	30.04.1998 y.
9.	Ekologik ekspertiza to'g'risida	25.05.2000 y.
10.	O'rmon to'g'risida	15.04.1999 y.
11.	Chiqindilar to'g'risida	05.04.2002 y.
12.	Yer osti boyliklari to'g'risida	(yangi red. 13.12.2002 y.)
13.	Alohida qo'riqlanadigan tabiiy hududlar to'g'risida	03.12.2004 y.
14.	Radiatsiya havfsizligi to'g'risida	31.08.2000 y.

<sup>12</sup> Manba: muallif tomonidan ilmiy adabiyotlarga asoslangan holda tuzilgan.

Shuni aytish kerakki, 2008 - 2012 yillarda O'zbekiston Respublikasining atrof-muhitni muhofaza qilish ishlari dasturi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 1999 yil 20 oktyabrdagi 469-son qarori bilan tasdiqlangan 1999 - 2005 yillarda O'zbekiston Respublikasining atrof-muhitni muhofaza qilish ishlari dasturining davomi bo'lib O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan islohotlarga ekologik jihatdan ko'maklashish prinsiplariga asoslanadi va uning asosiy qoidalari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish dasturlari va loyixalarini ishlab chiqishda hamda amalga oshirishda muhim voqelik bo'ldi.

Ushbu Dastur atrof-muhitni muhofaza qilish, ekologik havfsizlikni ta'minlash, tabiiy tizimlarni, ularning biologik rang-barangligini xamda o'zini-o'zi to'g'rilash qobiliyatini saqlash va qayta tiklash, tabiiy resurslardan oqilona va kompleks foydalanishni ta'minlash, tabiatdan foydalanishni boshqarishning samarali iqtisodiy metodlarini joriy etishni davom ettirish, atrof-muhitning ifloslanish darajasini kamaytirish, tabiiy muhitni saqlashni ta'minlashning huquqiy mexanizmini takomillashtirish, ekologik ilm-fanni rivojlantirish, ekologik bilimlarni keng targ'ib qilish, shuningdek ekologik madaniyatni oshirish chora-tadbirlari kompleksini amalga oshirish maqsadida ishlab chiqilgan.

Dasturda ko'zda tutilgan ishlarni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalarni hal etish ko'zda tutilgan:

- tabiiy resurslardan, shu jumladan suv, yer, mineral xom ashyo, biologik resurslardan oqilona va kompleks foydalanish, Respublikaning butun hududi bo'yicha atrof tabiiy muhitning ifloslanish darajasini sanitariya-gigiena normalarigacha pasaytirish;

- ekologik talafot zonasida - Orolbo'yida, shuningdek mamlakatning ekologik jihatdan noqulay bo'lgan boshqa hududlarida ekologik holatni mahalliyashtirish, qayta tiklash va sog'lomlashtirishni ta'minlash bo'yicha kompleks chora-tadbirlar ko'rish;

- muhofaza qilinadigan yangi tabiiy hududlarni tashkil etish va mavjudlarini kengaytirish;

- Respublika aholisini sifatli ichimlik suvi bilan ta'minlash;

- ekologik jihatdan toza va resurslarni tejaydigan texnologiyalarni, shu jumladan, qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish bo'yicha texnologiyalarni joriy etish;
- ekologiya sohasida ilmiy-texnika potensialini rivojlantirish hamda fan va texnika yutuqlaridan foydalanish;
- ekologik monitoring, prognoz va axborotlarning kompleks tizimini amalga oshirish;
- Respublika hududlarini atrof-muhitning transchegaraviy ifloslanishini nazorat qilish va undan muhofaza etishning yagona xizmatini shakllantirish;
- ekologik qonunchilik, ta'lim, madaniyat va aholini tarbiyalash, shuningdek ekologik bilimlarni targ'ib qilish tizimlarini takomillashtirish;
- ekologik muammolarni hal etishda jahon hamjamiyati bilan hamkorlikni chuqurlashtirish.

Dasturni amalga oshirish bo'yicha ta'sirchan chora-tadbirlar ishlab chiqilib, ular muvofiqlashtirildi. Bu jarayonda dasturda vazirliklar, muassasalar va tashkilotlar bo'yicha tadbirlarni amalga oshirish sohasida yillik rejalar shakllantirildi. Bundan tashqari, dastur tadbirlarini amalga oshirish uchun atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shakri bo'yicha 2008-2010 yillarga mo'ljallangan hududiy dasturlar ishlab chiqilgan.

Tabiatni muhofaza qilish qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra dasturda ko'zda tutilgan tadbirlarni amalga oshirish uchun 2008-2010 yillarda 275 mlrd. sum, 372 mln. AQSH dollari va 16 ming evro o'zlashtirildi, shu jumladan:

- Vazirliklar, idoralar va korxonalarining o'z mablag'lari 257,5 mlrd. sum va 11 mln. AQSH dollari;
- Tabiatni muhofaza qilish mablag'lari (Tabiatni muhofaza qilish fondi) - 540,5 mln. sum
- Orolni qutqarish Xalqaro fondi mablag'lari - 7,7 mlrd. sum
- Respublika byudjeti - 942 mlrd. sum.

Amalga oshirilgan ishlar ko'lamini katta bo'lib, u ko'p sohalarni qamrab olgan. Ushbu dastur doirasida qo'riqlanadigan tabiiy hududlar va qo'riqxonalarni, shu jumladan "Jayron" Ekomarkazini, kengaytirish bo'yicha ishlar amalga oshirildi. Bundan tashqari "Hisor" Davlat qo'riqxonasini rivojlantirish va GEFning qo'riqlanadigan tabiiy hududlar milliy tizimi barqarorligini mustakkamlash loyixasini amalga oshirish boshlanib, unda O'zbekistonda qo'riqlanadigan tabiiy hududlar tizimi tarmog'ini kengaytirish ko'zda tutilgan.

Amalga oshirilgan chora-tadbirlar o'z samarasini bermoqda. Chunki Respublika bo'yicha atmosferaga ifloslantiruvchi moddalar chiqarish 1991 yildan beri 2 martadan ortiq, ifloslantirilgan okava suvlarini tashlash 2 marta qisqardi. Pestitsidlardan foydalanish keyingi 5 yilda 4 martadan ortiq qisqardi. Ekin maydonlari tarkibida paxta maydonlarini qisqartirish hisobiga donli va dukkakli ekinlar, sabzavot, poliz va kartoshkaning ulushini o'sish qonuniyatlari qaror topdi. Hozirda paxta ekin maydonlari ancha qisqartirildi va ekinlar tuzilmasida 40 foiz atrofidadir. Milliy qo'riqxonalar, bog'lar, buyurtmalar va ekomarkazlar rivojlanmoqda. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ekologik siyosat doirasida olib borilayotgan tashkiliy ishlardan eng muhimi Respublikada jamoatchilik ekologik harakatining tuzilishi bo'ldi (2008 avgust). Eng asosiysi bu harakat vakillari mamlakatning qonunchilik palatasida 15 ta deputatlik o'rnini egalladi. Bu esa ekologik siyosatni amaliy faoliyatga o'tkazish uchun juda muhim bo'lgan qonunchilik masalalarini hal qilishda katta ijobiy rol o'ynaydi. Ushbu harakat atrof-muhitni va inson sog'ligini muhofaza qilish g'oyasini qo'llab quvvatlaydigan unda faol qatnashish istagi bo'lgan fuqarolarni birlashtirishga yo'naltirilgan.

O'zbekiston ekologik harakatining dasturiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- Atrof tabiiy muhitni va ekologik holatni muhofaza qilish bo'yicha ishlarda jamoatchilik ishtirokini faolligini oshirish;
- Atrof tabiiy muhit muhofazasi masalalari bo'yicha qonunchilikni rivojlantirish va takomillashtirishga ko'maklashish;
- Atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha qonunlarni va boshqa davlat qarorlarini so'zsiz ijro etish ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish;



- Aholining ekologik madaniyatini oshirish, ekologik ta'lim va tarbiya tizimini rivojlantirish;

- Atrof muhitni muhofaza qilish sohasida xalqaro hamkorlikni rivojlantirish;

- Ekoharakatning jamoaviy a'zolari bo'lgan nodavlat, notijorat tashkilotlari faoliyatini muvofiqlashtirish.

Ozon qatlamini buzuvchi moddalardan foydalanishni to'xtatish bo'yicha milliy dastur, mamlakatni barqaror rivojlanish modeliga o'tishning milliy strategiyasi, cho'llashish bilan kurashish bo'yicha milliy harakat dasturi, issiqxona gazlari emissiyasini qisqartirish bo'yicha milliy strategiya qo'riqlanadigan tabiiy hududlarni joylashtirish va rivojlantirishni bosh sxemasi, ekologik ta'limni davlat standarti ishlab chiqilib amalga oshirilmoqda.

Chuchuk yer osti suvlari shakllanadigan zonalarga muhofaza qilinadigan hudud (11 ta kon. Respublika va 8 ta viloyat ahamiyatiga ega) makonini berish bo'yicha ishlar to'liq xajmda bajarildi. Simobli chiroqlar va asboblarning chiqindilarini qayta ishlash maqsadida lyuminostsent chiroqlarini zararsizlantirish bo'yicha Andijon, Navoiy va Buxoroda qo'shimcha qurilmalar ishlab chiqilib ishga tushirildi. O'simliklarni himoya qilishni, pestitsidlarni inson va hayvonlarga havfsiz qo'llashni o'z ichiga olgan chora-tadbirlari belgilanib, amalga oshirilmoqda. Biolaboratoriyalar va biofabrikalar tarmog'i barpo qilinib, entomologik xizmatlar kuchaytirildi. O'simliklarni himoya qilishning viloyat integratsiyalashgan sxemalari ishlab chiqildi. O'simliklarni integratsiyalashgan himoya qilish tizimi bo'yicha ishlab chiqilgan tadbirlar dasturlarini muvofiqlashtirish amalga oshirildi. Respublika va uning viloyatlarida o'simliklarni himoya qilishni barcha turlari (agrokimyo va biologik) qo'llanilmoqda. Yer osti suvlari davlat qadastiri olib borilmoqda. Yoqilg'i sifatini shu jumladan benzindan qo'rg'oshinni chiqarish orqali yaxshilash bo'yicha tadbirlar bajarilmoqda. Qisilgan tabiiy gazda ishlaydigan yuk va yengil avtomobillar uchun gaz ballon jixozlari tayyorlanib ommaviy sur'atda transport vositalariga o'rnatilmoqda. Samarqand, Xiva va Buxoroning tarixiy yodgorliklar hududlarida sizot suvlari darajasini nazorat qilish uchun kuzatuv ququdlari tarmog'i qurildi. Buxoroda 1773 kuzatuv

va 181 ta tik ququd (drenajlar) qurildi. Bu sizot suvlarini o'rtacha 2,5 metr pastda ushlab turish imkoniyatini yaratdi. Shuni ham aytish kerakki, moliyaviy vositalar yetishmasligi tufayli Samarqand va Xiva shaharlarida sizot suvlarini talab qilingan darajasini ta'minlab turish uchun qiyinchiliklar tug'ilyapti.

## **2.2. Barqaror rivojlanish konsepsiyasi tamoyillari va ularni amalga oshirish yo'llari**

O'ziga e'tibor qaratishga majbur qilgan va barqaror rivojlanish konsepsiyasini kelib chiqishiga sabab bo'lgan hozirgi zamon ekologik muammolari ma'lum ma'noda iqtisodiy ta'limotlarni hayotdan ortda qolishi oqibatidir. Na iqtisodiy fan klassiklari, na keyingi iqtisodiy ta'limot maktablari iqtisodiy rivojlanishda ekologik cheklovlarga ahamiyat berdi. Va faqatgina XX asrning 70-yillarida, ya'ni ekologik muammolar butun dunyoda keskin murakkablashib ketgandagina iqtisodiy fanlar oldida ekologik-iqtisodiy rivojlanishni shakllangan tendensiyalarini anglash va rivojlanishini tubdan yangi konsepsiyasini ishlab chiqish masalasi ko'tarildi.

Barqaror rivojlanish konsepsiyasi ilgari sezilmagan yoki muhim sifatida anglanmagan yoki iqtisodiy fanlar doirasiga kirmaydigan muammolarga sifat jihatidan yangicha yondashuv bo'ldi. Iqtisodiyotda hozirgacha ustuvor bo'lgan paradigma dunyo to'g'risida ba'zi-bir qisqa muddatli vaqt oralig'ida resurslarni samarali taqsimlash uchun juda foydali bo'la turib, uzoq muddatli, keng ko'lamli va barqaror rivojlanishni murakkab muammolarini faraz qilishga asoslanadi.

R.Kostantsa va K.Folke hal qilinishi barqaror rivojlanishga bog'liq bo'lgan uch ierarxik o'zaro bog'liq muammolarni farqlaydilar. Ular quyidagilarni ta'minlashdan iborat:

1. Iqtisodiyotning hayotni ta'minlashda, uni ekologik tizimini mos keladigan barqaror ko'lami.

2. Resurslar va imkoniyatlarni nafaqat hozirgi odamlar avlodi doirasida, shuningdek hozirgi va kelajak avlodlar o'rtasida ham, odamlar va boshqa biologik turlar o'rtasida adolatli taqsimlash.

3. Zamonda tabiiy kapitalni mos holda hisobga oladigan resurslarni samarali taqsimoti.

An'anaviy iqtisodiyot fanining ko'pchilik vakillari distributiv muammo iqtisodiy usullar bilan emas, balki siyosiy usullar bilan hal qilinishi kerak deb faraz qilishgan. Ko'lam muammosi hattoki salmoqli muammo sifatida ko'rilmagan, chunki resurslarni cheksiz almashtirish imkoniyatlari va texnologik o'zgarishlar tan olingan. Muhimi ko'lam muammosi va distributiv muammo bozor mexanizmi doirasida, hattoki barcha tashqi harajatni hisobga olish ma'nosidagi takomillashgan bozor sharoitida ham hal qilinishi mumkin emas. Avvalambor, bu muammolarni hal qilish bozordan tashqarida topilishi kerak, bu yechimlarni hayotga tatbiq qilish uchun bozordan samarali qurol sifatida foydalanish mumkin emas.

An'anaviy paradigma ko'lam muammosini va distributiv muammoni iqtisodiy fan doirasidan tashqaridagi voqelik sifatida inkor qiladi. Iqtisodiy fan resurslarni samarali taqsimlash munosabati bilan kelib chiqadigan texnik masalalarni hal qilish bilan cheklangan xolos.

Lekin, agar iqtisodiy fanni kengroq, aynan "xo'jalikni boshqarish fani" sifatida aniqlansa, (iqtisodiyot so'zi grekchada shunday ma'no beradi) u holda u bunday boshqarish jarayonida kelib chiqayotgan barcha muammolarga, xo'jalik ko'lami muammosi va distributiv muammoni o'z ichiga, hattoki ular resurslarni samarali taqsimlash muammosini hal qilishda qo'llaniladigan matematik modellar va an'anaviy yo'l-yo'riqlar doirasiga sig'masa ham, olishi kerak.

Barqaror rivojlanish konsepsiyasi 1970 yillarda ilmiy bilimlarni ekologiyalashtirish va yangi sotsial-iqtisodiy rivojlanish bosqichiga mantiqiy o'tish bo'ldi. Tabiiy resurslarni cheklanganligi hamda hayotni, insonni iqtisodiy va har qanday faoliyatining asosi bo'lgan tabiiy muhitni ifloslanishi masalasiga 1970 yillarda qator ilmiy ishlar bag'ishlangan. Ushbu muammoga e'tibor berish sifatida dunyoda global jarayonlarni o'rganish bo'yicha xalqaro nodavlat ilmiy

tashkilotlarini barpo qilish bo'ldi. Bular, istiqbolli tadqiqotlarni xalqaro Federatsiya institutlari, Rim klubi, tizimli tahlil xalqaro institutidir.

1972 yilda Stokgolmda o'tkazilgan insonni atrof-muhit bo'yicha BMT ning konferensiyasi va BMT rivojlanish dasturini tuzilishi sotsial-iqtisodiy rivojlanishga to'siq bo'layotgan ekologik muammolarni hal qilishga davlat darajasida xalqaro hamjamiyatni qo'shilganligini namoyish qildi.

Ekologik siyosat va diplomatiya, atrof-muhit huquqi, yangi institutsional tuzilmalar, atrof-muhit bo'yicha vazirlik va muassasalar paydo bo'ldi.

1980 yillarda ekorivojlanish, buzmasdan rivojlanish, ekotizimni barqaror rivojlantirish to'g'risida so'z yuritila boshlandi. 1980 yilda qabul qilingan umumjahon tabiatni muhofaza qilish strategiyasi birinchi navbatda xalqaro xujjatda barqaror rivojlanish to'g'risida so'z yuritdi. VSOPning ikkinchi taxriri "Yer sayyorasi to'g'risida g'amxo'rlik -barqaror hayot strategiyasi" deb nomlanib, 1981 yil oktyabr oyida e'lon qilindi. Unda ta'kidlanganidek, yerni biologik turlar bilan bog'liq bo'lgan tabiiy tizim tuzilmasini, funksiyalarini va turli-tumanligini saqlash, jonli tabiatni saqlash, tuzilmani himoya qilish demakdir. Buning uchun hayotni ta'minlab turuvchi tizimni asrash, biologik turli-tumanlikni saqlash va tiklanadigan resurslardan barqaror foydalanishni ta'minlash zarur. Milliy va global havfsizlikning qismi sifatida ekologik havfsizlik bo'yicha tadqiqotlar paydo bo'ldi.

BMT ning atrof-muhit bo'yicha dasturi (YuNEP) 1980 yillarda "buzmasdan rivojlanishga" o'tish zarurligiga chaqirdi. 1980 yilda barqaror rivojlanish konsepsiyasi (YuNEP), tabiatni muhofaza qilish xalqaro ittifoqi (MSOP) va yovvoyi tabiatni umumjahon fondi tashabbusi bilan ishlab chiqilgan tabiatni asrashning umumjahon strategiyasida birinchi marta keng tarzda ma'lum qilindi. 1987 yilda atrof-muhit va rivojlanish bo'yicha komissiya (MKOSR) o'zining "bizning umumiy kelajagimiz" nomli ma'ruzasida "hozirgi zamon ehtiyojlarini qondirish bo'lajak avlodlarni o'z ehtiyojlarini qondirish qobiliyatini izdan chiqarmaydigan", "barqaror rivojlanish" zarurligiga asosiy e'tibor berdi. Bu tushuncha, ya'ni "barqaror rivojlantirish" ba'zaviy sifatida ko'pchilik mamlakatlarda ishlatiladi.

Rio-de-Janeyroda 1992 yil iyun oyida atrof-muhit va rivojlanish bo'yicha BMT ning konferensiyasi bo'lib o'tib, unda butun jahon hamjamiyatini rivojlanish yo'nalishini o'zgartirish bo'yicha tarixiy qaror qabul qilindi. YuNSED yig'ilishiga to'plangan 179 mamlakat hukumatlari boshliqlari qabul qilgan misli ko'rilmagan qaror tez yomonlashib borayotgan global ekologik vaziyat va uni dinamikasi XXI asrdayoq global halokatga olib kelib, sayyorada barcha jonzotlarni yo'q bo'lib ketishiga olib kelishi mumkinligi to'g'risidagi tahdidlar bilan taqozo qilingan. Ekologik xarakterga ega bo'lgan muammolar orasida atrof-muhit bo'yicha BMT ning (YuNEP) dasturiga muvofiq amalga oshirilgan "global ekologik istiqbol-2000" (GEO-2000) ma'ruzasiga ko'ra XXI asrda asosiy muammo sifatida issiqxona gazlarini tashlash natijasida iqlim o'zgarishi, chuchuk suvni yetishmasligi va uni ifloslanishi, o'rmonlarni yo'q bo'lishi va cho'llashish, bio turli-tumanlikni qisqarishi, aholi sonini o'sishi (uni ko'chib yurishi), chiqindilarni bartaraf qilish, havoni ifloslanishi, tuproq va ekotizim degredatsiyasi, kimyoviy ifloslantirish, ozon qatlamini buzilishi, urbanizatsiya, tabiiy resurslarni quvvatsizlanishi, biokimyoviy sikllarni buzilishi, kasalliklar tarqalishi va sh.u. bo'ladi. Ko'rsatib o'tilgan ekologik muammolardan deyarli har biri, agar sivilizatsiyani stihiyali rivojlanishi davom etsa, insoniyat va biosferani halokatiga olib kelishi mumkin. YuNSED inqirozlar, halokatlar bilan bog'liq bo'lgan nobarqaror rivojlanish sifatida ta'riflangan an'anaviy rivojlanish yo'lini halokatli ekanligini namoyish qildi. Barqaror rivojlanish modeli (strategiyasi) nomini olgan yangi modelga o'tish o'zini omon qolishiga va yanada rivojlanishga intilayotgan jahon hamjamiyatini tabiiy reaksiyasidir.

Insoniyat o'zining o'sib borayotgan ehtiyojlari bilan ularni qondirishga qodir bo'lmagan biosfera imkoniyatlari o'rtasida kuchayib borayotgan qarama-qarshilik bilan to'qnashdi. Natijada sotsial-iqtisodiy rivojlanish global halokat tomon jadallashgan harakat tusini oldi, bunda nafaqat hayotiy ehtiyojlarni qondirish va bo'lajak avlod manfaatlarini qondirish, balki ularning o'zini mavjudligi ham havf ostida qoladi. Bu qarama-qarshilikni o'zining tabiiy asosini buzmasdan, insoniyatga omon qolish imkoniyatini kafolatlaydigan va keyinchalik barham

topmaydigan, boshqariladigan va barqaror rivojlanishni ta'minlaydigan sivilizatsiya xarakteriga ega bo'lgan rivojlanish yo'liga o'tishni hal qilish g'oyasi paydo bo'ldi.

Barqaror rivojlanish g'oyalari zamonning ob'ektiv talablariga javob bera turib, O'zbekiston kelajagiga hal qiluvchi ta'sir o'tkazishi, davlat ustivorliklarini, sotsial-iqtisodiy rivojlanish strategiyasini va mamlakatni yanada isloh qilishni belgilashda muhim rol o'ynashlari mumkin. Rivojlanishni yangi strategiyasi jahon hamjamiyati sivilizatsiyasi rivojini belgilab berdi - insoniyat hayotini davom ettirish va uzluksiz rivojlanish hamda biosferani asrash uchun harakatni birlashtirish. Tilga olingan konferensiya xujjatlarini imzolagan O'zbekiston konsensus asosida qabul qilingan umumjahon hamkorligi dasturini amalga oshirish bo'yicha o'ziga jiddiy majburiyatlar olgan.

Xalqaro tabiatni va tabiiy resurslarni muhofaza qilish ittifoqi taqdim qilgan "tabiatni muhofaza qilish umumjahon strategiyasi (1980)" ma'ruzasida rivojlanish barqaror bo'lishi uchun nafaqat uni iqtisodiy, shuningdek sotsial va ekologik jihatlarini hisobga olish aytib o'tilgan. 1980 yillarda ekologik va iqtisodiy rivojlanish munosabatlari muammosi "AQSH "World watch" (umumjahon vaxtasi)" tadqiqot instituti olimlari ishlarida ayniqsa faol muhokama qilingan. Bu ishlar "buzmasdan rivojlanish" keyinchalik esa "ekorivojlanish" tushunchasini tarqalishiga olib kelib, ekologik maqul rivojlanish, ya'ni atrof-muhitga eng kam ta'sir o'tkazib rivojlanishni bildiradi. Shuningdek, BMT ning atrof-muhit bo'yicha birinchi konferensiyasi deklaratsiyasida (Stokgolm, 1972) sotsial-iqtisodiy rivojlanishni atrof-muhit muammolari bilan aloqalari qayd qilingan. Rivojlanishni bunday tushunchasiga Rim klubi, ayniqsa "o'sish chegaralari (1972)" ma'ruzasi muhim xissa kushgan bo'lib, unda sivilizatsiyani eksponensial iqtisodiy o'sishdan "global dinamik muvozanat" holatiga -"organik" (sifat) va "yangi iqtisodiy tartibga" o'tish g'oyasi shakllantirildi. Yuqoridagilarga ko'ra ravshan bo'ldiki, agar atrof-muhit muammosi hal bo'lmas ekan, u holda sivilizatsiyani barcha yutuqlari yo'q bo'lib ketish havfi ostida qoladi. Ular yo'q bo'lib ketishi mumkin, chunki butun insoniyat sayyoraviy ekologik halokat domiga tortilishi mumkin, sababi

tabiat boyliklari, biosferani o'z-o'zini tiklash imkoniyatlari to'ligicha tugallanishi mumkin. Aniq-ravshan bo'ldiki, insonni rivojlanishi modelini va hattoki har bir inson hayot-faoliyati usulini tubdan o'zgartirish, insoniyatning butun tarixi davomida uni kelgusida yashashi uchun tubdan sivilizatsion transformatsiyani amalga oshirish zarurdir.

Butun dunyo, shu jumladan O'zbekiston agromadaniyat va industrial rivojlanishdan keyin, oldingi ikki sivilizatsiyadan ahamiyat jihatidan ham bo'lmagan, balki ulardan fundamental jihatdan yuqoriroq bo'lgan, uchunchi sivilizatsiya ostonasida turibdi.

Barqaror rivojlanish strategiyasini an'anaviy umuminsoniy tasavvurlar va qiymatlar, tafakkurni stereotiplaridan kelib chiqib, yaratish mumkin emas. U yangi ilmiy va nafaqat hozirgi zamon voqeligiga balki uchinchi ming yillikda faraz qilinayotgan rivojlanish istiqbolloriga mos keladigan, ishlab chiqarishni talab qiladi.

Barqaror rivojlanish tushunchasi bunday rivojlanishni ikki asosiy belgisi - antroposentrik va biosferasentrik orqali aniqlanadi. Keng ma'noda antroposentrik belgi insonni, mamlakat hayotini davom ettirish va uni yanada to'xtovsiz, uzluksiz uzoq muddat rivojlanishiki, unda hozirgi zamon avlodlariga nisbatan, avlodlarimiz tabiiy sharoit va ekologik sharoitga o'z ehtiyojlarini qondirishda bizdan ham bo'lmagan imkoniyatga ega bo'lsin.

Biosferasentrik (umumiy tushunchada ekologik) belgi tushunchasi biosferani yerda butun hayotni tabiiy asosi, uni barqarorligi va tabiiy evolyutsiyasini zaruriy sharti bo'lgan va insoniyatni keyinchalik rivojlanishi ekofob shaklda amalga oshirilmasligi sifatida asrash bilan bog'liq.

"Bizning umumiy kelajagimiz" nomli nashrda ta'kidlanishicha "Barqaror rivojlanish" strategiyasi odamlar bilan jamiyat va tabiat o'rtasida uyg'unlikka erishishga yo'naltirilgan. Bu prinsipni tabiat va jamiyat koevolyutsiyasi prinsipi sifatida ta'riflash mumkin.

Tahlillarimizga ko'ra aytish mumkinki, barqaror rivojlanish bu jamiyat hayotini davom ettirish va to'xtovsiz taraqqiyoti hamda tabiiy atrof-muhitni,

ayniqsa biosferani, buzmaslikni ta'minlaydigan sotsiotabiat rivojlanish strategiyasi sifatida aniqlash mumkin. Barqaror rivojlanishga o'tish tabiiy ekotizimni atrof-muhitni barqarorligini ta'minlaydigan darajagacha bosqichma-bosqich tiklashni faraz qiladi. Unda odamlarni kelajak avlodini mavjud bo'lishini, ularni hayotiy muhim ehtiyojlari va manfaatlarini qondirishning real imkoniyatlari paydo bo'ladi. Rivojlanishni yangi strategiyasini shakllantirish faoliyatni iqtisodiy, ekologik va sotsial sohalarini yagona o'z-o'zini tashkillaydigan tizimga bosqichma-bosqich birlashtirishni bildiradi. Shu ma'noda barqaror rivojlanish eng kamida biosferaga antropogen bosimni umumiy kamayishida, iqtisodiy samaradorlik bilan biologik samaradorlikni bir-biriga mos kelishi va sotsial adolatni faraz qiladi.

Biosferani buzmaydigan, balki uni asraydigan ya'ni, ekologik yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan ekotizim sig'imi chegarasidan chiqmaydigan, xo'jalik faoliyatini tashkillash -bo'lajak barqaror rivojlanishning tiklashni markaziy yo'nalishlaridan biridir. Biosferani shu nuqtai-nazardan nafaqat ombor va resurslar yetkazib beruvchi sifatida, balki hayot tag-zamini sifatida qurilishi kerak va uni asrash sotsial-iqtisodiy tizim va uni alohida unsurlarining amal qilishini majburiy sharti bo'lishi kerak. Hozircha to'la biologik bir-biriga mos keladigan xo'jalik barpo qilishga qoniqarli ilmiy-asoslangan yondashuv mavjud emas. XX asrdagi iqtisodiy rivojlanishni tez sur'atlariga yo'naltirilgan xo'jalik faoliyati inson va biosfera uchun buzg'unchi kuch bo'ldi. Lekin hozirgacha biologik jihatdan bir-biriga mos iqtisodiyot navbatdagi hayolparastlikka o'xshab ko'rinadi va uni hozirgi zamon sivilizatsiyasini qoniqtiradigan yo'llari va mexanizmlari aniq-ravshan emas. Ushbu ekologik iqtisodiy qarama-qarshilikni bartaraf qilish xo'jalik yuritishni va to'liq intensivlashtirish va ekologiyalashtirish prinsiplariga asoslangan barqaror iqtisodiyotni yangi modelini barpo qilishda ko'rinadi.

Barqaror rivojlanishga o'tishni tub mohiyati inson hayotini davom etishi va shu bilan bir vaqtning o'zida biosferani asrash, boshqacha qilib aytganda, biosfera va sivilizatsiyani asrashda mujassamlashgan. Noyob biologik tur sifatida biroq inson omon qolishi, o'z faoliyatini barcha jihatlarini biosferaga bosimni anchagina kamaytirish yo'nalishida tubdan transformatsiya qilishi zarur. Bu juda murakkab



vazifa, uni bajarish nobarqaror rivojlanish yoki insonni ishlab chiqarish xo'jaligiga o'tishidan boshlangan iqtisodiy rivojlanish modeli uchun xarakterli bo'lgan barcha narsalarga ko'p jihatdan qarama-qarshidir. Ushbu modelni ekologik jihatdan hayotiy emasligini XX asr namoyish qildi.

Sivilizatsiya tarixida XXI asr tub burilishlar yili bo'lishi mumkin, chunki bu asr davomida bosh masala, ya'ni insoniyat bo'ladimi yoki yo'qligi hal bo'lishi mumkin. Barqaror rivojlanishga o'tish uni hal qilish imkoniyatini beradi, chunki omon qolish va sivilizatsiyani yanada rivojlanishi uchun imkoniyat yaratadi, lekin biologik jihatdan ancha o'zgargan shunga qaramasdan bir-biriga mos kelish shaklida bo'ladi. Unda inson o'zi istiqomat qilayotgan zamin, ya'ni tabiiy muhitni buzmaydi. Hozirgi davrda butun dunyoda barqaror rivojlanish ilmiy jihatdan nazariyaga, amaliy jihatdan esa barqaror rivojlanish strategiyasiga aylanish kerak bo'lgan, konsepsiyasini ishlab chiqilmoqda. Jahon hamjamiyati kirib kelgan uchinchi ming yillikda omon qolishi uchun bu strategiyani amalga oshirishi kerak.

Nazariya va amaliyot ko'rsatishicha ekologik tashkil qiluvchilar insoniyat rivojlanishining ajralmas qismidir. Atrof-muhit va rivojlanish bo'yicha Xalqaro komissiya faoliyati va uni "Bizning umumiy kelajagimiz" nomli yakuniy ma'ruzasida uchlikdan (ekologik, sotsial, iqtisodiy) iborat bo'lgan yangi barqaror rivojlanish konsepsiyasiga asos solindi. BMT ning barqaror rivojlanish bo'yicha umumjahon sammita (hukumatlararo, nodavlat va ilmiy forum) 2002 yil sayyoramiz hayotini ta'minlab turuvchi tizimni saqlagan holda insonni asosiy uzoq muddatga mo'ljallangan ehtiyojlarini qondirish uchun butun jahon hamjamiyatini barqaror rivojlanish g'oyalari tarafdori ekanligini tasdiqladi. Barqaror rivojlanish konsepsiyasi ko'p jihatdan XX asr o'rtalarida akademik V.I.Vernadskiy olg'a surgan noosfera konsepsiyasi bilan kesishadi.

Barqaror rivojlanishni axborot-huquqiy jihatdan ta'minlash, huquqiy tartibga solish, shu asosda tabiatdan foydalanish, atrof-muhitni muhofaza qilish va ekologik havfsizlikni ta'minlash uchun atrof-muhit muammolari bo'yicha BMT konferensiyasi ishlab chiqqan barqaror rivojlanish (1972-yil Stokgolm) g'oyalari asos rolini o'ynaydi. Unda xususan quyidagilar e'tirof etildi:

- jamiyat mavjudligi va uni hayoti hamda insonni asosiy huquqlarini, shu jumladan hayotga bo'lgan huquqini ta'minlash uchun ham tabiiy, ham inson tomonidan yaratilgan atrof-muhit muhim;

- atrof-muhitni saqlash va yaxshilash mahalliy hokimiyatlar va barcha milliy hukumatlarning, siyosatni amalga oshirish va o'z vakolatlari doirasida ushbu sohada faoliyat uchun, prinsipial muhim majburiyatlaridir;

- atrof-muhitni ifloslanishi va degradatsiyasi havfli ko'lamga etdi;

- inson atrof-muhitini muhofaza qilish va yaxshilash davlatlar va xalqlarning hamkorlikdagi harakati bilan amalga oshiriladi;

- dunyoni belgilangan asosiy maqsadlari va xalqaro sotsial-iqtisodiy rivojlanishiga muvofiq hozirgi va kelajak avlodlar uchun amalga oshirilishi kerak.

Yuqoridagilar xalqaro huquqni maxsus tabiatni muhofaza qilish me'yorlari shakllanishi bilan bog'liq bo'lgan 1972 yil 16 iyundagi konferensiyada qabul qilingan inson atrof-muhiti bo'yicha Stokgolm deklaratsiyasida mustahkamlangan. Unda birinchi marta atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida davlatlarning hamkorligini to'g'ridan-to'g'ri tartibga solishga yo'naltirilgan xalqaro huquqning maxsus tamoyillari ko'zda tutilgan. Ularga birinchi navbatda quyidagi prinsiplar asos qilib olingan: atrof-muhitni hozirgi va bo'lajak avlodlar manfaatlarini qondirish uchun muhofaza qilish va yaxshilash; davlatlarni o'z tabiiy resurslariga suverineteti; milliy yurisdiksiya chegarasidan tashqarida atrof-muhitga zarar yetkazmaslik; bunday zarar uchun xalqaro javobgarlik; xalqaro tabiatni muhofaza qilish hamkorligi; atrof-muhitga zarar etkazishni oldini olish.

Ushbu deklaratsiya va konferensiyaga mohiyat jihatidan nazar tashlansa, keyingi xalqaro xujjatlarda yanada tokomillashtirilgan barqaror rivojlanish konsepsiyasiga asos solingan.

Barqaror rivojlanish konsepsiyasini ishlab chiqish uchun atrof-muhit va rivojlanish bo'yicha Xalqaro komissiya faoliyati muhim rol o'ynaydi. Komissiya ishi, xususan atrof-muhit muhofazasi sifatida, 2000 yil va undan uzoq davrda barqaror rivojlanishga imkon beruvchi uzoq muddatli strategiyalar ishlab chiqish masalalarini hal qilishga hamda u yordamida jahon hamjamiyati atrof-muhit

muammosini samaraliroq hal qilishga erishish mumkin bo'lgan usullar va vositalarni aniqlashga qaratilgan. Komissiya ishi natijasida barqaror rivojlanishga markaziy masala sifatida qaragan 1987 yildagi BMT Bosh Assambleyasiga taqdim qilingan "Bizning umumiy kelajagimiz" ma'ruzasi bo'ldi.

Atrof-muhit va rivojlanish bo'yicha Xalqaro komissiya ishlab chiqqan, barqaror rivojlanishga taalluqli Stokgolm konferensiyasi prinsiplari va nizom atrof-muhit va rivojlanish bo'yicha global jihatdan atrof-muhit muhofazasi muammolarini hal qilishga yo'naltirilgan 1992 yil Rio-de-Janeyroda BMT konferensiyasida ma'qullanib rivojlantirildi. Konferensiyada qator muhim xujjatlar qabul qilindi. Ular orasida "atrof-muhit va rivojlanish bo'yicha deklaratsiya", "Barcha turdagi o'rmonlarni boshqarish, asrash va barqaror rivojlantirish bo'yicha global konsensus prinsiplari bo'yicha bayonot" hamda "XXI asr uchun kun tartibi" bor.

1972 yil ayniqsa, 1992 yil atrof-muhit masalalari bo'yicha BMT konferensiyasida qabul qilingan xujjatlar xalqaro huquqni tavsiya toifasiga qarashlilikiga qaramasdan, juda ahamiyatlidir. Ushbu xujjatlar o'zida "atrof-muhit muhofazasi bo'yicha jahon hamjamiyati yoki alohida davlatlar xulq-atvori prinsiplarini" mujassamlashtiradi. Shunisi qadrliki bu xujjatlar davlatlarning tabiatni muhofaza qilish faoliyatini eng muhim yo'nalishlarini rivojlantirish, insonni ekologik-huquqiy makonini aniqlash uchun mo'ljal rolini o'ynaydi. Rio deklaratsiyasida mustahkamlab qo'yilgan prinsiplar barqaror rivojlanish konsepsiyasining mohiyatini tashkil qiladi. Ular global hamkorlik, barchaning manfaatlarini, xurmatini ta'minlovchi xalqaro bitimlar tuzish va atrof-muhitni muhofaza qilish va rivojlantirishning global tizimi yahlitligini himoya qilishni ta'minlovchi yangi mexanizm barpo qilishga qaratilgan. Ulardan eng muhimlari quyidagilar:

- davlatlarni o'z tabiiy resurslariga, milliy yurisdiksiya chegerasidan tashqarida atrof-muhitga zarar yetkazmaslik prinsiplariga rioya qilgan holda, suvereniteti;

- rivojlanishga huquqni ajralmas tashkil qiluvchilari sifatida rivojlanish va atrof-muhit sohasida hozirgi va bo'lajak avlod ehtiyojlarini qondirish;

- ekologik masalalarni barcha manfaatdor fuqarolar ishtirokida ko'rib chiqish va har bir insonni atrof-muhitga taalluqli axborot olishiga imkon yaratish, bunday axborotni aholiga keng miqyosda taqdim qilish;

- qashshoqlikka barham berishga qaratilgan barqaror rivojlanish xujjatida xalqaro tabiatni muhofaza qilish, atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida umumiy burch va majburiyatlarini tan olish, ilmiy potensialni o'stirish, qulay va ochiq xalqaro iqtisodiy tizimni barpo qilish, ekologik havfli va zararli faoliyat va moddalarni ko'chib yurishi va uzatishga qarshi turish va to'siq bo'lish;

- atrof-muhit muhofazasi sohasida samarali qonunchilik aktlarini qabul qilish.

Yuqorida keltirilgan va boshqa prinsiplar huquqiy va o'zga vositalar bilan jahon hamjamiyati va alohida davlatlar tomonidan barqaror rivojlantirishni ta'minlash uchun asos soldi. Bunday rivojlanish asosini jamiyatni iqtisodiy, ekologik, sotsial manfaatlari o'rtasida muvozanatga erishish tashkil qiladi. Ekologik-huquqiy adabiyot manbaalarida to'g'ri ta'kidlanganidek barqaror rivojlanish konsepsiyasida sotsial-iqtisodiy tashkil qiluvchilar bilan bir qatorda ekologik unsur kattagina o'rin egallaydi. Masalani mazmun-mohiyatiga ko'ra iqtisodiy va sotsial rivojlantirishni, atrof-muhitni qulay holatini saqlash va tiklash to'g'risida gap boradi. Barqaror rivojlantirish - ekologik asoslangan iqtisodiy va sotsial rivojlanishdir. Globallashuv sharoitida ekologik-qonunchilikni rivojlantirish uchun barqaror rivojlantirishni yana ikki jihati ahamiyatga ega. Birinchidan, uzoq istiqbolga mo'ljallangan barqaror rivojlanish konsepsiyasi hozirgi va bo'lajak avlod ekologik mafaatlarini tengligi g'oyasiga asoslangan. Ikkinchidan, huquqiy me'yorlarda mustahkamlab qo'yilgan barqaror rivojlantirish modeli hozirgi zamon jamiyati va davlatini, bo'lajak avlodlarni tabiat bilan o'zaro harakat jarayonida turli-tuman ehtiyojlarini (fiziologik, iqtisodiy, ma'naviy va boshqalar) qondirishga sharoit yaratish uchun sotsial mas'uliyatini tartibga solish shaklidir.

Fundamental ahamiyatga ega bo'lgan barqaror rivojlanish konsepsiyasini shakllantirish va amalga oshirish ancha-muncha qiyinchiliklarsiz yuz bermaydi. Biroq jahon hamjamiyati uni ijobiy va istiqbolli ahamiyatini anglagan holda, ushbu konsepsiya va uni ta'minlovchi mexanizmlarini izchillik bilan rivojlantirish va takomillashtirish chora-tadbirlarini belgilaydi. Masalan, barqaror rivojlanish muammolari 1999 yilda Davosda iqtisodiy forumda muhokama qilinib, hamda barqaror rivojlantirish bo'yicha Umumjahon sammitida ko'rib chiqildi (Yoxannesburg, JAR, 2002 yil). Atrof-muhit muhofazasi va barqaror rivojlanishni ta'minlashga Vazirlarning beshinchi "Yevropa uchun atrof-muhit" (Kiyev, 2003 yil) mavzusidagi konferensiyasi katta xissa qo'shdi.

Bu va boshqa forumlarda barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish uzluksiz globallashtirish jarayoni bilan bog'liq va jahon hamjamiyatini muvofiqlashtirilgan harakatini talab qiladi. Xalqaro harakat va urinishlar bilan ishlab chiqilgan barqaror rivojlanish nizomlari globallashtirish sharoitida, jamiyatni atrof-muhit bilan birlikda rivojlantirishni ta'minlashda kelib chiqayotgan muammolarni hal qilishga yo'naltirilgan. Gap mavjud bo'lgan qarama-qarshiliklarni aniqlash, barqaror rivojlanish konsepsiyasini amalga oshirish mexanizmlarini qonun jihatidan mustahkamlashni o'z ichiga olgan holda, ularni hal qilishning ehtimolli yo'llarini aniqlash va ushbu jarayonlarni global boshqaruvidadir.

Bu vazifalar O'zbekiston uchun ham yo'nalishni aniqlashga xizmat qiladi. Xalqaro hamkorlikda faol qatnashayotgan O'zbekiston oldida davlat darajasida, birinchi navbatda, xalqaro hamjamiyat ishlab chiqqan prinsiplar va barqaror rivojlanish nizomlarini ta'minlashga qaratilgan huquqiy jihatdan samarali tadbirlar qabul qilish zarurligi kelib chiqadi. Shu munosabat bilan O'zbekiston va uni mintaqalarini barqaror rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan O'zbekiston qonunchiligi katta ahamiyatga ega.

Albatta, barqaror rivojlanish konsepsiyasi bu darajada keng tarqalmagan bo'lar edi, ham an'anaviy iqtisodiy fanlar, ham jamiyat negizida tegishli shart-sharoit bo'lmaganda. Dunyoda XX asr o'rtalarida ro'y bergan ulkan o'zgarishlar barqaror rivojlantirish konsepsiyasiga asosiy shart-sharoit bo'lib xizmat qildi.

Agar avval iqtisodiy o'sish sahnasi bo'lib bir nechta Yevropa va Shimoliy Amerika mamlakatlari xizmat qilgan bo'lsa, endilikda yagona prinsipga asoslangan jahon xo'jaligiga deyarli butun dunyo jalb qilingan.

Rivojlanayotgan mamlakatlar 1950-1960 yillarda qo'llagan rivojlanish modeli iqtisodiy samaradorlikka erishishga yo'naltirilgan. Faqatgina iqtisodiy tizim samaradorligi yalpi gullab-yashnashga yo'l ochishga qodir va alohida olingan mamlakatlar hamda jahon ko'lamida tengsizlikka barham berishga qodir deb hisoblanilgan. Biroq sanoat jihatidan rivojlangan mamlakatlarning tabiiy resurslarni haddan tashqari yuqori xarajatlariga asoslangan iqtisodiy tizimini past samaradorligi bir necha bor ko'rsatib o'tilgan.

1970 yillar boshida rivojlanayotgan mamlakatlarda aholini kambag'al qatlamlarini o'sishi va iqtisodiy o'sishda afzallikni yo'qligi, daromadni taqsimlash bilan vaziyatni bevosita to'g'rilashga urinishni ortishiga olib keldi. Ravshan bo'lib qoldiki, vaziyatni o'nglashning yagona yo'li bu keng ko'lamda va dunyo darajasida muvofiqlashtirilib, puxta o'ylab amalga oshirilgan aniq harakat bo'lishi mumkin.

Rivojlanish paradigmasi yaqqol ko'rinishda sotsial maqsadlarni (ayniqsa, aholini kambag'al qatlamlarini qisqartirish) hisobga olgan muvozanatlashgan o'sish tomoniga siljidi va ularga iqtisodiy samaradorlikka qanday ahamiyat berilgan bo'lsa, shunday ahamiyat berildi.

Rivojlanishni uchinchi asosiy vazifasi atrof-muhit muhofazasi masalasi bo'ldi. 1980 yillar boshlariga atrof-muhit degradatsiyasi iqtisodiy rivojlanish uchun jiddiy to'siqligi to'g'risida guvohlik beruvchi katta miqdordagi axborot to'planganligi bo'ldi. Ko'rsatib o'tildiki, ekologik muammolarga kechiktirib bo'lmaydigan muhimroq bo'lib ko'ringan iqtisodiy vazifalarni hal qilish zarurligi tufayli ko'z yumishni oqlab bo'lmaydi. Shunday qilib, barqaror rivojlanish konsepsiyasi asosiy uch nuqtai-nazarni, ya'ni iqtisodiy, sotsial va ekologik omillarni birlashtirish natijasida paydo bo'ldi. Shunga muvofiq ko'pincha ekologik yahtitlik, ekosamaradorlik va ekoadolatdan iborat bo'lgan uch maqsad to'g'risida so'z yuritish maqsadga muvofiq.

Iqtisodiy nuqtai-nazardan barqaror rivojlanish konsepsiyasi daromadni aniqlashda D.J.Xiks bergan tushunchaga asoslanadi, u ham bo'lsa "Amaliy hayotda daromad darajasini aniqlash odamlarga o'zini kambag'alroq qilmasdan qancha iste'mol qilishlarini ko'rsatib berish maqsadini ko'zlaydi". Bu daromadni aniqlashning aniqlik kirituvchi izchil qadamlari tarkibida Xiks tomonidan qilingan quyidagi eng samarali bo'lgan barqaror rivojlanish konsepsiyasiga muvofiq keladi. "Individ daromadi -hafta davomida u iste'mol qilishi mumkin bo'lgan va bunda har holda hafta oxirida uni ahvoli hafta boshida qanday bo'lgan bo'lsa, shunday bo'ladi".

Resurs imkoniyatlari bilan taqqoslanmagan iqtisodiy o'sish istiqbolsiz ekanligini anglashdan keyin barqaror rivojlanish konsepsiyasi mualliflariga bir qadam qo'yish kerak edi xolos va shu qadam amalga oshirildi. Xiks tushunchasidan barqaror rivojlanish konsepsiyasi uchun bevosita muhim ahamiyat kelib chiqadi, u ham bo'lsa, tabiiy resurslardan iqtisodiy optimal foydalanish. Resurslarni cheklanganligi allaqachon fundamental iqtisodiy voqelik sifatida anglab bo'lingan.

### **2.3. O'zbekiston mintaqalarida suv resurslari shakllanishining asosiy tendensiyalari**

Markaziy Osiyoda yuqori minerallashgan suvlar har joyda uchraydi va ayniqsa daryoni quyi oqimida ko'p uchraydi. Sababi daryolarni quyi oqimiga yuqori turgan sug'oriladigan erlardan drenaj suvlari tashlanadi. Sirdaryo va Amudaryoning quyi oqimida suvlarni minerallashganligi 1,5-2,0 g/l. Bu muammoga sabab azaldan O'rta Osiyo daryolari vodiylarida drenaj-tashlanma oqimlarini qabul qiluvchilar bo'lib, odatda, daryolarning o'zlari xizmat qilganligidir.

Markaziy Osiyo mintaqasi asosiy suv resurslari Amudaryo va Sirdaryoning irmoqlari bilan birga oqimlardan shakllanadi. Har bir qurilayotgan havzada yer usti suvi oqimini hisobga olinmagan unsurlari bo'lib ular ko'p sonli, lekin vaqtinchalik oqib keladigan suv tashlanmalari, tog' va tog'oldi viloyatlaridan sizot suvlarini

kelishi hamda gidrometrik usullar bilan hisobga olinmaydigan atmosfera infiltratsiya hisobiga tashkil bo'ladi.

Daryo oqimi anchagina yil davomida va ko'p yillik notekislik bilan xarakterlanadi. Yil davomidagi tebranishlar daryolar oziqlanishi xarakteriga bog'liq. Yirik daryolarda suv shakllanishida baland tog'lar qori va muzliklarning roli katta. Ularni pastki qatlamdan suv oladigan irmoqlarida qor-yomg'irdan oziqlanish ustun. Oqimni ko'p yillik tebranishi iqlimni siklik o'zgarishi bilan bog'liq. Daryo oqimini variatsiyasi koeffitsientining tebranishi anchaginadir (0,12 dan 0,32 gacha). Daryolarni yer usti oqimi tebranishi yildan-yilga katta ko'rsatkichni tashkil qiladi: suv kam bo'lgan yili (90 foiz ta'minot) oqim suv o'rtacha bo'lgan yilga qaraganda 20 km ga kam. Kam suv ko'p bo'lgan yillar guruhi 6-10 yildan keyin sodir bo'ladi, 2-3 yil davom etadi. Suv ko'p bo'lgan yillar 4-7 yildan keyin ro'y berib ancha muddat davom etadi (6 yilgacha). Sikllarda yillik oqim tebranishi ancha yuqoridir. Masalan, Amudaryoning oqimi suv kam bo'lgan 8-yillik siklida (1960/61-1967/68 y.) me'yorni 90% ni tashkil qilgan, suv ko'p bo'lgan ikki yillik siklda esa (1968/69-1969/70 y.) o'rtacha ko'p yillik ko'rsatkichdan 30 foizga ko'p. Kam suvlik davrida (1962-1966 y) Qoradaryo oqimi, ya'ni 5 yilda ko'p yillik o'rtacha ko'rsatkichni 73 foizini tashkil qilgan, ikki ko'p suv bo'lgan yilda (1979,1980 yil) me'yordan 22 foizga ortiq bo'lgan.

Daryolarni suv kam bo'lishini uzoq muddatlari bilan oqimida tebranishlar siklliligi suv manbalaridan xo'jalik maqsadlarida foydalanishni murakkablashtiradi va oqimni tartibga solish zarurligini oldindan belgilab beradi.

Amudaryo havzasida 90 foizli kafolat bilan 60 km oqimni mavsumiy tartibga solish mumkin.

Sirdaryo havzasida qator suv omborlari (To'xtagul, Qayroqqum, Andijon, Chorvoq, Chordara) daryo oqimini to'la (93 foiz) tartibga solish imkoniyatini beradi, ya'ni daryoning ko'p yillik oqimini deyarli to'liq tartibga solish amalga oshiriladi, biroq 1991-yildan beri yuqorida joylashgan, eng sig'imi katta To'xtagul suv ombori energetika rejimida ishlamoqda. Shu sababli vegetatsiya bo'lmagan davrda suv chiqarishni keskin ko'paytirdi (8km gacha) va vegetatsiya davrida buni



qisqartirdi (suv kam yillari 2 km gacha). To'xtagul suv omborini daryoning o'rta va yuqori oqimlarida irrigatsiya yo'nalishidagi suv iste'molchilarini talablarini qondirish darajasini kamaytiradi.

Havza daryolarining oqimiga, yuqorida nomi zikr qilingan va ularni gidrokimyo rejimida sug'orishga suvni olish va qaytarma suvlarni kelib tushishi ta'sir qiladi. Ushbu omillar ta'sirida yer usti oqimi anchagina o'zgarishlarga duchor bo'ladi. Daryolardan irrigatsiya kanallariga suv olishni ortishi va kanal o'zanlaridan yo'qotish oqimni miqdor jihatidan kamaytiradi, kollektor-drenaj suvlarini tashlash esa ularni tabiiy rejimini va sifatini yomonlashtiradi.

Keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, daryolardan qaytarishsiz suv olish 60-inchi yillar boshidan ikki barobar, hozirgi darajada 30-40 yillarga qaraganda 4 barobar ko'paygan.

Sirdaryo va Amudaryoning asosiy bo'g'inlarida antropogen omillar ta'sirida 1932-1998 yillar davomida oqimni kamayishini juda yaxshi ifodalaydi. Daryo suv oqimini minerallashtirish rejimi tabiiy va antropogen omillar bilan belgilanadi.

Daryolar yuqorisida oqimni shakllanish zonasida mineraldashganlik rejimiga ta'sir etuvchi asosiy omillar - yilni suvliligi, davr, suv olish manbasi, suv yig'ish havzasining yuqorisini suv sug'orish litologik tarkibi va boshqalardir. Quyi oqimda, undan intensiv foydalanish zonasida antropogen bosim ta'siri ostida daryolarning gidrokimyo rejimi (daryolardan suv olish, minerallashtirish suvlarini tashlash) daryolar gidrokimyo rejimi transformatsiyaga uchraydi, gidrokimyo rejimini o'zgarishi oqim shakllanish zonasidan uzoqlashgan sari ortib boradi. Amudaryo va Sirdaryo havzalari asosiy bo'g'inlarida minerallashtirish ko'rsatkichlari keltirilgan.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlar Markaziy Osiyo Respublikalarida suv resurslaridan foydalanishda qaytarishsiz suv iste'mol qilishni ortib borishi va manbalarni drenaj - tashlanma suvlari bilan ifloslanishi hamda daryolar oqimini mavsumiy va ko'p yillik tartibga solish imkoniyatlarini qisman yo'qotish tufayli inqirozli voqelikni kuchayib borishi to'g'risida guvohlik beradi.

Vegetatsiya davrlarida sug'orishga yaxshi sifatli suv taqchilligi mavjud hududlarda sug'orishga drenaj-tashlanma suvlarini 3-5 g/l gacha minerallashganlari ishlatiladi.

2.2.1-jadval<sup>13</sup>

### O'zbekistonda qaytarma suvlarni hajmi va sifati

Daryo xavzasi	Hajm, mln. m <sup>3</sup>			Daryo oqimi bo'yicha holat	Sifat		
	Qaytarila - digan oqim	Kontur ichida foydalanish			Drenaj suvlarini minerallashganligi g/l		SAR ko'rsatkichi
		Haqi-qatda	Oqimdan o'zgarishsiz foydalanish				
Sirdaryo	15503,0	885,0	6227,4	Yuqori oqim	0,90-2,42 <sup>16</sup>	1,04-4,11 <sup>17</sup>	0,82-2,8 <sup>3</sup>
Amudaryo	22499,5	1751,9	2869,8	O'rta oqim	3,4-8,45	2,00-15,00	2,20-18,20
				Yuqori oqim	1,55-2,36	0,30-13,82	0,67-20,9
				O'rta oqim	3,11-8,10	2,06-15,26	3,60-18,04
				Quyi oqim	2,02-4,34	3,39-12,80	5,39-24,70
Hammasi	38002,5	2600,9	9097,2		0,90-8,10	0,30-15,26	0,67-20,94

Sug'orish yoki sho'r yuvish uchun minerallashgan suvlardan foydalanish imkoniyatlari tuproqni nafaqat fizik-kimyoviy xususiyatlari, balki suvlarni kimyoviy tarkibi bo'yicha sifati bilan ham belgilanadi.

Suvni sug'orishga yaroqliligiga baho berishga minerallashganlik va sug'orish suvini kimyoviy tarkibi, suv-fizik xususiyatlari, tuproqlarni granulometrik tarkibi va sho'rliigi, yerlarni tabiiy va sun'iy drenlashganligi, umumiy iqlimiy sharoitlari, sizot suvlarini joylashganlik sharoitlari va kimyoviy tarkibi, sug'orish me'yorlari, rejim va usullari, agrotexnika va qishloq xo'jalik ekinlari xususiyatlari ta'sir qiladi.

Suvni kimyoviy tarkibi ma'lumotlarini (Sirdaryo va Amudaryo havzalarida joylashgan 10 dan ortiq ob'ektlar bo'yicha) 357 ta proba (namuna) olish minerallashganlikni 0,215 dan 70 g/l gacha bo'lgan oraliqda ko'rsatdi. Suvni 0,3 dan 6,0 g/l gacha oraliqda minerallashganligida SAR 9 dan ortiq bo'lmaydi. Bunda sho'rlanish havfsizligi bo'yicha o'rta havfli daraja. Aniqlanganki, sho'rlashish

<sup>13</sup> Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo'mitasi ma'lumotlari.

havfi bo'yicha kimyoviy tarkibni ta'siri nuqtai-nazaridan suvni 2 g/l gacha va tuproq eritmalarini 4 g/l gacha minerallashtirilganligida SAR 3 ga teng, havfli emas, 6 g/l gacha suvlar va 9 g/l gacha minerallashtirilgan tuproq eritmaları o'rtacha havfli (SAR9). Suv va tuproq eritmalarida tuzlarni yuqoriroq darajasida to'planuvda sho'rlashish havfi bor, chunki SAR, odatda, 9 dan ortiq bo'ladi. Tuproqni filtratsiya xususiyatlariga ta'siri bo'yicha barcha o'rganilgan suvlar deyarli havfli emas, chunki odatda sug'orishga suvlar 0,5-2 g/l dan ortiq bo'lmagan minerallashtiruvda ishlatiladi.

Sug'oriladigan tuproqlar uchun tuzlarni tuproq eritmalarida 3-5 g/l bo'lishi optimal to'planuvlar, 6 g/l da o'simliklar o'sishiga zaif darajada zarar etadi, 10-12 g/l kuchli zarar, 25 g/l da esa o'simlik halok bo'ladi.

### **III-BOB. XORAZM VILOYATI IQTISODIYOTINING EKOLOGIYALASHTIRISH USTUVOR YO'NALISHLARI**

#### **3.1. Xorazm viloyatining ekologik-iqtisodiy rivojlanish holati**

Xorazm viloyati O'zbekiston Respublikasining shimoliy - g'arbida joylashgan bo'lib, umumiy yer maydoni 6 300 kvadrat kilometrni tashkil etadi. Iqlimi jihatidan kontinentalen, ya'ni qish fasli nisbatan sovuqroq va yoz oylari quruq issiq bo'lishi bilan ajralib turadi. Viloyatda 1650 mingdan ko'proq aholi istiqomat qilib, ularning aksariyati (67%) qishloq tumanlarida yashab, mehnat qilishadi. Aholining milliy tarkibida o'zbeklar – 97,2%, qoraqalpoqlar – 0,15%, qozoqlar – 0,75%, turkmanlar – 0,5%, ruslar – 0,4%, koreyslar – 0,2%, tatarlar – 0,3% va boshqa millat vakillari - 0,5% ni tashkil qiladi.

Viloyatda 10 ta ma'muriy hududlar mavjud bo'lib, viloyat markazi Urganch shahrida 137,4 ming kishi istiqomat qiladi. Boshqa yirik shahri - Xiva bo'lib, tarixiy obidalarga boy, turistik markaz hisoblanadi. Mintaqa Turkmaniston davlati, Qoraqalpog'iston Respublikasi va Buxoro viloyatlari bilan chegaradoshdir. Uning hududidan xalqaro ahamiyatga ega magistral temir yo'llari va avtomobil yo'llarining o'tganligi ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Viloyat iqtisodining asosini qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish, paxtani qayta ishlash va oziq-ovqat sanoati tashkil etadi. Bundan tashqari qurilish materiallari ishlab chiqarish sanoati tez sur'atlarda rivojlanib borayotgan tarmoqlar jumlasiga kiradi, yengil sanoatning asosini mavjud paxta tozalash zavodlari, paxta va ipak tolalari yigiruvchi fabrikalar tashkil qiladi. Bundan tashqari gilam to'qish viloyat sanoatining o'ziga xos jihatini belgilaydi. Viloyat iqtisodida ongi shakllanib borayotgan tarmoqlardan biri bu mashinasozlik sanoati bo'lib, Xazorasp tumanining Pitnak shahrida mavjud ishga tushirilmagan inshootlar negizida DAMAS rusumli mashinalarni yig'ishga mo'ljallangan liniyaning ishga tushirilishi viloyatda mashinasozlik sanoatini rivojlantirishga katta turtki berdi. Oziq ovqat sanoatida hozircha respublikada yagona Xazorasp shahar zavodi faoliyat olib

borayapti. Bundan tashqari ko'plab non mahsulotlari, qandolat, sut va go'sht mahsulotlari ishlab chiqaruvchi tarmoqlar tez sur'atlarda rivojlanib bormoqda.

Keyingi yillarda viloyatda paxta xom ashyosini qayta ishlash, ipak tolasiga ishlov berish va boshqa mahalliy xom ashyo resurslaridan samarali foydalanish bo'yicha ishlab chiqarish quvvatlarini rekonstruksiya qilish, texnik modernizatsiyalashtirish va kengaytirish ishlari olib borilmoqda. Paxta tolasini qayta ishlash siklini uzaytirish va undan eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarish borasida bir qancha loyihalar amalga oshirilmoqda. Oziq ovqat sanoati korxonalarini texnologik yangilash va yangi quvvatlarni ishga tushirish evaziga meva, uzum, sabzavot va poliz mahsulotlarini qayta ishlash va saqlash imkoniyatlar kengaymoqda.

Sanoatni tez sur'atlarda rivojlanib borayotganligiga qaramasdan qishloq xo'jaligi viloyat iqtisodiyotida katta o'rinni egallab turibdi. Ushbu sohada paxtachilik va g'alla yetishtirish eng asosiy yo'nalish bo'lib, bundan tashqari viloyat respublika aholisini guruch bilan ta'minlaydigan mintaqa hisoblanadi. Bundan tashqari viloyat hududlarida ko'plab bog' va uzumzorlar, qovun va qovoq yetishtirish plantatsiyalari mavjud, kartoshka yetishtirish esa barcha hududlar uchun xos ekin turiga aylangan.

Mintaqaning yalpi hududiy mahsuloti (YaHM) mamlakat yalpi ichki mahsulotining 5,5 foizini (3.1.1-jadval), aholi jon boshiga hisoblaganda esa o'rtacha mamlakat darajasining 67,8 foizini tashkil qiladi. YaHM tarkibida keyingi yillarda agrar sektor ulushining qisqarishi, ayni vaqtda sanoat va xizmat ko'rsatish sohalarning ulushi ko'payishiga erishildi. Lekin jami xizmatlarning YaHM dagi ulushi 43,1 foiz bo'lgani holda, mamlakat o'rtacha ko'rsatkichidan (52%) past darajada qolmoqda.

Sanoat ishlab chiqarish hajmining keyingi yillarda sezilarli ortganligiga qaramasdan, Xorazm viloyati mamlakat sanoatining hududiy tarkibida oxirgi o'rinlardan birini egallab kelmoqda. Bu borada keyingi yillarda erishilgan ijobiy o'zgarishlar asosan yengil va oziq ovqat sanoatini rivojlantirishga qaratilgan investitsion loyihalar hisobiga amalga oshirilmoqda. Bu borada mahalliy

ahamiyatga ega bo'lgan loyihalarni o'zlashtirish alohida o'rin tutadi. Shunga qaramasdan sanoat mahsulotlarining aholi jon boshiga nisbatan to'g'ri kelishi mamlakat darajasidan deyarli 3,3 barobar past.

Viloyatning respublika yalpi qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishidagi ulushi - 10 foizni tashkil etadi. Aholining 34,3 foizga yaqini agrar sektorda band (dehqon xo'jaliklaridagi bandlar bilan birga). Ayni paytda mintaqa suv resurslarining 97 foizi qishloq xo'jaligida sug'oriladigan ekin turlari yetishtirishda ishlatiladi. Jami ekin maydonlari sho'rlangan bo'lib, shundan 50 foizdan ortig'ini o'rta va kuchli sho'rlangan yerlar tashkil etadi.

3.1.1 -jadval<sup>14</sup>

**Xorazm viloyatining O'zbekiston  
ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi o'rni, %**

<b>Ko'rsatkichlar</b>	<b>2000 y.</b>	<b>2010 y.</b>	<b>2014 y.</b>	<b>Mamlakatimizda tutgan o'rni (2014 yilda)</b>
Aholi	5,4	5,6	5,5	11
Yalpi hududiy mahsulot	4,4	3,1	3,1	11
Sanoat mahsulotlari	2,6	1,4	1,7	12
Iste'mol tovarlari	4,3	2,4	2,4	9
Qishloq xo'jaligi mahsulotlari	6,6	6,2	6,0	10
Asosiy kapitalga investitsiyalar	3,5	2,5	3,9	11
Chet el investitsiyalari			1,1	13
Qurilish ishlari	6,6	3,3	4,8	13
Chakana savdo aylanmasi	3,6	4,3	4,2	10
Pullik xizmatlar	3,8	3,9	4,0	10
Bozor xizmatlari		2,7	3,2	11
Tashqi savdo aylanmasi	1,3	0,8	0,8	13
sh.j.				
Eksport	2,0	1,1	1,0	12
Import	0,5	0,4	0,7	14

Xorazm viloyati investitsion faollik darajasiga ko'ra mamlakat hududlari ichida 11 o'rinda turadi. Milliy iqtisodiyotga jalb etilgan asosiy kapitalga

<sup>14</sup> Manba: Xorazm viloyati Statistika Boshqarmasi ma'lumotlari. 2015y.

investitsiyalarning 3,9 foizi, chet el investitsiyalarining 1,1 foizi mintaqaga to'g'ri keladi. Bu ko'rsatkichlar asosini mashinasozlikni rivojlantirishga yo'naltirilgan markazlashgan investitsiyalar hamda yengil va oziq ovqat sanoatiga oid mahalliy loyihalar tashkil etadi.

Mintaqa jami xizmatlar hajmi bo'yicha, aholi jon boshiga hisoblaganda, respublikada 11 o'rinni egallaydi. Bu ko'rsatkich o'rtacha mamlakat darajasining 3,2 foizini tashkil etadi va viloyat xizmatlar sohasi o'rta rivojlangan hududlar qatoriga kiradi. Moliya xizmatlari aholi jon boshiga hisoblaganda, o'rtacha mamlakat ko'rsatkichining 61,8 foizini, turistik xizmatlar – 67,4 foizini, savdo va umumiy ovqatlanish – 65,0 foizini, maishiy xizmatlar – 81,6 foizini va boshqa xizmatlar – 50,5 foizini tashkil etadi.

Eksport salohiyati jihatidan mintaqa mamlakatimizning boshqa hududlariga nisbatan quyi o'rinlarni egallaydi. Eksport salmog'ining aksariyat qismini paxta tolasi tashkil qiladi. Mintaqa eksportining mamlakat eksporti hajmidagi ulushi 2000-2013 yillar mobaynida 2,1 foizdan 1,0 foizga kamaygani holda, import salmog'i 0,8 foizdan 0,7 foizga kamaygan.

Umuman olganda, Xorazm viloyati industrial jihatdan sust rivojlanayotgan hududlar toifasiga kiradi. Mintaqaning tabiiy xom ashyo bazasi rivojlanmaganligini hisobga olinsa iqtisodiy salohiyatni oshirishda asosiy omil bu – tadbirkorlik va mahalliy tashabbuskorlik ekanligi yaqqol ko'zga tashlanadi. Viloyat aholisida yangiliklarga intilish ishtiyoqi ancha yuqori. Bundan tashqari mahalliy aholi tadbirkorlikning kosibchilik, duradgorlik, xunarmandchilik, me'morchilik va quruvchilik yo'nalishlarida qadimiy an'analarga ega ekanligi bilan ajralib turadi.

Xorazm viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy holatiga ta'sir etuvchi tashqi omillar sifatida chegaradosh hududlardagi ijtimoiy va iqtisodiy vaziyat, qo'shni mintaqalarning tabiiy va iqtisodiy salohiyati va ularning viloyat iqtisodiyotiga ta'siri, shuningdek, tabiat va iqlim o'zgarishlari hamda maqroiqtisodiy jarayonlarni qarash mumkin.

Xorazm viloyatiga chegaradosh hududlar Qoraqalpog'iston Respublikasi, va Buxoro viloyati bo'lib, ushbu hududlar o'zaro xalqaro ahamiyatga ega magistral temir yo'llari va avtomobil yo'llari orqali tutashgan. Iqtisodiy salohiyati jihatidan mintaqa qo'shni Buxoro viloyatlaridan sezilarli darajada pastdir. Bu holat yirik sanoat loyihalarini viloyatga jalb etish borasida ma'lum darajada raqobat muhitini keltirib chiqaradi. Buxoro viloyatining sanoati rivojlangan hududlari bilan iqtisodiy aloqalarni o'rnatish yengil va oziq ovqat sanoatida mavjud xom ashyo bazasidan hamkorlikda foydalanish borasida hududlararo loyihalarni amalga oshirish, sanoatda qayta ishlash jarayonida bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lgan tarmoqlarni rivojlantirish imkonini kengaytiradi. Ikkinchi tomondan Qoraqalpog'iston Respublikasiga nisbatan mintaqada tadbirkorlik va mahalliy tashabbuskorlikning yuqoriligi qo'shni hududning boy tabiiy resurslaridan foydalanishda integratsion aloqalarni o'rnatish, mintaqalararo loyihalarni birgalikda amalga oshirish imkononini beradi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Xorazm viloyatiga nafaqat jo'g'rofiy jihatdan, balki yer va suv resurslari, iqlim sharoiti va ekologik ta'sirlar oqibatiga ko'ra ham eng yaqin hudud hisoblanadi. Lekin qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtirish va tadbirkorlik an'analari ko'ra viloyat shimoliy hududga nisbatan muayyan ustunliklarga ega. Ushbu viloyatning aynan mana shu jihatlaridan mintaqaning iqtisodiy manfaatlari va muammolarini yechishda omilkorlik bilan foydalanish mumkin.

Mintaqaning jo'g'rofiy joylashishining yana bir muhim jihati bu – tabiiy resurslarga boy, ulkan sanoat salohiyatiga bo'lgan Navoiy viloyatiga yaqinligidir. Lekin viloyat mana shunday geoiqtisodiy qulaylikdan o'z iqtisodini rivojlantirishda deyarlik foydalanmasdan kelayapti. Ushbu viloyatlar o'rtasida o'zaro iqtisodiy aloqalar o'rnatilmaganligi natijasida Navoiy sanoat kompleksi uchun zarur ko'plab autsorsing xizmatlari Toshkent shahri, Toshkent viloyati va boshqa bir qancha viloyatlar tashkilotlari tomonidan amalga oshirilayapti.

Makroiqtisodiy omillarning Xorazm viloyatining iqtisodiy holatiga ta'sirini eng avvalo, inflyatsion jarayonlarning va chetdan investitsiyalar kirib kelish



hajmining o'zgarishi, mintaqadan eksport qilinayotgan mahsulotlarga talabning ortishi yoki kamayishi bilan izohlanish mumkin. So'nggi bo'lib o'tgan jahon moliyaviy va iqtisodiy bo'hronining salbiy asoratlari ma'lum darajada viloyat iqtisodiyotining kon'yunkturasi, eksport-import faoliyatining sharoitlari va sur'atining o'zgarishiga, viloyat iqtisodiyotining barqarorligiga muayyan darajada o'z ta'sirini ko'rsatganligini anglash mumkin. Shu ma'noda ushbu jarayonlar viloyat iqtisodiyotiga bilvosita omillar orqali ham ta'sir etishi mumkin. Masalan mintaqada mashinasozlikning rivoj topayotganligi chetga mashinalar eksportida bo'ladigan o'zgarishlar orqali mahalliy aholining pul daromadlariga tasir etishi, yoki bo'lmasa Rossiya Federatsiyasi va Ukraina davlatlari iqtisodidagi o'zgarishlarning chetdan kelayotgan pul o'tkazmalari oqimiga ta'sirida kuzatish mumkin. Mintaqada aholi pul daromadlari va jamg'armalarining o'zgarishi investitsiyalarning o'sishiga multiplikativ ta'sir ko'rsatishini hisobga oladigan bo'lsak, bu juda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xorazm viloyatidan mamlakatni Rossiya, Qozog'iston va Yevropa davlatlari bilan bog'lovchi xalqaro temiryo'l va magistral avtomobil yo'llari o'tgan. Transport koridorlari, birinchi navbatda, temir yo'l tizimi bilan bog'liq holda qishloq tumanlarining iqtisodiy salohiyatini oshirish, yangi sanoat ishlab chiqarishini yo'lga quyish imkoniyatlari kengaymoqda. Bunday qulayliklar Xazorasp, Shovot, Xonqa va Urganch tumanlarida mavjud.

Xorazm viloyati Orol dengizi qurishi bilan bog'liq bo'lgan murakkab ekologik hududga aylanib bormoqda. Ushbu jarayonni global darajada iqlim o'zgarishlari bilan birgalikda mintaqa uchun (xuddi Qoraqalpog'iston Respublikasi singari deyarlik bir xil) bir qancha salbiy holatlar yuzaga chiqayotganligida ko'rishimiz mumkin. Havo haroratining borgan sari ortib borishi va namgarchilikning kamayishi mintaqa qishloq xo'jaligini yuritishda bir qancha muammolarni keltirib chiqarmoqda va bu jarayon borgan sari kuchayib borishi mumkin. Bu holatni eng avvalo mintaqaning suv balansiga salbiy ta'siri misolida ko'rsa bo'ladi.

Jahon banki ekspertlarining xulosalariga ko'ra, tog'larda suv zaxiralarning qisqarishi natijasida bahor-yoz mavsumida Amudaryoga oqib tushadigan yillik suv miqdori kamayib bormoqda<sup>15</sup>. Bunday iqlim o'zgarishlari, eng avvalo, havo va zamin haroratining ortishi bilan bog'liq bo'lib, ekspertlarning taxminiga ko'ra, 2050-yilga kelib Markaziy Osiyoda havo harorati Selsiy bo'yicha 1,5-2 darajaga ortishi, shu munosabat bilan va boshqa salbiy omillar ta'sirida O'zbekistonda qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtirish uchun ajratilgan sug'oriladigan ekin maydonlari 50 foizga qisqarib ketishi ehtimoli mavjud. Ekspertlarning fikriga ko'ra, havo haroratining ortishi may oyidan boshlanib, avgustgacha davom etadi va qishloq xo'jaligi mahsulotlarining ayni vegetatsiya davriga to'g'ri keladi.

Xorazm viloyati ham, yuqorida aytib o'tganimizdek, Orol dengizi qurishi bilan bog'liq ekologik vaziyat murakkab hududda joylashganligi tufayli hozir mintaqada atrof-muhitda yuzaga kelgan antropogen o'zgarishlar kuzatilmoqda. Suv resurslarining zarur tabiiy suv hajmini qayta tiklash qobiliyatining susayishi sababli suv resurslari umumiy miqdori kamayib bormoqda. Bundan tashqari yer usti va yerosti suv resurslarining ifloslanishi, degradatsiyasi va sho'rlanishi tufayli ularda pestitsidlar miqdori ortib bormoqda.

Suvning ifloslanishi va sho'rlanishi natijasida viloyatda kuchli sho'rlangan yerlar 32,8 ming gektarni tashkil qiladi. Intensiv oqizib sug'orish jarayonida foydalanishdagi yerlarning yemirilish va unumdorligining yomonlashishi jarayoni borgan sari tezlashib bormoqda. Bu esa pirovard natijada qishloq xo'jalik ekinlari hosildorligining pasayishiga sabab bo'lmoqda. Bunga ma'lum darajada sho'r yuvishda foydalanilgan suvlarning irrigatsiya tarmog'i suvlariga qo'shilishi hollari ham sabab bo'lmoqda.

Mintaqada ekologik holatning yomonlashuvi, yozda yuqori haroratli kunlarning ko'pligi va yillik yog'ingarchiliklar sonining kamayishi ko'p miqdorda suv yo'qotilishiga va bug'lanish darajasining oshishiga olib keldi. Yirik shoxli va


---

<sup>15</sup> Manba: Qoraqalpog'iston Respublikasini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish strategiyasi/ Toshkent: IFMR, 2013.- 252 b.

mayda chorva mollalari, parrandalarning kasallanish holatlari ko'paydi, ko'plab qishloq xo'jalik zararkunandalari, xususan, chigirtkalar paydo bo'ldi.

### **3.2. Xorazm viloyatida yer va suv muammolari va ularni yechish yo'llari**

Tabiiy sharoitiga ko'ra Xorazm viloyati suv resurslari iste'moli bo'yicha mamlakatimizning yetakchi hududlaridan biri hisoblanadi. Viloyatda bir gektar sug'oriladigan yer maydoniga to'g'ri keladigan suv sarfi o'rtacha respublika ko'rsatkichidan 1,4 martaga yuqori bo'lib, Qoraqalpog'iston Respublikasi hamda Buxoro viloyatidan keyingi o'rinda turadi (3.2.1-chizma). Bu asosan sho'r yuvish ishlari (25%), elektr energiya bilan ta'minlashdagi beqarorlik natijasida sug'orish sarfi hamda sug'orish tizimlaridagi tabiiy yo'qotishning ortib borayotganligi bilan bog'liqdir. Viloyat Amudaryoning quyi oqimida joylashganligi sababli suv ta'minoti yog'ingarchilik darajasiga bog'liq bo'lib, uning o'zgarish koeffitsenti o'rtacha 40 foizdan ortiqni tashkil qiladi.



### 3.2.1-chizma. Xorazm viloyatida 2000-2014 yillarga bir gektar sug'oriladigan yer maydoniga to'g'ri keladigan suv hajmi.<sup>16</sup>


2012-2014 yillarda Xorazm viloyatida o'rtacha 4 mlrd m<sup>3</sup> dan ortiqroq suv iste'mol qilingan bo'lib, bu talabning 80 foiziga tengdir. Shuning uchun ham viloyatda suv resuslaridan tejamkorlik bilan foydalanish muhim ahamiyatga ega.

Xorazm viloyati respublikada yog'in eng kam yog'adigan hududlardan biri hisoblanib, dehqonchilik faqatgina sug'orma usulda amalga oshiriladi. Oxirgi yillardagi o'rtacha yog'ingarchilik darajasiga nisbatan bug'lanish 18-19 marta yuqori bo'lmoqda.

Tahlil qilinayotgan davrda viloyatda suv tanqisligi 2001, 2008 va 2014 yillarda kuzatilib, limitga nisbatan amalda ishlatilgan suv miqdori mos ravishda 2, 1,6 va 1,5 marta qisqargan (3.2.2-chizma).

Suv tanqis bo'lgan yillarda kanallar suviga drenaj tizimi suvini ma'lum ulushlarda qo'shgan holda ishlatish tavsiya etilgan bo'lsada, ayrim hududlarda to'g'ridan-to'g'ri drenaj suvlarini iste'molga berish holatlari kuzatilgan. Bu erlarning unumdorligi va sho'rlanish darajasi kabi ko'rsatkichlarga salbiy ta'sir ko'rsatib, erlar bal bonitetining pasayib ketishi hamda ayrim mevali daraxtlarning qurish holatlarining kuchayishiga olib kelgan.


<sup>16</sup> Manba: Xorazm viloyati Statistika Boshqarmasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.



### 3.2.2-chizma. Xorazm viloyatida 2001-2014 yillarga suv resurslaridan foydalanish<sup>17</sup>

Viloyatda foydalanilayotgan suv iqtisodiyot tarmoqlari kesimida tahlil qilganda, uning 97 foizi qishloq xo'jalik, 2 foizi kommunal xo'jalik va 1 foizi boshqa maqsadlarga foydalanilayotganligiga guvohi bo'lish mumkin.

Sizot suvlari satxi eng yuqori bo'lgan (1 metrgacha) ekin maydonlari viloyatda 100 ming gektardan ortiqni tashkil etib, umumiy ekin maydonlariga nisbatan 38,2 foizni tashkil etadi. Amalga oshirib kelinayotgan melioratsiya tadbirlari natijasida bunday yer maydonlari ulushi 2007 yilga nisbatan 10 foizga yaqin qisqargan bo'lsada, respublikadagi eng yuqori ko'rsatkichligicha qolmoqda (3.2.3-chizma).




<sup>17</sup> Manba: Xorazm viloyati Statistika Boshqarmasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

### 3.2.3-chizma. Respublikadagi sizot suvlari satxi 1 metrgacha bo'lgan sug'oriladigan yerlar ulushi (2014 yil 1 iyul holatiga)<sup>18</sup>

Viloyatda sizot suvlari satxi eng yuqori bo'lgan maydonlar ulushi 2007 yilga nisbatan barcha tumanlarda oshgan bo'lib, Gurlan, Xonqa, Bog'ot, Xazorasp va Yangibozor tumanlarida esa bunday yer maydonlari ulushi viloyat o'rtacha ko'rsatkichidan ham yuqori bo'lmoqda (3.2.4-chizma).

Melioratsiya tadbirlari amalga oshirilayotgan bir sharoitda sizot suvlari satxi eng yuqori bo'lgan sug'oriladigan yer maydonlari ulushining 33 foizga yaqin o'sishi bu boradagi ishlar talab darajasida emasligidan dalolat beradi.




### 3.2.4-chizma. Sizot suvlari satxi 1 metrgacha bo'lgan yer maydonlari ulushi, %<sup>19</sup>

Viloyat bo'yicha jami 10,6 ming km uzunlikda kollektor-zovur tarmoqlari mavjud bo'lib, shundan 65 foizini tumanlararo zovurlar tashkil etadi. Sizot suvlari 5 ta asosiy kollektorlar (Ozerniy, Divanko'l, Davdan, Shovot-Andrey va Kangli) orqali chiqib ketib, Ozerniy kollektori viloyat drenaj tizimining "arteriyasi" hisoblanadi (3.2.5-chizma).

<sup>18</sup> Manba: Xorazm viloyati Statistika Boshqarmasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

<sup>19</sup> Manba: Xorazm viloyati Statistika Boshqarmasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.



### 3.2.5-chizma. Viloyatdagi asosiy drenaj kollektorlarining yillik suv oqimi strukturasi (umumiy suv hajmiga nisbatan % da)<sup>20</sup>

Ozerniy kollektori orqali viloyat sizot suvlarining 60 foizga yaqini chiqib ketishi rejalashtirilgan. Mavjud kollektor Turkmaniston bilan chegara zonada joylashganligi sababli uni qazish ishlarida qiyinchiliklar tug'ilyotgan bo'lsa, qumloq hududdan o'tganligi sababli tezda ko'milib qolishi natijasida ish samaradorligi pasaymoqda.

Dastur doirasida 2009-2014 yillarda viloyatning uzunligi 6,5 ming kilometrdan ortiq bo'lgan 86 ta kollektor-drenaj tarmoqlarida tiklash-ta'mirlash ishlari olib borilgan. Amalga oshirilgan melioratsiya tadbirlarining asosiy qismi Gurlan, Xonqa, Xazorasp va Bog'ot tumanlariga to'g'ri keladi. Hisobotlarda amalga oshirilgan tadbirlar natijasida 112 ming gektar, shundan 72 ming gektar paxta va 42 ming gektar g'alla maydonlarining meliorativ holati yaxshilanganligi ko'rsatiladi.

Sifatli amalga oshirilgan melioratsiya tadbirlari yer unumdorligining oshishi natijasida yuqori hosil uchun zamin yaratib, agrotexnika tadbirlari samarasiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi lozim. 2009-2014 yillarda O'zbekiston Respublikasida paxta (0,2 ts/ga) va g'alla (4,0 s/ga) hosildorligi o'sgan bo'lsa, viloyatda esa paxta

<sup>20</sup> Manba: Xorazm viloyati Qishloq va Suv xo'jaligi Boshqarmasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

(-1,5 s/ga) va g'alla (-4,6 s/ga) hosildorligi qisqargan. Viloyatda Jumladan, 90 foiz tumanlarda g'alla va 70 foiz tumanlarda esa paxta hosildorligi pasaygan. G'alla hosildorligi keskin pasaygan tumanlarga Urganch (-11,9 s/ga), Yangiariq (-10,8 s/ga), Yangibozor (-7,6 s/ga) va Bog'ot (-11,9 s/ga) tumanlarini, paxtachilik yo'nalishida esa Xonqa (-8,7 s/ga), Yangibozor (-3,8 s/ga), Bog'ot (-2,5 s/ga) va Gurlan (-2,3 s/ga) tumanlarini misol keltirish mumkin.

Umuman olganda, meliorativ holat yaxshilanganligini belgilovchi omillarning asosiysi – bu yer bal bonitetining ko'tarilishi bo'lib hisoblanadi. Melioratsiya tadbirlar natijasida viloyatda yer bal boniteti 0,4 punktga yaxshilangan bo'lsada, 2000 yilga nisbatan pastligicha qolmoqda. Bu esa melioratsiya tadbirlari samaradorligini oshirish lozimligidan dalolat beradi.

Joylarda mutaxassislar, fermer xo'jaliklari rahbarlari va aholi bilan bo'lgan suhbatlarda ular tomonidan viloyatda melioratsiya ishlari samaradorligi quyidagi omillar salbiy ta'sir ko'rsatayotganligi ta'kidlandi:

- asosiy e'tibor xo'jaliklararo zovurlarni tozalashga qaratilib, ichki va magistral zovurlar o'rtasidagi bog'liqlikni ta'minlash imkoniyatlarining cheklanganligi melioratsiya ishlari sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda, deyish mumkin. Xususan, viloyatdagi zax suvlarning 90 foizga yaqini olib chiqib ketuvchi Divanko'l va Ozyorniy magistral zovurlaridagi ishlarning qoniqarsizligi zax suvlar satxini keskin pasaytirish imkonini bermayapti. Ozyorniy magistral zovo'rining Turkmaniston hududida o'z vaqtida ishlarning bajarilmasligi zax suvlarning chiqib ketishiga salbiy ta'sir ko'rsatib, kollektorda suv satxining ko'tarilishi esa devorlarining yuvilib tushishi natijasida satxining o'zgarishiga olib kelmoqda. Hozirgi vaqtda zemnasoslar faoliyatini yo'lga qo'yilgan bo'lsada, chegara hududida ishlar hukumatlararo kelishuv asosida amalga oshirilishi chora-tadbirlarni samarali tashkil qilish imkoniyatini bermayapti;

- melioratsiya tadbirlarining vegetatsiya davrida amalga oshirilishi ekin maydonlari suvining katta miqdorda drenaj tizimiga tushishi orqali ularning tezda to'lib qolishi, suv tarkibida mineral o'g'it va o'simliklar urug'larining



kollektorlarga tushishi o'tlar bilan to'lishiga sabab bo'lib, ular faoliyati samaradorligini pasaytirmoqda;

- viloyat tuproq sharoitidan kelib chiqqan holda sizot suvlari satxining keskin pasayishidan aholi va fermerlarning manfaatdor emasligi ham o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatmoqda. Ko'chat undirib olishda yer zaxini ushlab muhim ahamiyatga ega ekanligi sababli kollektor-drenajda tuproq o'zanli dambalar tashkil qilinmoqda. Dambalar o'z funksiyasini bajargandan so'ng ularni olib tashlash uchun fermerlarda texnika bo'lmaganligi sababli tuproq drenaj ichiga oqizilishi sababli ularning tezda ko'milib qolishi natijasida zax suvlarning chiqib ketishiga to'sqinlik qilmoqda;

- kollektor-drenajlarni joriy va kapital ta'mirlash ishlari mahalliy komissiyalar xulosalari asosida shakllantirilib, aksariyat holatlarda ob'ektlarni tanlashda meliorativ holatning yaxshilanishi emas, balki ko'p mablag' talab qiladigan loyihalarni amalga oshirish hisobiga hudud iqtisodiy ko'rsatkichlarini yaxshilash maqsad qilib qo'yilmoqda. Demak, mahalliy ishchi guruhlari tomonidan melioratsiya ob'ektlarini tanlashdagi kamchiliklar ham faoliyat samarasiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda, deyish mumkin;

- barcha melioratsiya tadbirlari bitta sub'ekt tomonidan amalga oshirib, ishlar samaradorligini baholash tizimining mavjud emasligi. Tanlangan ob'ektlarning loyiha-smeta hujjatlarini tayyorlash, tender o'tkazish, moliyalashtirish, nazorat qilish va ishni qabul qilib olish Xorazm viloyati Hidrogeologiya-meliorativ ekspeditsiyasi tomonidan amalga oshirib kelinmoqda. Barcha tadbirlar bir tashkilot doirasida amalga oshirilishi ishlar samarasining pasayishiga ta'sir qilmoqda. Shuning uchun buyurtmachi va qabul qilib oluvchi alohida-alohida sub'ekt bo'lgani maqsadga muvofiq. Bundan tashqari nazorat organlari tomonidan loyihada belgilangan fizik ish hajmi nazorat qilinayapti, xolos. Ish samarasiga baho berish tizimi esa mavjud emas.

Irrigatsiya tizimi holati viloyatning irrigatsiya tizimi 3,6 ming km uzunlikdagi magistral va xo'jaliklararo hamda 18,5 ming km uzunlikdagi ichki

xo'jalik kanallarini o'z ichiga oladi. Viloyatda suvdan foydalanish samaradorligi qoniqarsiz holatda bo'lib, uni quyidagi omillar bilan ifodalash mumkin:

- birinchidan, viloyatda suv resurslarini boshqarish, fermerlar va aholi talabini tumanlar va QFYlari kesimida prognozlashtirish hamda ijrosini ta'minlash ishlari o'z holiga tashlab qo'yilganligi mavjud suv resurslaridan samarasiz foydalanilishiga sabab bo'lmoqda, deyish mumkin. Qishloq xo'jaligining viloyat yalpi ichki mahsulotidagi ulushining yuqoriligi saqlanib qolayotgan, sohada bandlik darajasining yuqoriligi, qishloq aholisining asosiy daromad manbai oziq-ovqat mahsulotlarini yetishtirish hisoblanishi, respublikadagi 60 foizdan ortiq guruch mahsulotlari yetishtirilayotgan bir sharoitda suv resurslaridan samarali foydalanish nafaqat iqtisodiy, balki murakkab ijtimoiy va siyosiy jarayon ham hisoblanadi. Suvdan foydalanuvchilar uyushmalari (SFU) fermerlarning tashkiloti hisoblansada, ko'pchilik fermerlar ularni davlat suv xo'jaligi tashkiloti deb hisoblashi, uyushma faoliyatida o'z o'rin va vazifalarini yaxshi bilmasligi faoliyatni samarali tashkil etishga to'sqinlik qiladi. Bundan tashqari, kundalik faoliyatni samarali yuritish uchun SFUlarda texnik vositalar va malakali mutaxassislar yetishmaydi.

Bundan tashqari, viloyatda 80 foizdan ortiq yer maydoni nasoslar yordamida sug'orilib, elektr energiyasi ta'minotining yomonlashayotgani ham suvdan samarasiz foydalanishga sabab bo'lmoqda, deyish mumkin. Misol uchun, Shovot tumanidagi fermer 11 ga paxta maydonini sug'orish uchun 2012 yilda 3 kun sarflagan bo'lsa, 2013 yilda esa 10 kun vaqt talab etilgan. Bu bir necha bor suv dala boshiga yoki ma'lum qismiga borganda elektr energiyasidagi ogohlantirishlarsiz o'chirilishlar suvning yerga singishi natijada jarayonning qayta-qaytadan amalga oshirilishiga sabab bo'lgan. Mavjud holat suv isrofgarchiligining oshishiga va fermerlar moliyaviy holatining yomonlashuviga sabab bo'lmoqda;

- ikkinchidan, an'anaviy ekin turlarini yetishtirish uchun ham sarflanayotgan suv miqdori respublikada eng yuqori darajadagicha qolayotgan bo'lib, bu ekin turlarini joylashtirishda har tumanning tuproq va suv sharoitini e'tiborga olmaslik hamda suvdan samarali foydalanishga qaratilgan

agrotexnologiyalarning joriy etilmasligi bilan bog'liqdir. Misol uchun viloyatda 1 ga paxta maydoniga sarflanayotgan suv miqdori o'rtacha respublika ko'rsatkichidan 1,5 martaga yuqoridir.

- uchinchidan, irrigatsiya tizimlari holati qoniqarsiz ahvolda bo'lib, bu suv resurslari tabiiy yo'qotilishining ortishi va sizot suvlari satxining ko'tarilishi natijasida yerlarning qayta sho'rlanishiga sabab bo'lmoqda. Viloyatdagi kanallar tuproq o'zanli bo'lib, suv satxi har yil turlicha bo'lganligi sababli ularning qirg'oqlari o'pirilishi natijasida eni loyihadagiga nisbatan 2 martagadan ortiqroqqa kengayib, sayozlashgan. Bu esa kanallarning gidravlik parametrlari o'zgarishi va suv o'tkazish qobiliyatining yomonlashishiga sabab bo'lmoqda. Xususan, suv o'tkazish qobiliyati Yangiariq tumanidagi "Karmish yab" kanalida 35 foizni, Qo'shko'pir tumanidagi G'ozovot kanalida 45 foizni, Shovot tumanidagi "Udachi yab" kanalida 50 foizni, Qo'shko'pir tumanidagi "O'ng tarmoq Kulovot" kanalida 55 foizni, Urganch tumanidagi "Begavat yab" kanalida 60 foizni tashkil etmoqda. Boshqa kanallardagi holat ham bundan yaxshi emas.


Bu viloyatdagi melioratsiya ob'ektlarida ishlar qoniqarsizligidan dalolat beradi. Misol uchun, Yangiariq tumanidagi 18 ming gektarga yaqin maydonni suv bilan ta'minlanlovchi R-8 kanalida oxirgi marta 1994 yilda joriy ta'mirlash ishlari amalga oshirilgani natijasida suv o'tkazish qobiliyati 50 foizdan ortiqni tashkil etayotganligi natijasida har yili tumanda 3,2 ming gektar sug'oriladigan ekin maydonidan foydalanish imkoniyati bo'lmayapti.

Sug'orish tarmoqlarining devori tuproqligi, enining kengayganligi, ba'zi joylarning qumloqligi sababli tabiiy yo'qotish 30 foizdan 50 foizgachani tashkil etib, uning bir qismining tuproqqa so'rilishi sizot suvlari satxining ko'tarilishi va yerlarning qayta sho'rlanishiga olib kelmoqda.

Demak, suvdan Xorazm viloyatida suvdan foydalanish samaradorligi past bo'lib, bu o'z navbatida sug'oriladigan ekin maydonlaridan to'liq foydalanilmasligi, sizot suvlari satxining ko'tarilishi, sho'rlanish darajasining ortishi kabi salbiy holatlarga sabab bo'lmoqda. Shularni e'tiborga olgan holda viloyatda suv resurslaridan samarali foydalanish maqsadida suvning tabiiy

yo'qotilishini qisqartirish hamda undan samarali foydalanish choralar kompleksini amalga oshirish taklif etiladi (3.2.7-chizma). Uning asosiy yo'nalishlari sifatida quyidagilar taklif etiladi:

1. Suvning tabiiy yo'qotilishini qisqartirish maqsadida yer o'zanli kanallarni betonlash va noan'anaviy usullardan foydalanish talab etiladi. Kanallarning tubi va yonlarini polietilen plenka bilan qoplashni noan'anaviy usullardan bir sifatida taklif etiladi. Viloyatda amalga oshirilgan tajribalarda mavjud usuldan samarali foydalanish suv tabiiy yo'qotilishini 40 foizgacha qisqartirish imkonini berishi isbotlangan.<sup>21</sup> Uni to'liq amalga oshirish hisob-kitoblarga ko'ra 1,2 mlrd.m<sup>3</sup>dan ortiq suvni iqtisod qilish va asosan suv yetishmasligi sababli viloyatda ekilmay kelinayotgan ekin maydonlaridan foydalanish imkoniyatini yaratadi (3.2.6-chizma).



**3.2.6-chizma. Xorazm viloyatida suvdan oqilona foydalanish yo'nalishlari<sup>22</sup>**

<sup>21</sup> R.Eshchanov, X.Jabbarov, P.Saidov. Suvdan foydalanuvchilar assotsiatsiyasi (SFA) ichida irrigatsiya tarmog'ida suvdan qanday qilib samarali foydalanish kerak. Xorazm viloyati misolida. Urganch davlat universiteti.

<sup>22</sup> Manba: muallif tomonidan tuzilgan.

1. Nasoslarni uzluksiz elektr energiyasi bilan ta'minlash maqsadi ularning bir qismini bosqichma-bosqich muqobil elektr energiyasidan foydalanishga o'tkazish, aholi zich joylashgan hududlarda nasoslar uchun alohida elektr liniyalarini tortish muhim ahamiyatga ega.

2. Viloyatda amalga oshirilgan tajriba natijalari dalalarning bir tomon cheti bilan ikkinchisi o'rtasidagi notekislikning 5 sm bo'lishining o'zi gektariga 500 m<sup>3</sup> suvning ortiqcha sarflanishi, bu esa yerda qo'shimcha 250 kg tuz paydo bo'lishi va sizot suvlari satxining 0,2 metrga ko'tarilishiga sabab bo'ladi. Dehqonchilikda qishloq xo'jalik ekinlarini yaxshi yetishtirish, sug'orish, o'g'itlardan samarali foydalanish, energiya resurslar sarfini tejash, ekinlardan yuqori va sifatli hosil olish kabi jarayonlar dala maydoni tekisligiga bog'liqdir. Ekin maydonlarining notekisligini bartaraf etishda lazerli tekislash usuli<sup>23</sup> dan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Bu dala maydoni yuzasidagi eng past va baland joylarfarqi 1-3 santimetrdan oshmaydigan darajada, maxsus lazer jihozli qurilma orqali tekislashni anglatadi. Tadqiqotlar mavjud usuldan foydalanish suv sarfining 30 foizgacha qisqarishi, bug'doy (4 s/ga) va va paxta (2,5 s/ga) hosildorligining o'sishiga erishish imkonini berishini isbotlaydi.

4. O'zbekiston Fanlar akademiyasi Suv muammolari instituti hamda Toshkent irrigatsiya va melioratsiya instituti olimlari tomonidan tomchilatib sug'orishning past bosimli tizim sxemasi ishlab chiqilib, konstruksiyasi oddiyligi sababli amaldagi tizimlarga nisbatan 3 baravarigacha arzonligi bilan farq qiladi. Tajriba natijalarida sho'rlangan yerlarda paxta yetishtirishda suv sarfini 40 foizga qisqartirish hamda hosildorlikni qo'shimcha 30-35 foizga oshirishga erishilgan.

Suv sarfining yuqoriligida viloyatda asosan suvni ko'p talab qiladigan yetishtirishning saqlanib qolayotganli. Misol uchun, guruch gektariga 15000 m<sup>3</sup> suv talab qilsa, mahalliy kartoshka 3500-8000 m<sup>3</sup>, kuzgi bug'doy uchun 8000-9000 m<sup>3</sup> suv sarfini talab etadi.

---

<sup>23</sup> Mavjud usulni qo'llash hisobiga suv sarfini 25 foizgacha tejash yoki mintaqada 600 mln metr kubdan ortiq suvni tejash orqali qo'shimcha 50 ming gektardan ortiq erni sug'orish imkoniyatiga ega bo'linadi. Bundan tashqari, paxta va g'alla hosildorligining 4-7 ts/ga qadar o'sib, sug'orishga ketadigan vaqt, ishchi kuchi va energiya tejaladi. Ekinlar bir xil me'yorda oziqlanishi va namlik bilan ta'minlanishi natijasida begona o'tlar miqdori 15 foizgacha kamayadi. Natijada rentabellikning paxtada 50 foizdan ortiqqa hamda g'allada 2,4 martagacha o'sishiga erishish mumkin.

Urganch davlat universiteti mutaxassislari kuzatuv natijalariga ko'ra gektariga 2500 m<sup>3</sup> ortiqcha sarflangan suv 1250 kg tuz va sizot suvlari hajmining 1 metr ga ko'tarilishiga sabab bo'ladi.

5. Viloyat hududidagi drenaj tizimidan har yili o'rta hisobda 1,5 mlrd metr kubdan ortiq zax suvlar chiqmoqda. Bu sug'orish uchun ishlatilayotgan suvning 30 foiziga yaqini demakdir. Drenajga oqizilgan suvlarni qaytadan ishlatish va sifatini nazorat qilish orqali ularni foydalanishga yaroqli holatga keltirib, qishloq xo'jalik maqsadlarida foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Ya'ni sizot suvlarining bir qismini chuchuklashtirish sholi maydonarini kengaytirish imkonini beradi. Bunga erishishda Lemna minor<sup>24</sup> o'simligidan foydalanish katta samaraga ega.

6. Dalalar atrofini himoyalovchi ekinlar bilan o'rab, yerlarning namligini ushlab. Bu borada tut sho'rga chidamligi bilan viloyat muhitiga mos daraxt hisoblanadi. U sizot suvlari satxining pasayishiga, dalalarda suvning bug'lanishini kamaytirishga va ekinlarning yaxshi rivojlanishiga xizmat qiladi. Tut chumchuq va boshqa qushlar ko'payishini rag'batlantirib, ko'sak qurti va boshqa zararli hasharotlarga qarshi kurashda ham katta samara beradi. Mavjud 270 ming gektarga yaqin sug'oriladigan yerlar atrofi ariqlardan iborat bo'lib, ularga tut daraxtlarini ekish mumkin. Tutzorlarning ko'payishi pillachilikni rivojlantirish uchun xizmat qiladi. Mintaqada tut plantatsiyalarining kamligi hamda xom ashyoni qayta ishlash quvvatlarining mavjud emasligi pillachilik sohani rivojlantirishga to'siq bo'lmoqda.

---

<sup>24</sup> **Lemna minor (Ряска малая)** - sho'r va ifloslangan suv havzalarini biologik tozalash maqsadida xorijiy mamlakatlarda keng foydalaniladi. Uning o'sish tezligi juda yuqori hisoblanib, ifloslangan suv havzalarida tez ko'payadi. U yordamida tozalangan kollektor-drenaj tizimi suvlaridan ekin maydonlarini qayta sug'orish uchun foydalanish mumkin bo'ladi. O'simlik tarkibi yog', kaltsiy, fosfor, magniy, yod, brom va boshqa qator foydali moddalardan iborat bo'lganligi sababli baliq va suvda suzuvchi qushlar uchun yaxshi ozuqa hisoblanadi. U yuqori hosildorlikka (bir mavsumda 1 gektar suv havzasidan 80 tonnagacha ko'k massa yig'ib olish mumkin) ega bo'lib, chorva mollari uchun ham to'yimli ozuqa vazifasini bajaradi. Hattoki undan qimmatbaho tabiiy o'g'it ham olish mumkin. Xalq tabobatida ham o'simlikdan dori vositalari tayyorlab, undan ko'pgina kasalliklarni davolashda foydalaniladi.


### 3.3. Xorazm viloyati iqtisodiyotini ekologiyalashtirish asosiy yo'nalishlari

Qishloq xo'jaligi Xorazm viloyati iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Buni sohaning yalpi ichki mahsulotdagi va bandlikdagi ulushi o'rtacha respublika ko'rsatkichidan qariyb 2 martaga yuqoriligi bilan izohlash mumkin.

Qishloq xo'jaligi tarkibiy tuzilishida dehqonchilik mahsulotlari ulushi 2000-2013 yillar davomida 5,6 foizga o'sib, 52,3 foizni tashkil etmoqda. Bu asosiy turdagi mahsulotlar, jumladan sabzavot, poliz mahsulotlari, kartoshka, meva vauzumning yalpi hosili o'sishiga erishilgani bilan izohlanib, respublika o'rtacha ko'rsatkichidan yuqoridir (3.3.1-chizma).

3.3.1-chizma

#### Dehqonchilik mahsulotlari yetishtirishning 2000-2014 yillardagi o'sish dinamikasi, marta<sup>25</sup>



Tahlil qilinayotgan davrda poliz, sabzavot va bog' ekin maydonlarining qariyb 3 martaga kengayishi hisobiga viloyatning respublikada tutgan o'rni yaxshilangan. Ekin maydonlarining kengayishi va hosildorlikning ortishi viloyatda aholi jon boshiga mahsulot yetishtirishning ko'payishiga xizmat qilmoqda, deyish mumkin. Shunga qaramasdan, viloyatda aholi jon boshiga kartoshka va uzum


<sup>25</sup> Manba: Xorazm viloyati Statistika Boshqarmasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

yetishtirish o'rtacha respublika ko'rsatkichiga nisbatan pastligicha qolmoqda (3.3.2-chizma).

Viloyat uzum va meva mahsulotlari hosildorligi bo'yicha respublikada Andijon, Buxoro va Navoiy viloyatlaridan keyingi 4-o'rinni egallaydi. Poliz mahsulotlari (12-o'rin), g'alla (11-o'rin), paxta va kartoshka (10-o'rin) hamda sabzavot (9-o'rin) mahsulotlari hosildorligi esa pastligi saqlanib qolmoqda. Bu esa aholi jon boshiga qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarishning o'rtacha respublika ko'rsatkichiga nisbatan 1,3 martaga pastligiga sabab bo'lmoqda. Natijada, O'zbekiston Respublikasida yetishtirilayotgan qishloq xo'jalik mahsulotlarining 6,0 foizi mintaqa hissasiga to'g'ri kelib, 2000 yilga nisbatan 0,6 foizga pasaygan.

3.3.2-chizma

**Aholi jon boshiga dehqonchilik mahsulotlari  
yetishtirish ko'rsatkichlari, kg<sup>26</sup>**



Respublikada bo'lgani kabi Xorazm viloyatida ham yalpi qishloq xo'jalik mahsulotlarining asosiy qismi (68 foizi), jumladan go'sht yetishtirishda 97 foizi, sut 96 foizi, baliqning 89 foizi, kartoshkaning 79 foizi, sabzavot mahsulotlarining 67 foizi, uzumning 66 foizi, meva va poliz mahsulotlarining 44 foizi dehqon xo'jaliklari tomonidan yetishtirilib, hosildorlik boshqa mulkchilik shakllariga nisbatan yuqori. Viloyatda yetishtirilayotgan oziq-ovqat mahsulotlari maydonning 55 foizi yoki umumiy ekin maydonining 20 foizi dehqon

<sup>26</sup> Manba: Xorazm viloyati Statistika Boshqarmasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.



xo'jaliklariga tegishli ekanligi e'tiborga olinadigan bo'lsa, u xo'jalik yuritishning boshqa shakllariga nisbatan ustunlikka ega ekanligini ko'rsatadi (3.3.1-jadval).

Dehqon xo'jaliklarining asosiy ustunligini esa ekin to'rini tanlash va joylashtirishda erkin harakat qilish imkoniyatiga ega ekanligi, yangi va serhosil navlardan foydalanish imkoniyatining kengligi, ekish va agrotexnika tadbirlarining shaxsiy tajriba hamda malakali mutaxassislar ko'rsatmalaridan kelib chiqqan holda mustaqil amalga oshirishi, yetishtiriladigan mahsulotni erkin tasarruf etishi hamda moliyaviy natija bo'yicha shaxsiy javobgarlik va manfaatdorlikning yuqoriligi kabilar bilan izohlash mumkin. Ammo quyidagi holatlar dehqon xo'jaliklari faoliyatidan samarali foydalanishga to'sqinlik qilmoqda, deyish mumkin:

- viloyat aholisi tomonidan yetishtirilayotgan dehqonchilik mahsulotlari hosildorligining va chorvachilik mahsulotlarining esa mahsuldorligining pastligi saqlanib qolayotganligi;

- ichki talabning chegaralanganligi, qayta ishlashning rivojlanmaganligi va eksport faoliyatining cheklanganligi sababli yetishtirilayotgan meva-sabzavot mahsulotlari tabiiy yo'qotilishining yuqoriligi hamda rentabellik darajasining pastligi;

- sifatli urug' va navlarning yetkazib berilmasligi yoki aholida uni yetishtirish bilan bog'liq ko'nikmaning yo'qligi;

- aholi yer maydonlarining tarqoqligining ishlab chiqarishni ilmiy asoslangan tartibda tashkil etish va zamonaviy texnologiyalarni qo'llashga to'sqinlik qilishi;

- turli hil zararkunanda va kasalliklarning mavjudligi, ularga qarshi kurashish samarali tashkil etilmaganligi, kimyoviy vosita va o'g'itlar ta'minotining qoniqarsizligi;

- dehqonchilik mahsulotlari likvidlik darajasining pastligi sababli aholi yer maydonlarining asosiy qismida chorva uchun yem-xashak yetishtirishga ixtisoslashganligi va hokazo.

**Turli xil mulk shakllariga mansub xo'jaliklarda  
qishloq xo'jalik mahsulotlarining hosildorlik ko'rsatkichlari**

(2014 yil holatiga), s/ga<sup>27</sup>


Mahsulotlar turi	Umumiy hosildorlik ko'rsatkichi		shu jumladan:			
	O'zbekiston Respublikasi	Xorazm viloyati	fermer xo'jaliklari		dehqon xo'jaliklari	
			O'zbekiston Respublikasi	Xorazm viloyati	O'zbekiston Respublikasi	Xorazm viloyati
G'alla	47	41	46	35	59	55
Sabzavot	278	241	262	216	296	256
Kartoshka	210	177	193	166	206	179
Meva	110	133	84	120	148	157
Uzum	113	140	92	112	146	164
Poliz mahsulotlari	200	173	192	156	212	203

Viloyatda qishloq xo'jalik mahsulotlari o'rtacha hosildorligining nisbatan pastligiga yerlarning sho'rlanish darajasi yuqoriligi, yer osti sizot suvlari satxining balandligi, melioratsiya va irrigatsiya tadbirlari samaradorligining pastligi, qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirishda (paxta va g'alladan tashqari) ixtisoslashuvning yetarli emasligi, boshqa viloyatlarda bo'lgani kabi oziq-ovqat mahsulotlariga barqaror talabning mavjud emasligi, suv ta'minotining beqarorligi, mahalliy sharoitga mos navlarni yaratish ishlarining qoniqarsizligi kabi omillar sabab bo'layotganligi ta'kidlanadi.

Viloyat sug'oriladigan ekin maydonlarining to'liq sho'rlanganligi bilan ajratilib turadi. O'rta va kuchli sho'rlangan yerlar ulushi esa 50 foizga yaqinni tashkil etib, Qoraqalpog'iston Respublikasidan keyingi 2-o'rinni egallaydi (3.3.3-chizma).


<sup>27</sup> Manba: Xorazm viloyati Statistika Boshqarmasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

**O'zbekiston Respublikasida sug'oriladigan  
ekin maydonlarining sho'rlanish darajasi, %<sup>28</sup>**



Tumanlar kesimida olganda esa Qo'shko'pir, Shovot va Gurlan tumanlarida o'rta va kuchli sho'rlangan yerlar ulushi yuqori bo'lib, sug'oriladigan yerlarning 50 foizdan ortig'ini tashkil etadi. Viloyatda faqatgina Xonqa va Bog'ot tumanlarida bunday yerlar ulushi 30 foizdan past, xolos (3.3.4-chizma).

**Xorazm viloyatida kuchli va o'rta sho'rlangan  
sug'oriladigan yerlar ulushi, %<sup>29</sup>**



Viloyat sizot suvlari satxi eng yuqori darajada bo'lgan hudud hisoblanib, u pasaytirish choralari amalga oshirishdan tashqari, dehqonchilik mahsulotlarini


<sup>28</sup> Manba: Xorazm viloyati Statistika Boshqarmasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

<sup>29</sup> Manba: o'sha yerda

hududning tuproq sharoitidan kelib chiqqan holda amalga oshirish ham muhim ahamiyatga ega. Misol uchun viloyatda sizot suvlari satxi eng yuqori bo'lgan Xazorasp va eng past bo'lgan Urganch tumanlarida yetishtirilayotgan qishloq xo'jalik mahsulotlarini solishtirish natijasida ham ko'rish mumkin (3.3.5-chizma).

3.3.5-chizma

**Xazorasp va Urganch tumanlarida 2013 yilda yetishtirilgan qishloq xo'jalik mahsulotlari hosildorligi,  $s/ga^{30}$**



Respublikadagi umumiy sug'oriladigan ekin maydonlarining 6,2 foizi viloyat hissasiga to'g'ri kelib, kattaligi jihatidan o'n ikkinchi o'rinni hamda sug'oriladigan ekin maydonining aholi jon boshiga to'g'ri keladigan miqdori bo'yicha esa Jizzax, Sirdaryo, Qashqadaryo viloyatlari va Qoraqalpog'iston Respublikasidan keyingi beshinchi o'rinni egallaydi.

Viloyatdagi mavjud ekin maydonlarining 80 foizga yaqini fermer xo'jaliklari ixtiyorida bo'lishiga qaramasdan, yalpi qishloq xo'jalik mahsulotlaridagi ulushi pastligi (31%) saqlanib qolmoqda. Bunga ular ekin maydonlarining 83 foizdan ortig'ida paxta va g'alla yetishtirilishi, ular hosildorlikning pastligi va xarid narxining arzonligi sabab bo'lmoqda, deyish mumkin.

Respublikada yetishtirilayotgan paxta maydonlarining 7,9 foizi, yalpi hosilning esa 7,2 foizi viloyat hissasiga to'g'ri kelib, ulushi bo'yicha 6-o'rinni egallaydi. Paxta viloyatda yetishtirilayotgan yalpi qishloq xo'jalik

<sup>30</sup> Manba: Xorazm viloyati Statistika Boshqarmasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.


mahsulotlarining 11 foizdan ortiqrog'ini tashkil etib, viloyat iqtisodiyotida muhim ahamiyatga ega.

Respublika paxta maydonlari va yapli hosilidagi viloyat ulushi salbiy natijasini paxta hosildorligining pastligi bilan ifodalash mumkin. Tahlil qilinayotgan davrda hosildorlik o'rtacha 24,8 sentnerni tashkil etib, viloyat ushbu ko'rsatkich bo'yicha respublikada 8-o'rinni egallaydi. Masalaning tashvishli jihati uning pasayish tendensiyasiga ega ekanligidir.

Viloyatda paxta hosildorligi respublika o'rtacha ko'rsatkichiga nisbatan qariyb 1 sentnerga past bo'lsada, rentabellik darajasi qisqarib borayotganligi natijasida uni etishtiruvchi xo'jaliklarning moliyaviy holati yomonlashmoqda (3.3.6-chizma).

3.3.6-chizma


### Paxta hosildorligi va rentabellik darajasi (s/ga; %) <sup>31</sup>



Viloyatda eng past rentabellik darajasi esa hosildorligi kam bo'lgan va suv resurslari bilan yomon ta'minlangan Yangiariq, Xazorasp va Qo'shko'pir tumanlariga to'g'ri keladi (3.3.7-chizma). Viloyatda "nol" darajali rentabellikka erishishi uchun 27,5 sentner hosildorlik talab etilishi sababli Xazorasp va Qo'shko'pir tumanlari fermerlarining asosiy qismi paxtachilikdan zarar ko'rmoqda.

<sup>31</sup> Manba: Xorazm viloyati Statistika Boshqarmasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

**Xorazm viloyatining paxta  
hosildorligi va rentabellik darajasi (s/ga; %)<sup>32</sup>**



Sohada rentabellik darajasining pasayib borayotganligiga qishloq xo'jalik mahsulotlari xarid narxlari va sanoat mahsulotlari narxi o'rtasidagi nomutanosiblikning ortib borayotganligi ham bunga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda, deyish mumkin.

Dunyoda paxta hosildorligi eng yuqori bo'lgan Isroil (50 s/ga) va Avstriya (41 s/ga) davlatlarida hosildorlik viloyat ko'rsatkichiga nisbatan 2 martadan ortiqroqqa yuqori bo'lsada, suv sarfi mos ravishda 6 va 3,8 martaga kamdir. Bundan tashqari, dunyoda ishlab chiqaruvchilar bilan paxta xom ashyo fizik hajmidan emas, balki uni qayta ishlash natijasida olingan paxta tolasidan kelib chiqqan holda hisob-kitob qilinadi. Tola uchun to'lovning amalga oshirilishi esa tarozi bosadigan emas, balki uzun va pishiq tola beradigan navlarning yaratilishiga turtki bo'lmoqda. Respublikamiz sharoitida ham samaradorligi past bo'lgan paxta maydonlari qisqartirilayotgan bir sharoitda valyuta tushumini ta'minlovchi, oziq-ovqat va yengil sanoat sohasining muhim xom ashyo bazasi bo'lgan paxtachilikning rivojini fan-texnika yutuqlarisiz tasavvur etib bo'lmaydi.

Viloyatda hosildorligi past bo'lgan maydonlar<sup>33</sup> umumiy paxta maydonining 99 foizini tashkil etib, ularda yetishtirilayotgan paxtadan ko'rilyotgan zarar

<sup>32</sup> Manba: Xorazm viloyati Statistika Boshqarmasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

<sup>33</sup> Vazirlar Mahkamasining 2012 yil 11 apreldagi "Hosildorligi past bo'lgan yerlarda davlat ehtiyojlari uchun paxta xom ashyosi yetishtiruvchi qishloq xo'jaligi korxonalarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash tartibi to'g'risidagi nizomni

summasini qoplash maqsadida davlat tomonidan viloyat yalpi qishloq xo'jalik mahsulotlari qiymatining 0,8 foiziga teng miqdorda moliyaviy yordam ko'rsatilmoqda. Viloyat mutaxassislari bilan amalga oshirilgan dastlabki tahlil natijalari samaradorligi juda past bo'lgan paxta maydonlar 11,7 ming gektarni tashkil etishini ko'rsatmoqda. Uning asosiy qismi Xazorasp, Xonqa, Qo'shko'pir va Bog'ot tumanlariga to'g'ri keladi (3.3.8-chizma).

Ushbu maydonlarga har bir tumandagi mavjud ekologik holat, suv bilan ta'minlanganligi va ixtisoslashuvdan kelib chiqqan holda boshqa qishloq xo'jalik ekinlarini joylashtirish taklif etiladi.


Paxtachilik sohasi rivojiga erishishda fan-texnika yutuqlaridan samarali foydalanishdan tashqari davlat buyurtmasini bosqichma-bosqich qisqartirish, soliq munosabatlarini takomillashtirish muhim ahamiyatga ega.

Xorazm viloyati qishloq xo'jaligida muhim ahamiyatga ega bo'lgan navbatdagi mahsulot turi bu – bug'doydir. U viloyat yalpi qishloq xo'jalik mahsulotlarining 2 foizdan ortiqrog'ini tashkil etadi.

---

tasdiqlash haqida"gi 106-qaroriga asosan o'rtacha boniteti 60 baldan hamda normativ hosildorligi 24 sentnerdan past bo'lgan yerlar paxta xom ashyosi yetishtirish uchun hosildorligi past bo'lgan maydonlar hisoblanadi.


**Tumanlarning viloyatdagi samaradorligi juda past  
bo'lgan paxta maydonlaridagi ulushi, %<sup>34</sup>**



Respublikada yetishtirilayotgan paxta maydonlarining 3,6 foizi, yalpi hosilning esa 3,1 foizi viloyat hissasiga to'g'ri kelib, ishlab chiqarish ulushi bo'yicha qo'shni Qoraqalpog'iston Respublikasidan oldingi 12-o'rinni egallaydi. Bunga hosildorlik o'rtacha respublika ko'rsatkichiga nisbatan 6 sentnerga pastligi sabab bo'lmoqda, deyish mumkin. G'alla maydonlari va yapli hosilidagi viloyat ulushi salbiy natijasini hosildorlikning pastligi bilan ifodalash mumkin va u hozirgi vaqtda o'rtacha 41 sentnerni tashkil etmoqda (3.3.9-chizma).

<sup>34</sup> Manba: Xorazm viloyati Statistika Boshqarmasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.



**Paxta hosildorligi va rentabellik darajasi (s/ga; %)<sup>35</sup>**

Viloyat g'allasining 56 foizga yaqini fermerlar tomonidan yetishtirilib, ularda hosildorlikning pastligi umumiy ko'rsatkichga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda, deyish mumkin. Oxirgi 3 yilning hosildorlik 12 s/ga qisqarganligi bunga misoldir. Eng past hosildorlik umumiy g'alla maydonining 30 foizidan ortig'iga ega bo'lgan Shovot (26 s/ga), Qo'shko'pir (29 s/ga) va Gurlan (31 s/ga) tumanlari fermerlariga to'g'ri keladi.

Qishning qattiq sovug'iga va bahorning issig'iga chidamli navlarni yaratish muhim ahamiyatga ega. Xorazm viloyatida ekologik holat yomonlashib, suv resurslari ta'minoti beqarorlashib borayotgan bir sharoitda paxta va g'alla yetishtirishga ixtisoslashgan fermerlarni kutilmagan havf-xatarlardan himoya qilishda sug'urta xizmatlaridan foydalanish imkoniyati cheklangan. Bu aksariyat fermer xo'jaliklari moliyaviy holatining yomonligi, davlat buyurtmasi bo'yicha ajratiladigan avans mablag'larining maqsadli yo'naltirilishi hamda sug'urtani "boshqa harajatlar" bandi bo'yicha ajratilayotgan 2 foizli ajratma hisobidan amalga oshirish imkoniyatining yo'qligidir.

Fermer xo'jaliklari tomonidan bug'doy yetishtirish va moliyaviy holatning yaxshilanishiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan omillardan biri don korxonalariga

<sup>35</sup> Manba: Xorazm viloyati Statistika Boshqarmasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.


rejadan ortiqcha topshirilgan g'alla uchun ayrim hollarda to'liq hisob-kitob qilish imkoniyatining yo'qligi ham salbiy ta'sir ko'rsatmoqda, deyish mumkin.

Xorazm viloyati qishloq xo'jaligining eng muhim ixtisosliklaridan biri bu - sholichilik bo'lib, respublikada yetishtirilayotgan mahsulotning 60 foizga yaqini viloyat hissasiga to'g'ri keladi. Tumanlar orasida sholi yetishtirish bo'yicha chuqur hududiy ixtisoslashuv mavjud. Mahsulotning qariyb 2/3 qismi Gurlan, Xazorasp va Bog'ot tumanlariga to'g'ri kelib, bu ularning suv resurslari bilan yaxshi ta'minlanganligi bilan bog'liqdir. Sholining 70 foizga yaqini fermer xo'jaliklari tomonidan yetishtiriladi. Respublikada sholini ko'chat holida ekish texnologiyasi faqatgina Xorazmda mavjud bo'lib, u hosilni erta yig'ib olish hamda suv resurslarini tejash imkonini beradi.

Tahlil qilinayotgan davrda sholi yetishtirish hajmi 5,1 martaga o'sgan bo'lib, bunga hosildorlik (1,8 martaga) va yer maydonining (1,1 martaga) o'sishi sabab bo'lgan. Viloyatda sholichilik muhim yo'nalish bo'lsada, mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanilayapti, deb bo'lmaydi. Bunga o'g'it, yoqilg'i va moliyaviy resurslari ajratilmasligi, mexanizatsiyalashuv darajasining pastligi, texnik bazaning nochorligi (90 foiz texnikaning xizmat muddati 15 yildan ortiqni tashkil etib, ehtiyot qismlar yetishmaydi) hamda suv resurslari ta'minotining beqarorligi to'sqinlik qilmoqda. Bundan tashqari, suv sarfi yuqoriligicha qolib, undan samarali foydalanilmayapti.

Viloyatda oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirish ham muhim ahamiyatga ega bo'lib, respublikada yetishtirilayotgan poliz mahsulotlarining 8 foizi, mevaning 7 foizi, sabzavotning 6 foizi, kartoshkaning 5 foizi va uzumning 3 foizi to'g'ri keladi. Poliz, sabzavot va kartoshka mahsulotlarining yapli hosilidagi ulushi ularning respublikadagi ekin maydonlaridagi ulushiga nisbatan pastligicha qolmoqda hamda mavjud holatni hosildorlik pastligi bilan izohlash mumkin (3.3.10-chizma).

**Xorazm viloyatining oziq-ovqat mahsulotlari  
yetishtirishda respublikadagi ulushi, %<sup>36</sup>**



Viloyatda yetishtirilayotgan oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi suv ta'minoti yaxshi bo'lgan Bog'ot, Gurlan, Urganch, Xazorasp va Xonqa tumanlariga to'g'ri kelib, ular viloyat umumiy sug'oriladigan ekin maydonlarining 54 foiziga hamda aholining 50 foiziga ega bo'lsada, 2013 yilda yetishtirilgan uzumning 75 foizi, poliz mahsulotlarining 57 foizi, kartoshkaning 55 foizi, sabzavotning 53 foizi va mevaning 48 foizi ular hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Sabzavot mahsulotlari yalpi hosili tahlil qilinayotgan davrda 5 martadan ortiqroqqa o'sgan bo'lib, unga asosan ekstensiv omillar hisobiga erishilmoqda. Hosildorligi esa o'rtacha respublika ko'rsatkichiga nisbatan 20 foizga pastligicha qolmoqda. Hosildorlikni tumanlar kesimida tahlil qilinganda esa Gurlan va Yangiariq tumanlari ko'rsatkichi eng ilg'or hisoblangan Andijon va Farg'ona kabi viloyatlar ko'rsatkichiga yaqinligini ko'rish mumkin. Ammo ushbu tumanlarda birorta ham sabzavot mahsulotlari yetishtirishga ixtisoslashgan fermer xo'jaliklari mavjud emas hamda ular umumiy ekin maydonning 2-3 foizida takroriy ekin sifatida mahsulot yetishtirish bilan shug'ullanishmoqda, xolos.

Viloyatda sabzavot mahsulotlari yetishtirishga ixtisoslashgan 23 ta fermer xo'jaligi mavjud bo'lib, ularning qariyb  $\frac{3}{4}$  qismi Xazorasp va Yangibozor

<sup>36</sup> Manba: Xorazm viloyati Statistika Boshqarmasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

tumanlarida joylashgan. Ushbu fermer xo'jaliklari ixtiyorida umumiy ekin maydonining atigi 0,1 foizi mavjud ekanligi, ayrim hollarda tuman reja ko'rsatkichlarini bajarish maqsadida ushbu maydonlarning ham bir qismida paxta va g'alla yetishtirilayotganligi sabzavotchilikni rivojlantirish imkoniyatini bermaydi. Bu tarkibi jihatidan respublikada betakror bo'lgan, Rossiya bozorida qadrlanadigan tomat pastasi ishlab chiqarish uchun juda mos bo'lgan pamidor kabi mahsulot turlarini yetishtirishni ko'paytirishga to'sqinlik qilmoqda.

2003 yilga qadar viloyatda shakar lavlagi yetishtirilib, respublikadagi yagona shakar zavodini qisman xom ashyo bilan ta'minlab kelgan. Zavodning konservatsiya qilinishi va import xom ashyo asosida ishlashga o'tishi lavlagi yetishtirishdan voz kyechishga olib kelgan. Bunga hosildorlikning (5 martaga yaqin) va shakarlilik darajasining xalqaro me'yorlarga nisbatan pastligi, tashishdagi sarf-harajatlarning va tabiiy yo'qotish darajasining yuqoriligi sabab bo'lgan.

Tahlil qilinayotgan davrda poliz mahsulotlari yalpi hosili 5,1 martaga o'sgan. Shunga qaramasdan hosildorlik pastligi saqlanib, respublikadagi eng past ko'rsatkichlardan (173 s/ga) biriga ega.

Poliz mahsulotlarining asosiy qismi fermer xo'jaliklari tomonidan ishlab chiqarilib, uning asosiy Urganch, Gurlan, Xazorasp va Yangibozor tuman fermerlari hissasiga to'g'ri keladi. Viloyatda yetishtiriladigan "gurvak" qovuni eksportbop hisoblansada, uni yetishtirish qisqarib bormoqda. Poliz mahsulotlariga yer maydonlarining kam ajratilishi, hashorotlarning ko'payib borayotganligi, eksportga cheklovlarning amal qilayotganligi hamda sanoat yo'li bilan qayta ishlashning mavjud emasligi viloyatda polizchilikni rivojlantirishga to'sqinlik qilmoqda, deyish mumkin.

2000-2013 yillar davomida meva mahsulotlari yalpi hosili 3,3 martaga ko'payib, bunga asosan hosildorlik o'sishi hisobiga erishilgan. Viloyat meva hosildorligi bo'yicha Buxoro, Andijon va Navoiy viloyatlaridan keyingi 4-o'rinni egallaydi. Boshqa mahsulotlardan farqli ravishda viloyatdagi 60 foizga yaqin mahsulot fermerlar tomonidan yetishtiriladi. Viloyat fermerlarining 2,5 foiz er

maydonlari bog'lardan iborat ekanligi, imkoniyatlar yuqoriligini ko'rsatadi. Faqatgina oxirgi 5 yilda hukumat dasturi asosida viloyatda 869 gektar yangi bog'lar (shundan 59 gektari intensiv bog'lar) tashkil etilgan, 2033 gektar bog'lar esa rekonstruksiya qilingan.


Viloyatdagi bog'larning asosiy qismi Shovot (Soxibkor, Maxtumquli va Mehnatobod), Xiva (Sayob, Juryon va Shomoxulum), Urganch (Qoramon, Paxtakor va Istiqbol) va Bog'ot (Nayman va Kulonqorabog') tumanlarida joylashgan bo'lib, ular tomonidan viloyat meva mahsulotlarining yarmiga yaqini ishlab chiqarilmoqda.

Shu davrda uzum yetishtirish hajmi 3 martaga oshgan bo'lsada, aholi jon boshiga ishlab chiqarish o'rtacha respublika ko'rsatkichiga nisbatan 2,2 martaga pastdir. Viloyatda yetishtirilayotgan uzumning 60 foizdan ortig'i Bog'ot, Urganch va Xazorasp tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.

Hukumat dasturi asosida oxirgi 5 yil davomida viloyatda 500 ga yangi uzumzorlar tashkil etilgan bo'lsada, fermer xo'jaliklari umumiy yer maydonining atigi 0,2 foizi tokzorlar tashkil etmoqda ortig'i Bog'ot, Xazorasp va Urganch tumanlariga to'g'ri keladi.

Uzumchilikdagi kuchli ixtisoslashuv Bog'ot tumanida mavjud bo'lib, birgina Dehqonobod aholisi va fermerlari tomonidan tumandagi mahsulotning 80 foizdan ortig'i yetishtirilib, uning asosiy qismi eksport qilinmoqda. Tok suvni kam talab qilishi, ayrim mevalarga nisbatan sho'rga chidamli ekanligini va viloyatda yetishtirilayotgan uzum ta'mi bo'yicha ustunlikka ega ekanligini e'tiborga oladigan bo'lsak, viloyatda bu boradagi ustunliklar samarali foydalanilmayapti.

Viloyatda chorvachilikni rivojlantirish ham muhim ahamiyatga ega bo'lib, u oziqa bazasining yaratilganligi bilan bog'liqdir. Viloyat hududining 18,2 foizini pichanzor va yaylovlar tashkil etib, ularning 99 foizi birgina Xazorasp tumaniga to'g'ri keladi. Yaylovlar bilan ta'minlanishi bo'yicha (1 qo'y-echkiga to'g'ri keladigan yaylov maydoni) respublikada eng oxirgi o'rinni egallab, bu ko'rsatkich 0,01 gektarni tashkil etadi (3.3.11-chizma).

**Respublikada 1 bosh qo'y-echkiga to'g'ri keladigan yaylov maydoni, ga<sup>37</sup>**

Yaylovlar maydonining kamligi viloyatda qo'y va echkichilikni jadal rivojlantirishga to'sqinlik qiladi. Viloyatda mayda shoxli chorvaning qariyb 2/3 qismi Qo'shko'pir, Xazorasp, Bog'ot va Urganch tumanlarida parvarishlanmoqda. Tahlil qilinayotgan davrda ular soni qariyb 2 martaga ko'paygan bo'lsada, ulushi bo'yicha respublikadagi eng past ko'rsatkichlardan birini (12-o'rinni) tashkil etmoqda. Mavjud qo'y va echkilarning 93 foizi aholiga tegishlidir.

Viloyat qoramollar bosh soni bo'yicha respublikada 8-o'rinni egallab, ularning asosiy qismi Urganch, Xazorasp, Xonqa va Shovot tumanlarida parvarishlanmoqda.

Viloyatdagi fermer xo'jaliklarining 10 foizi chorvachilikka ixtisoslashgan bo'lib, ularga fermerlar ixtiyoridagi umumiy yer maydonining 8 foizi birlashtirib berilgan. Bir bosh chorvaga 0,24 ga yoki me'yorga nisbatan 19 foizga kam yer maydoni to'g'ri keladi. Chorvachilikka ixtisoslashgan fermer xo'jaliklarning asosiy qismi Xonqa, Urganch, Xiva va Qo'shko'pir tumanlarida faoliyat ko'rsatmoqda.

Yirik shoxli chorvachilikni rivojlantirish bevosita oziqa bazasini rivojlantirish bilan bog'liq. Respublikada to'yimli oziqalar (shrot va kunjara) ichki talabga nisbatan bir necha marta kam ishlab chiqarilishi e'tiborga olgan holda moyli ekinlar yetishtirishni ko'paytirish talab etiladi.

Mutaxassislar xulosasiga ko'ra qoramolchilikni rivojlantirishda silos va senaj bosishni qayta tiklash, almashlab ekishni (beda) yo'lga qo'yish talab etiladi.

<sup>37</sup> Manba: Xorazm viloyati Statistika Boshqarmasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Hozirgi vaqtda viloyatda silos va senaj bosishga texnik ta'minotning mavjud holati imkoniyat bermaydi. Ya'ni viloyatda foydalanish muddati 20 yildan oshgan 2 dona silos o'rish kombayni mavjud bo'lib, ular ham jismoniy va ma'naviy eskirganligi sababli foydalanishga yaroqsizligicha qolmoqda.

Viloyat respublikada go'sht yetishtirish bo'yicha 9-o'rin va sut yetishtirish bo'yicha 2-o'rinda turib, tahlil qilinayotgan davrda aholi jon boshiga go'sht yetishtirish 1,7 martaga va sut yetishtirish 1,6 martaga o'sgan.

Fermerlar tomonidan ham sut yetishtirish rivojlanmoqda. Misol uchun, 2013 yil 2006 yilga nisbatan 4,7 marta ko'p sut yetishtirilib, bunga chorva mahsuldorligining (2,1 martaga) hamda bosh sonining (1,9 martaga) oshgani asosiy sabab hisoblanadi. Hozirgi vaqtda fermerlar tomonidan 1 bosh sigirdan sog'ib olinayotgan sut miqdori 1,6 tonnani tashkil etib, 2000 yilga nisbatan 1,3 martaga ko'paygan. Bu hukumat dasturi asosida 2006-2013 yillarda xorijdan 3233 bosh zotdor sigirlar olib kelinganligi bilan bog'liqdir. Import qilingan sigirlar soni bo'yicha Xorazm viloyati respublikada Toshkent viloyatidan keyingi 2-o'rinni egallab, ulushi 10 foizni tashkil etadi.

Shunga qaramasdan, aholi chorvachiligiga nisbatan mahsuldorlik nisbatan 1,6 martaga pastlicha qolmoqda. Bu viloyatda chorvachilik mahsuldorligi o'rtacha respublika ko'rsatkichiga nisbatan yuqori bo'lsada, soha oldidagi muhim masalalardan bir mahsuldorlikni oshirishdan iboratdir. Bu uni chorvachilik rivojlangan (AQSh, Kanada va Germaniya kabi) davlat darajasiga olib chiqish ustuvor ahamiyat kasb etadi. Buning uchun esa bir bosh sigirdan sog'ib olinadigan sut miqdorini 3,1 martaga va go'sht olishni esa 3,3 martaga oshirish talab etiladi.

Chorva mahsuldorlikni oshirish chetdan chorva olib kelishdan tashqari, viloyatda sun'iy urug'lantirish ishlarini rivojlantirish, aholiga ko'rsatilayotgan xizmat hajmi va sifatini oshirish talab etadi. Bu uchun esa o'rta ma'lumotli veterinariya vrachlari tayyorlashni yo'lga qo'yish, ularga mehnatiga munosib haq to'lash hamda zarur asbob-uskunalar (lokal dyum idishlar) bilan jihozlash lozim.

Pillachilikni rivojlantirish aholini qo'shimcha daromad bilan ta'minlash va eksportbop mahsulot ishlab chiqarishni rivojlantirish omilidir. Respublikada

yetishtirilayotgan pillaning 8 foizdan ortiqrog'i viloyat hissasiga to'g'ri keladi. Tahlil qilinayotgan davrda pilla yetishtirish 1,4 martaga ko'paygan. Yetishtirilayotgan mahsulotning deyarli yarmi Qo'shko'pir, Xonqa, Xazorasp va Bog'ot tumanlari fermerlariga to'g'ri keladi.

Yaponiya xalqaro hamkorlik agentligi JICA hamda Tokio qishloq xo'jalik va texnologiya universiteti hamkorligida 2012 yildan boshlab Shovot tumanidagi "Shovot Qala" QFYda pilla yetishtirish borasida zamonaviy usullarni qo'llash, yuqori sifatli ipak qurti yetishtirish, ipakdan tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish va eksport qilish borasida hamkorliklar yo'lga qo'yilgan. Loyiha asosida respublikada ilk bor yiliga ikki marta pilla yetishtirish (aprel-may, avgust oylarida) amalga oshirilmoqda. Pillachilikning rivoji xom ashyo bazasini rivojlantirish, mahsulotga munosib haq to'lash hamda to'lov tizimini takomillashtirish masalalari bilan chambarchas bog'liqdir. Viloyatdagi tajriba-sinov ishlarining samaradorlik darajasi uni respublikada keng joriy qilish imkoniyatini beradi.

Hozirgi vaqtda fermerlar tomonidan aholiga 1 quti pilla uchun 140 ming so'mga yaqin oylik berilib, fermer xo'jaliklari moliyaviy holatining yomonligi sababli yillar davomida shuni ham to'lashning imkoniyati bo'lmayotganligi uni yetishtirishdan voz kyechishga sabab bo'lmoqda. Bundan tashqari, tut ko'chatlarining aholi tomonidan qish mavsumlarida maishiy ehtiyojlar uchun kesib ishlatish holatlarining ortib borayotganligi mavjud xom ashyo bazasining ham qisqarishiga sabab bo'lmoqda. Paxta va g'alla dalalari atrofidagi ko'chatlardan esa maydonlarning mavsum davomida kimyoviy vositalar yordamida ishlov berilishi sababli samarali foydalanish imkoniyati yo'q.

Viloyatda umumiy maydoni 18 ming gektar bo'lgan 65 ta tabiiy ko'llar va 345 gektar sun'iy suv havzalarida baliq yetishtirilayotgan bo'lib, 1 ga suv havzasida 63 kg baliq to'g'ri keladi. Bu amaldagi mahsuldorlikning O'zbekiston Fanlar Akademiyasi O'simlik va hayvonot dunyosi genafondi instituti tomonidan taklif qilinayotgan beton basseynlar baliq yetishtirishga nisbatan o'rtacha 750 martaga hamda Isroilning "To'liq yopiq suv tizimi" loyihasiga nisbatan 19 ming martaga pastligini ko'rsatadi.



Amalga oshirilgan tahlil natijalaridan kelib chiqqan holda Xorazm viloyatida qishloq xo'jaligi rivojlanishiga to'sqinlik qilayotgan omillarni quyidagicha ifodalash mumkin:

- viloyat sug'oriladigan ekin maydonlari to'liq sho'rlanganligi, o'rta va kuchli sho'rlangan yerlar ulushining esa 50 foizdan ortiqni tashkil etishi bilan ajralib turadi;

- viloyat ekin maydonlarining 80 foizdan ortig'i sun'iy sug'orilib, suv sarfi o'rtacha respublika ko'rsatkichiga nisbatan qariyb 1,5 martaga yuqoridir;

- paxta hosildorligi o'rtacha respublika ko'rsatkichidan yuqori bo'lsada, rentabellik darajasining viloyatlar orasida eng past ko'rsatkichligicha qolmoqda;

- viloyatdagi paxta maydonlarining 99 foizi hosildorligi past bo'lsa, 12 foizdan ortig'i esa juda past hosildorlikka egaligi sababli paxta yetishtirishni davom ettirish samarasiz bo'lmoqda;

- g'alla hosildorligi va rentabellik darajasi bo'yicha respublikadagi eng past ko'rsatkichlardan birilgicha qolmoqda;

- sabzavot, kartoshka va poliz mahsulotlari hosildorligining pastligi saqlanib, qayta ishlashning rivojlanmaganligi, ichki bozor talabining cheklanganligi, qo'shni viloyatlar bozorlariga bo'lgan masofaning uzoqligi, eksportdagi cheklovlarning saqlanib qolayotganligi mavjud ichki imkoniyatlardan samarali foydalanish imkoniyatini bermayapti;

- viloyatda yirik chorvachilikni rivojlantirish va uning mahsuldorligi oshirish muhim ahamiyatga ega bo'lib, viloyatda yaylov maydonlarining kamligi fermer xo'jaliklari tomonidan qo'y va echkichilikni rivojlantirish imkoniyatini bermaydi;

- respublikada ilk bor pilladan yiliga 2 marta hosil olish tajribasi amalga oshirilayotgan bo'lib, xom ashyo bazasini rivojlantirish, mahsulotga munosib haq to'lash hamda to'lov tizimini o'zgartirish muhim ahamiyatga ega;

- baliq yetishtirish ortib borayotgan bo'lsada, mahsuldorlik pastligi sababli mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanilmayapti.

Viloyatdagi suv tanqisligi kuchayib borayotgan, yerlar sho'rlanishi darajasi ortib, sizot suvlari satxi ko'tarilayotgan, mahsulotlar hosildorlik ko'rsatkichi

respublikadagi eng past ko'rsatkichlardan biri tashkil etayotgan bir sharoitda Xorazm viloyati qishloq xo'jaligini rivojlantirishning eng muhim omillaridan biri innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanish hisoblanadi. Xorazm viloyati mutaxassisleri tomonidan ZEF/UNESCO loyihasi asosida tayyorlangan ishlanmalarni foydalangan holda eng muhimlar yo'nalishlar sifatida quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin:

1. Xorazm sharoitida qishloq xo'jalik mahsulotlaridan ko'zlangan hosilni olishda azotli o'g'itlarni o'z vaqtida va kerakli miqdorda berish muhim ahamiyatga ega. Respublikada g'alla va paxtaga ishlatilayotgan azotli o'g'itlarning 5 foizdan ortig'i viloyat hissasiga to'g'ri kelib, 1 ga g'alla maydoniga 178 kg, paxtaga esa 2,5 tonnadan ortiqroq azotli o'g'it to'g'ri kelmoqda. Azotli o'g'itlardan me'yoridan ortiqcha foydalanish nafaqat fermerlar harajatining ortishi, balki atrof-muhitga (havo, er osti suvlari) hamda ko'zlangan hosil miqdoriga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Viloyatda ZEF/UNESCO loyihasi tadqiqotchilari tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlar natijasida SPAD-502 XLOROFILLMETR asbobi yordamida vegetatsiya davrida o'simliklarning azotli o'g'itlarga bo'lgan optimal talabini aniqlash imkoniyatiga ega bo'lingan.<sup>38</sup> Mavjud usuldan Yevropa davlatlari, AQSH va Hindistonda samarali foydalanib kelinmoqda. Tadqiqotlar natijasida xlorofillmetrni qo'llash natijasida 100 ga maydondagi paxta maydoniga ishlatiladigan azotni 2 tonnaga va amiakli selitrani 6 tonnaga qisqartirish mumkinligi isbotlangan. Bu esa viloyatda paxta yetishtirish uchun bir yilda sarflanayotgan azotli o'g'itlarni 2,1 ming tonna (35%)ga hamda amiakli selitrani 6,2 ming tonna (31%)ga iqtisod qilish deganidir.

2. Tuproq meliorativ holatini yaxshilar, yer resurslari degradatsiyasining oldini olishda AGROO'RMONMELIORATSIYA usuli muhim ahamiyatga ega. Agroo'rmonmelioratsiya – bu tabiiy resurslarni tizimli boshqarishning tasdiqlangan usuli bo'lib, sho'rga chidamli mevali va manzarali daraxtlarni yetishtirish orqali erlar unumdorligini oshirish hamda sohibi uchun daromad olishni ko'zda tutadi. Daraxt turlarini samarali joylashtirish sizot suvlari satxining

---

<sup>38</sup> Н.Ибрагимов и др. Инновации в сельское хозяйство Узбекистана. Стр 17-21. <http://www.khorezm.zef.de/>.

pasayishi, tuproq unumdorligining yaxshilanishi, suv va mineral o'g'itlarning iqtisod qilinishi hamda kuchli sho'rlangan yer maydonlari hajmining qisqarishiga xizmat qiladi. JIYDA shunday daraxtlar sirasiga kirib, uning ildizida azot elementini to'plovchi tuganak bakteriyalar (aktinomitset) mavjud bo'lganligi sababli tuproqni oziqabop mineral bilan ta'minlashga yordam beradi. Shu boisdan bu daraxtni xalq orasida "tuproq melioratori" deyiladi. Bundan tashqari, mevasidan oziq-ovqat sanoatida foydalanish mumkin bo'lsa, daraxtidan to'qimachilik sanoati uchun sifatli elim olish, elim asosida farmatsevtika sohasida maxsus emulsiyali dorilar tayyorlash, po'stlog'i va barglaridan teri oshlashda foydalanish mumkin. Uning gullari asalarilarga, barglari esa chorva uchun oziqa hisoblanadi.

3. Dehqonchilikda qishloq xo'jalik ekinlarini yaxshi yetishtirish, sug'orish, o'g'itlardan samarali foydalanish, energiya resurslar sarfini tejash, ekinlardan yuqori va sifatli hosil olish kabi jarayonlar dala maydoni tekisligiga bog'liqdir. Ekin maydonlarining notekisligini bartaraf etishda LAZERLI TEKISLASH USULI<sup>39</sup> dan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Bu dala maydoni yuzasidagi eng past va baland joylarfarqi 1-3 santimetrdan oshmaydigan darajada, maxsus lazer jihozli qurilma orqali tekislashni anglatadi. Tadqiqotlar mavjud usuldan foydalanish suv sarfining 30 foizgacha qisqarishi, bug'doy (4 s/ga) va paxta (2,5 s/ga) hosildorligining o'sishiga erishish imkonini berishini isbotlaydi.

4. O'zbekiston Fanlar akademiyasi Suv muammolari instituti hamda Toshkent irrigatsiya va melioratsiya instituti olimlari tomonidan TOMCHILATIB SUG'ORISHNING PAST BOSIMLI TIZIM SXEMASI ishlab chiqilib, konstruksiyasi oddiyliги sababli amaldagi tizimlarga nisbatan 3 baravarigacha arzonligi bilan farq qiladi. Tajriba natijalarida sho'rlangany erlarda paxta yetishtirishda suv sarfini 40 foizga qisqartirish hamda hosildorlikni qo'shimcha 30-35 foizga oshirishga erishilgan.

---

<sup>39</sup> Mavjud usulni qo'llash hisobiga suv sarfini 25 foizgacha tejash yoki mintaqada 600 mln metr kubdan ortiq suvni tejash orqali qo'shimcha 50 ming gektardan ortiq erni sug'orish imkoniyatiga ega bo'linadi. Bundan tashqari, paxta va g'alla hosildorligining 4-7 ts/ga qadar o'sib, sug'orishga ketadigan vaqt, ishchi kuchi va energiya tejaladi. Ekinlar bir xil me'yorda oziqlanishi va namlik bilan ta'minlanishi natijasida begona o'tlar miqdori 15 foizgacha kamayadi. Natijada rentabellikning paxtada 50 foizdan ortiqqa hamda g'allada 2,4 martagacha o'sishiga erishish mumkin.

5. Qishloq xo'jalik mahsulotlari urug'larini ekishdan oldin O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Polimerlar kimyosi va fizikasi instituti tomonidan ishlab chiqilgan KAPSULALASH TEXNOLOGIYASIdan foydalanish chigit ekish unuvchanlikning yuqori bo'lishi, g'o'zani yagonalashga hojat qolmasligi va turli kasalliklarga chidamliligini ta'minlaydi. Yangi texnologiya yordamida aniq ekish tufayli urug'lik sarfini 30 foizgacha qisqartirish, g'o'zaning qisqa muddatda unib chiqishi va hosildorlikning o'rtacha 5 sentnerga yuqori bo'lishiga erishish mumkin. Natijada ishlab chiqarish sarf-harajatlari 1,7 barobargacha kamayadi. Ushbu texnologiyadan sabzavot va poliz ekinlari urug'larini tayyorlashda foydalanish esa ularning unib chiqish muddatini 20 foizgacha qisqartirish, hosildorlikni 7 sentnergacha oshirish, mehnat va moddiy sarf-harajatlarni 30 foizgacha kamaytirish imkonini beradi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tadqiqotlar va tahlillar quyidagi asosiy xulosa va takliflarni ifodalash imkonini beradi:

Viloyatdagi suv tanqisligi kuchayib borayotgan, yerlar sho'rlanishi darajasi ortib, sizot suvlari satxi ko'tarilayotgan, mahsulotlar hosildorlik ko'rsatkichi respublikadagi eng past ko'rsatkichlardan biri tashkil etayotgan bir sharoitda Xorazm viloyati iqtisodiyotini ekologiyalashtirishning eng muhim omillaridan biri innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanish hisoblanadi.

1. Ekologiyalashgan hosilni olishda azotli o'g'itlarni o'z vaqtida va kerakli miqdorda berish muhim ahamiyatga ega. Respublikada g'alla va paxtaga ishlatilayotgan azotli o'g'itlarning 5 foizdan ortig'i viloyat hissasiga to'g'ri kelib, 1 ga g'alla maydoniga 178 kg, paxtaga esa 2,5 tonnadan ortiqroq azotli o'g'it to'g'ri kelmoqda. Azotli o'g'itlardan me'yoridan ortiqcha foydalanish nafaqat fermerlar harajatining ortishi, balki atrof-muhitga (havo, yer osti suvlari) hamda ko'zlangan hosil miqdoriga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Viloyatda ZEF/UNESCO loyihasi tadqiqotchilari tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlar natijasida SPAD-502 XLOROFILLMETR asbobi yordamida vegetatsiya davrida o'simliklarning azotli o'g'itlarga bo'lgan optimal talabini aniqlash imkoniyatiga ega bo'lingan.<sup>40</sup> Mavjud usuldan Yevropa davlatlari, AQSh va Hindistonda samarali foydalanib kelinmoqda. Tadqiqotlar natijasida xlorofillmetrni qo'llash natijasida 100 ga maydondagi paxta maydoniga ishlatiladigan azotni 2 tonnaga va amiakli selitrani 6 tonnaga qisqartirish mumkinligi isbotlangan. Bu esa viloyatda paxta yetishtirish uchun bir yilda sarflanayotgan azotli o'g'itlarni 2,1 ming tonna (35%)ga hamda amiakli selitrani 6,2 ming tonna (31%)ga iqtisod qilish deganidir.

2. Tuproq meliorativ holatini yaxshilash, yer resurslari degradatsiyasining oldini olishda AGROO'RMONMELIORATSIYA usuli muhim ahamiyatga ega. Agroo'rmonmelioratsiya – bu tabiiy resurslarni tizimli boshqarishning tasdiqlangan usuli bo'lib, sho'rga chidamli mevali va manzarali daraxtlarni yetishtirish orqali yerlar unumdorligini oshirish hamda sohibi uchun daromad

---

<sup>40</sup> Н.Ибрагимов и др. Инновации в сельское хозяйство Узбекистана. Стр 17-21. <http://www.khorezm.zef.de/>.

olishni ko'zda tutadi. Daraxt turlarini samarli joylashtirish sizot suvlari satxining pasayishi, tuproq unumdorligining yaxshilanishi, suv va mineral o'g'itlarning iqtisod qilinishi hamda kuchli sho'rlangan yer maydonlari hajmining qisqarishiga xizmat qiladi. **JIYDA** shunday daraxtlar sirasiga kirib, uning ildizida azot elementini to'plovchi tuganak bakteriyalar (aktinomitset) mavjud bo'lganligi sababli tuproqni oziqabop mineral bilan ta'minlashga yordam beradi. Shu boisdan bu daraxtni xalq orasida "tuproq melioratori" deyiladi. Bundan tashqari, mevasidan oziq-ovqat sanoatida foydalanish mumkin bo'lsa, daraxtidan to'qimachilik sanoati uchun sifatli elim olish, elim asosida farmatsevtika sohasida maxsus emulsiyali dorilar tayyorlash, po'stlog'i va barglaridan teri oshlashda foydalanish mumkin. Uning gullari asalarilarga, barglari esa chorva uchun oziqa hisoblanadi.

3. Dehqonchilikda qishloq xo'jalik ekinlarini yaxshi yetishtirish, sug'orish, o'g'itlardan samarali foydalanish, energiya resurslar sarfini tejash, ekinlardan yuqori va sifatli hosil olish kabi jarayonlar dala maydoni tekisligiga bog'liqdir. Ekin maydonlarining notekisligini bartaraf etishda LAZERLI TEKISLASH USULI<sup>41</sup> dan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Bu dala maydoni yuzasidagi eng past va baland joylarfarqi 1-3 santimetrdan oshmaydigan darajada, maxsus lazer jihozli qurilma orqali tekislashni anglatadi. Tadqiqotlar mavjud usuldan foydalanish suv sarfining 30 foizgacha qisqarishi, bug'doy (4 s/ga) va va paxta (2,5 s/ga) hosildorligining o'sishiga erishish imkonini berishini isbotlaydi.

4. O'zbekiston Fanlar akademiyasi Suv muammolari instituti hamda Toshkent irrigatsiya va melioratsiya instituti olimlari tomonidan TOMCHILATIB SUG'ORISHNING PAST BOSIMLI TIZIM SXEMASI ishlab chiqilib, konstruksiyasi oddiyliги sababli amaldagi tizimlarga nisbatan 3 baravarigacha arzonligi bilan farq qiladi. Tajriba natijalarida sho'rlangan yerlarda paxta yetishtirishda suv sarfini 40 foizga qisqartirish hamda hosildorlikni qo'shimcha 30-35 foizga oshirishga erishilgan.

---

<sup>41</sup> Mavjud usulni qo'llash hisobiga suv sarfini 25 foizgacha tejash yoki mintaqada 600 mln metr kubdan ortiq suvni tejash orqali qo'shimcha 50 ming gektardan ortiq erni sug'orish imkoniyatiga ega bo'linadi. Bundan tashqari, paxta va g'alla hosildorligining 4-7 ts/ga qadar o'sib, sug'orishga ketadigan vaqt, ishchi kuchi va energiya tejaladi. Ekinlar bir xil me'yorda oziqlanishi va namlik bilan ta'minlanishi natijasida begona o'tlar miqdori 15 foizgacha kamayadi. Natijada rentabellikning paxtada 50 foizdan ortiqqa hamda g'allada 2,4 martagacha o'sishiga erishish mumkin.

5. Qishloq xo'jalik mahsulotlari urug'larini ekishdan oldin O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Polimerlar kimyosi va fizikasi instituti tomonidan ishlab chiqilgan KAPSULALASH TEXNOLOGIYASIdan foydalanish chigit ekish unuvchanlikning yuqori bo'lishi, g'o'zani yagonalashga hojat qolmasligi va turli kasalliklarga chidamliligini ta'minlaydi. Yangi texnologiya yordamida aniq ekish tufayli urug'lik sarfini 30 foizgacha qisqartirish, g'o'zaning qisqa muddatda unib chiqishi va hosildorlikning o'rtacha 5 sentnerga yuqori bo'lishiga erishish mumkin. Natijada ishlab chiqarish sarf-harajatlari 1,7 barobargacha kamayadi. Ushbu texnologiyadan sabzavot va poliz ekinlari urug'larini tayyorlashda foydalanish esa ularning unib chiqish muddatini 20 foizgacha qisqartirish, hosildorlikni 7 sentnergacha oshirish, mehnat va moddiy sarf-harajatlarni 30 foizgacha kamaytirish imkonini beradi.

6. Mintaqaviy iqtisodiyotning raqobatbardoshligi fundamental kategoriya sifatida namoyon bo'lib, mintaqaviy takror ishlab chiqarish shart-sharoitlari va omillarining majmuini ham, umuman bir butun hududiy birlik manfaatlarini hisobga olgan holda tabiiy-resurs potensialidan foydalanish samaradorligini ham o'z ichiga oladi.

7. Mintaqaviy rivojlanishning tabiiy-ekologik tarkibiy qismi, shuningdek tabiiy resurslardan foydalanish hajmlarining tobora o'sib borayotgani raqobatbardoshlikning ekologik-iqtisodiy jihatini ustuvor yo'nalish sifatida ajratib olinishini taqozo etadi.

8. Mintaqaning ekologik-iqtisodiy raqobatbardoshligi Xorazm viloyati ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasining amalga oshirilishi bilan bog'liq bo'lib, bunda, albatta, hududning jahon xo'jalik aloqalari va milliy iqtisodiyotdagi o'rni hisobga olinadi. Strategiyaning maqsadi mintaqa iqtisodiyotining izchil modernizatsiyasiga yo'naltirilgan, bu turistik-rekreatsion majmua va agrosanoat ishlab chiqarishining resurs imkoniyatlari va raqobatbardoshlik afzalliklariga innovatsion rivojlanish, ya'ni tabiatdan foydalanishning salbiy oqibatlarini kamaytirish uchun ekologik yo'naltirilgan innovatsion faoliyatni jadallashtirishni ko'zda tutadi.

9. Xorazm viloyati iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirish ustuvor yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

- mintaqa tranzit potensialining rivojiga chet el investitsiyalarining to'g'ridan-to'g'ri jalb qilinishini rag'batlantirish yo'li bilan viloyatning investitsion jozibadorligini oshirish; aholining turmush darajasi va sifatini oshirish, iste'molchilar talabini faollashtirish va kengaytirish, shu jumladan chet el turizmini rivojlantirishga qaratilgan ijtimoiy muhim sohalarni (sog'liqni saqlash, ta'lim, madaniyat va h.k.) investitsiyalashni kuchaytirish; daryo baliqlari turlarini, yuqori sifatli sabzavot turlari va polizchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish va qayta ishlashda mintaqaning raqobatbardoshlik afzalliklaridan samarali foydalanish;

- korxonalarni, birinchi navbatda ishlab chiqarish sohasi korxonalarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlash bilan bog'liq sanoat ishlab chiqarishini rivojlantirish, ko'p mehnat talab qiladigan mashinasozlik sohasini rivojlantirish hisobiga sanoat tuzilmasini tarkibiy yangilash, paxta tolasini chuqur qayta ishlash bo'yicha ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish; meva va sabzavotlarni qayta ishlash, quritish va qadoqlash bo'yicha eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarishlarni yaratishga qaratilgan loyihalarni amalga oshirish; yog'-moy sanoatida yangi ishlab chiqarish quvvatlarini ishga tushirish;

- kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish. Bu birinchi navbatda quyidagilarni ko'zda tutadi: tikuv mahsulotlari, qurilish materiallarini ishlab chiqarish bo'yicha yangi kichik korxonalarni yaratish; mintaqaning raqobatbardoshlik afzalliklarini hisobga olgan holda qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlash bo'yicha agrofirmalar va kooperatsiyalarni rivojlantirish hamda meva, sabzavot va polizchilik sharbatlari, turli konserva mahsulotlari, oziq-ovqat mahsulotlari va ziravorlar, quruq mevalarning yangi ishlab chiqarishini tashkil etish va ularning eksportini oshirish; milliy tovarlar va xalq hunarmandchiligi buyumlarini ishlab chiqarishni rivojlantirish; Turkmaniston Respublikasi bilan chegaraga yaqin savdo va iqtisodiy hamkorlik sohasida kichik tadbirkorlikni rivojlantirish; sayyohlik biznesi va uning butun infratuzilmasini rivojlantirish;



10. Mintaqada innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish iqtisodiyotning barcha sektorlarida, ayniqsa sanoat sektorida, ishlab chiqarilgan qo'shimcha qiymatning o'sishi innovatsion mahsulot ishlab chiqarilishining kengayishi va ekologik oqibatlarining kamayishi evaziga ta'minlanishi lozim. Bunga esa fan, innovatsion tadbirkorlik va sanoatning o'zaro aloqasini ta'minlash hisobiga erishiladi. Bunday o'zaro aloqani tashkil etishda mintaqaning innovatsion ta'lim tizimi yetakchi va samarali vosita hisoblanadi. Bu tizimning faoliyat ko'rsatishi mintaqaning tabiiy-resurs salohiyatidan oqilona foydalanish hisobiga mintaqada iqtisodiyoti rivojlanishining ustuvor yo'nalishlarida ilmiy-texnik yutuqlarning yuqori texnologik, raqobatbardosh tovarlar, ishlab chiqarish jarayonlari, xizmatlarga aylantirilishini ta'minlaydi.

11. Xorazm viloyatining turistik-rekreatsion klasterida Xiva tarixiy-rekreatsion majmua asosida sohalararo klasterlarni shakllantirish uchun klasterning prinsipial modelini yaratish, uning tashkiliy tuzilmasini ishlab chiqish, klasterlarni shakllantirish bosqichlarini hamda ularni amalga oshirish muddatlarini belgilash talab qilinadi. Bularning hammasi mintaqada iqtisodiyotidagi ushbu sektorning raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

## **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.**

### **I. Rasmiy hujjatlar**

1. Закон Республики Узбекистан «Об охране природу» от 1991г.
2. Закон Республики Узбекистан «О воде и водопользовании» от 1993г.
3. Закон Республики Узбекистан «О разгосударствлении и приватизации» от 19.11.1991 г. № 425- ХИИ // Ведомости Олий Мажлиса Республики Узбекистан, 1995, № 9, с. 193.
4. Закон Республики Узбекистан «Об охране атмосферного воздуха» от 1996г.
5. Закон Республики Узбекистан «Об охране и использовании растительного мира» от 1997г.
6. Закон Республики Узбекистан «Об охране и использовании животного мира» от 1997г.
7. Земельный кодекс Республики Узбекистан, 1998г.
8. Закон Республики Узбекистан «О лесе» от 1999 г.
9. Закон Республики Узбекистан «Об охраняемых природных территориях» от 2004 г.
10. Указ Президента Республики Узбекистан «О дополнительных мерах по стимулированию модернизации технического и технологического перевооружения производства» № УП-3860 от 14.03.2007 г.
11. Постановление Президента Республики Узбекистан «О дополнительных мерах по стимулированию внедрения инновационных проектов и технологий в производство» от 15 июля 2008 г. № ПП-916.
12. Постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан «Об утверждении Положения о государственном мониторинге окружающей среды» от 2002 г.
13. Международной конференции "Развитие сотрудничества в регионе бассейна Аральского моря по смягчению последствий экологической катастрофу", состоявшейся под единой ООН в г.Ургенче 28-29 октября 2014 г. Ташкент. Узбекистан. 2015.

## **II. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari va ma'ruzalari**

14. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning 2013 yilning asosiy yakunlari va 2014 yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi "Bosh maqsadimiz -keng ko'lamli islohotlar va modernizatsiya yo'lini qattiyat bilan davom ettirish" mavzusidagi ma'ruzasini o'rganish bo'yicha o'quv qo'llanma. -T.: "O'qituvchi" NMIU. -2014. -360 b.

15. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2013 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2014 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. Xalq so'zi. 2014 yil 18 yanvar.

16. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning "O'zbekistonda oziq-ovqat dasturini amalga oshirishning muhim zahiralari" mavzusidagi xalqaro konferensiyaning ochilish ma'rosimidagi nutqi. Xalq so'zi. 7 iyun 2014 yil.

17. 2015 yilda iqtisodiyotimizda tub tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish hisobidan xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikka keng yo'l ochib berish – ustuvor vazifamizdir. O'zbekiston Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2014 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2015 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. Xalq so'zi. 17 yanvar 2015 yil.

18. Bosh maqsadimiz – mavjud qiyinchiliklarga qaramasdan olib borayotgan islohotlarni, iqtisodiyotimizda tarkibiy o'zgarishlarni izchil davom ettirish, xususiy mulkchilik, kichik biznes va tadbirkorlikka yanada keng yo'l ochib berish hisobidan oldinga yurishdir. O'zbekiston Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2015 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2016 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. Xalq so'zi. 16 yanvar 2016 yil.

19. I.A Karimov. BMT sammiti “ Mingyillik rivojlanish maqsadlariga ” bag’ishlangan yalpi majlis. 20.09.2010.

20. Каримов И.А. Наша главная задача – дальнейшее развитие страну и повышение благосостояния народа. - Ташкент.: Узбекистан, 2010. 72 с.

### **III. Dissertatsiya avtoreferatlari**

21. Aimbetov N.Q. Murakkab ekologik sharoitida iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarni modellashtirish ( Qoraqalpog’iston Respublikasi misolida). Iqtisod fanlar doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. T.: TDIU. 2000.-38 b.

22. Байгелдиев У.Б. Экологические аспекты развития промышленного производства Жамбулской области. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Т.: НИИЕ и РПС.1996.- с.21.

23. Бектемиров К.К.Обеспечение развития региона в условиях экологической напряженности (на примере Республики Каракалпакстан). Автореферат диссертации на соискание ученой степени доктора экономических наук. Т.: НУУз им.М Улугбека.2008, с.37.

24. Бектурдиев М.Б. Использование природно-ресурсного потенциала и особенности устойчивого развития Республики Каракалпакстан. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Т.: Институт макроэкономических и социальных исследований. 2000, с.22.

25. Ли М. Экономические и Экологические аспекты развития производства сельхозпродукции в Республике Узбекистан. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. – Т.: БФА, 2010. – 24с.

26. Рузметов Б. Комплексное развитие региона в условиях углубления экономических реформ. Автореферат диссертации на соискание ученой степени доктора экономических наук. Т.: Институт макроэкономических и социальных исследований.1998, с.38.

27. Radjapov K. Institutsional islohatlar sharoitida qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirish( Xorazm viloyati misolida). Iqtisod fanlar nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. T.: BMA. 2009, 26 b.

28. Ubaydullaev K. Orolbo'yi ekologik sharoitida ishlab chiqarish resurslaridan foydalanishni modellashtirish va samaradorligini oshirish yo'llari. Iqtisod fanlar doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. T.: O'zbekiston bozor islohotlari ilmiy tadqiqot instituti. 2005.-46 b.

29. Якубов И. Формирование эффективной структуры экономики регионов Республики Узбекистан в условиях углубления рыночных реформ. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Т.: НУУз им.М Улугбека.2005, с.23.

#### **IV. Maxsus adabiyot**

30. Abduraxmanov K., Axmedov T., Kado'rov A., Xasandjanov K. Razmeshenie proizvoditelno'x sil. T.: Filial REA im.G.V. Plexanova v g. Tashkente. 2010, s. 207.

31. Абатуров В. Административная реформа на местах. Т.: Экономическое обозрение. 2005, №1. с.19.

32. Abdimuminov O. O'zbekiston va BMT: Orol muammosi yuzasidan hamkorlik. G'G' Jamiyat va boshqaruv. – Tashkent, 2010. -№4.- b. 37-40.

33. Abirkulov K. Suv va hayot muammolari. T.: O'zbekiston qishloq xo'jaligi, 1997, №3, 15-16 b.

34. Авлиякулов А.О Национальной политике в сфере использования земельных ресурсов. Т.: Сельское хозяйства Узбекистана. 2000, №5, с.58-60

35. Abdullaev M. Ming yillik rivojlanish maqsadlari va atrof muhit. T.: G'G' Jamiyat va boshqaruv. – Tashkent, 2010. -№4.- b. 40-42.

36. Ахмедов Т.М., Трушин Е., Муинов Д.А. Концептуальные основы формирования экспортоориентированной структуры экономики Республики Узбекистан до 2010 г. // Экономический вестник Узбекистана. – Ташкент, 2000. - № 1. – С.8-15., - № 2. – С.2-7.

37. Адилходжаева С. Конкуренция – двигатель прогресса (Обзор зарубежного и международного законодательства о защите конкуренции) // Экономическое обозрение. – Ташкент, 2000. -№2.- С. 19-24.
38. Akromov G'., Musaev Ya. O'zbekistonning iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi. T.: Mehnat, 2002, 256 b.
39. Almatova D. Mintaqaviy tadbirkorlikni rivojlantirish istiqbollari. T.: O'qituvchi, 2005, 141 b.
40. Алимов Р., Камилова М., Курбанова Д. Кластерная концепция экономического развития. Теория и практика. – Т.: ИЕ АН РУз, 2005. – 54 с.
41. Бутиков И. Институциональные основы формирования многоукладной экономики. Т.: Консаудитинформ. 2002, с. 272.
42. Батурина В.В. Развитие промышленности Узбекистана: структурные сдвиги и приоритеты // Экономика Узбекистана. – Ташкент, ЦЕЭП, 2005. - с. 97-105.
43. Беркинов Б.Б., Галаева Н.А., Неделкина Н.И. Приватизация и создание конкурентной среды // Трансформация экономической системы и проблемы формирования конкурентной среды: Тез. докл. Межд. сем. 23 февраля 2005. – Ташкент, 2005.- С.26-30.
44. Брундтланд Г.Х. Наше общее будущее. Пер.с англ. М.: Прогресс, 1989, с.189.
45. Валерстайн И. Анализ мировых систем и ситуация в современном мире. -СПб., 2001. 146
46. Вахабов А., Эгамбердиев Ф. Трансформация государственной аграрной политики и формирование механизма регулирования сельскохозяйственного производства в регионе. Т.: Вестник НУУз. 2001, №3.
47. Рузметов Б. Региональная экономика: опыт, проблемы, эффективность комплексного развития. Т.: Фан, 2002.
48. Половинкин П. Повышение конкурентоспособности АПК. М.: Экономист. №10, 2005, с.74.

49. Портер М. Международная конкуренция. – Москва: Международные отношения, 2005. – 859 с.
50. Портер М. Конкурентная стратегия: методика анализа отраслей и конкурентов. М.: Алпина Бизнес Букс, 2005, с.375.
51. Walter G. Competitiveness: a General Approach \ \ RECEP'S Reports. 2004.
52. Chandler A.D., Jr. Strategy and Structure. M.I.T. Press, Cambridge, Mass., 1962.
53. Global Competitiveness Report. 2000-2009. World Economic Forum. Geneva, 2009.
54. Stiglitz J. Two principles for the Next Round, Geneva, 21 sentyabrya 1999 goda.
55. Fujita M, Krugman P, Venables A. The Spatial Economy: Cities, Regions and International Trade, Gambridge MIT Press, 1999
56. Krugman P. Geography and Trade, Gambridge MIT Press, 1991
57. Porter M. Clusters and sompetition: newagendas for companies, governments and institutions. Gambridge Mass. Harvard Business School Press, 1998.
58. Porter M. Location, clusters and the new microeconomics of sompetition. Jornal of Business Economics, 1999.
59. Braczyk H, Cooke P, Heidenreich M. Regional Innovation Systems. UGL Press, London, 1998.
60. Рузметов Б. Матякубова Д. Бекжанов Д. Повышенные эффективности аграрного сектора как основа человеческого развития. “O’zbekistonda tadbirkorlikni rivojlantirish va inson taraqqiyoti darajasini oshirishning ijtimoiy psixologik yo’nalishlari” O’zbekiston oliy o’quv yurtlariaro ilmiy amaliy anjuman materiallari, 3-4 iyun 2014. Buxoro. 2014
61. И.Абдуллаев, Б.Ибрагимов, Д.Ибрайимова. Человеческое развитие и социальные направленность государственных программ в Узбекистане. “O’zbekistonda tadbirkorlikni rivojlantirish va inson taraqqiyoti darajasini

oshirishning ijtimoiy psixologik yo'nalishlari". O'zbekiston oliy o'quv yurtlariaro ilmiy amaliy anjuman materiallari, 3-4 iyun 2014. Vuxoro. 2014

62. Б. Ибрагимов, Д. Бекжанов, Д. Ибрайимова. Приоритетные направления обеспечения экологической безопасности в регионе. "Mintaqalarda ishbilarmonlik muhitini yanada yaxshilash, kichik biznes va hususiy tadbirkorlikni rivojlantirish asosida mamlakatda barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashning ustuvor yo'nalishlar" mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari, Urganch. 2013.

#### **V. Statistika ma'lumotlar**

63. Экономика Узбекистана \\\ Аналитический обзор за 2008-2013г. г. – Т.: Узбекистан, 2014.

64. Социально-экономическое развитие Узбекистана \\\ Стат. бюллетен за 2008- 2013 гг. – Т.: Госкомстат РУз.

#### **VI. Internet – resurslari**

65. [www.mineconomy.uz](http://www.mineconomy.uz)

66. [www.senat.uz](http://www.senat.uz)

67. [www.parliament.gov.uz](http://www.parliament.gov.uz)

68. [www.stat.uz](http://www.stat.uz)

69. [www.gov.uz](http://www.gov.uz)

70. [www.press-service.uz](http://www.press-service.uz)

71. [www.cer.uz](http://www.cer.uz)

72. [www.worldbank.org](http://www.worldbank.org)

73. [www.krsu.edu.kg/vestnik/v3/a15.html](http://www.krsu.edu.kg/vestnik/v3/a15.html)

74. [www.dinform.ru/newanalit](http://www.dinform.ru/newanalit)

75. <http://www.fao.org>

76. <http://www.citystrategy.leontief.ru>.

77. <http://www.jn.vscs.ac.ru>.